ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

6

(noyabr-dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

4 Muloqot madaniyati o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligining asosiy omili

TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

R. Djurayev, M. Inoyatova — 6 Mustaqil O‘zbekistonda ma’naviy-axloqiy g‘oyalarning rivoji

F. Karimova — 11 O‘quv jarayonida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish

H. Begimqulov — 16 Pedagogning axborot muhitida rivojlantirish muammolari va axborot kompetenligi mazmuni

M. Umaraliyeva — 20 Innovatsion faoliyatni takomillashtirish asosida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish mazmuni

U. Mahkamov, D. Mahkamov — 25 Yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalashda o‘qituvchi kompetensiyasi

M. Madiyarova — 29 Talabalarda mustaqil ta’lim jarayonida kreativ fikrlash malakalarini shakllantirish

TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI

J. Xusanov, N. Shamsiddinov, B. Quvonov — 33 Geometriya fanidan uslubiy ishlanmalar tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi

R. Safarova — 36 Tibbiyot xodimlarini tayyorlashda fizika fanini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari

M. Xaydarova — 41 Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish yo‘llari

K. Karimova — 44 Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy masalalar yordamida matematik tafakkurni shakllantirish xususiyatlarini o‘rganish

N. Akbarova — 49 O‘rta tibbiy ta’limni kompetentlikka asoslangan yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi

L. Namazbayeva — 52 Bolalarni tabiat bilan tanishtirish usul va texnologiyalari

D. Kenjaboyeva — 57 Xorijiy til o‘qituvchilarida deontologiya va kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari

B. Karimov — 61 Talabalarda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlari

TA’LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

N. Karimova — 64 Professional ta’limda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini baholash mezonlari

F. Abdullayev — 68 Tabiiy fan (science) bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini baholash yondashuvlari

ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

F. Berdibekova — 75 Innovatsion yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga “Tarbiya” darsini tashkil etishni o‘rgatish texnologiyasi

Z. Boymurodova	80	Oilada bolalarni tarbiyalashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni
M. Mahmudov	84	Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari pedagogik mahoratini rivojlantirish
Sh. Abduraxmanov	89	Talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari
Z. Raximov	93	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining samarali imkoniyatlaridan foydalanishning ahamiyati

MILLIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

H. Safoyev	97	Talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mazmuni

ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

F. To‘rabekov	101	“Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha multimediali elektron darslik yaratish metodikasi
S. Ruzmetova	104	Talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalarning o‘rni
A. Tolametov	108	Umumta’lim maktablarda jismoniy tarbiya fanida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari

PSIXOLOGIYA

Z.Yulchiyeva	112	O‘qitishning didaktik vositalari va ularning ijtimoiy-pedagogik, psixologik ahamiyati

INKLYUZIV TA’LIM

O. Musurmanova, G. Solihova	115	Nogiron bolalarni ijtimoyilashtirishning huquqiy-nazariy asoslari
K.Todjibayeva	119	Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etish: muammo va yechimlar
S. Mamatova	123	Innovatsion yondashuv asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish

MAKTABGACHA TA’LIM

N. Abdullayeva	126	Maktabgacha ta’limga klasterli yondashuv tatbiq etish orqali ta’lim sifati samaradorligini oshirish

ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ш. Муслимов	130	Педагогические условия формирования графической компетентности у будущих учителей технологии

МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

М. Атоева	133	Значение физического эксперимента в обучении физике и методика его организации на уроках

ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

И. Шералиев	139	Допризывная подготовка молодежи в процессе школьного физического воспитания

MULOQOT MADANIYATI O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINING ASOSIY OMILI

Mamlakatimizda ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi, ta’lim muassasalarida yaratilayotgan shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyoj va talabning o‘sib borishi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar va mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘nalishlarida o‘ziga xos talablarni belgilaydi.

Ma’lumki, pedagogik faoliyatda o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishda muloqot jarayoni yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘qituvchi muloqot orqali o‘quvchilarga bilim beradi, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi ya’ni uning faoliyatining aksariyat qismini muloqot tashkil kiladi. Odatda, muloqot deganda, kishilarning o‘zaro ma’lumot, fikr, xis-tuyg‘u, kayfiyatlar va hokazolar almashish asosida bir-biri bilan nutqli yoki nutqsiz aloqalar o‘rnatish va rivojlantirish jarayoni tushuniladi. Bunday ta’rifga tayanib ta’lim va tarbiya jarayoniga ham muloqot tushunchasi orqali yondashish mumkin. Bunday holda ta’limni o‘quvchilarda ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘nalgan, tizimli tashkil qilingan o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqot jarayoni sifatida qarash mumkin. Demak, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot jarayonini takomillashtirishni talab kiladi.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqoti yuksak darajada muvaffaqiyatli bo‘lishi uning pedagogik qobiliyatga qanchalik ega ekanligiga bog‘liq. O‘qituvchining faoliyati yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashda namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi faoliyatida o‘quvchilar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biridir.

Asosiy maqsad, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi, o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iborat. O‘qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o‘rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta, bu nihoyatda qiyin jarayon, zero, tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muloqot orqali aloqa o‘rnatishning samaradorligiga bog‘liq. Ushbu jarayon bevosita o‘qituvchining fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog‘liq xususiyatlariga, o‘quvchi ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san’atiga va pedagogik ta’sir ko‘rsatishning turli usullarini bir biri bilan o‘zaro aloqadorliqka qo‘llay bilishiga taalluqli bo‘lib, ular uzluksiz shakllanadi.

Bunday murakkab muammoni yechish pedagoglarda kommunikativ ya’ni muloqot ko‘nikmasi, malakalarni shakllantirish bilan bog‘liqdir. Har bir pedagog muloqotda o‘z mahoratini oshirish uchun o‘quvchilar bilan muloqotni samarali tashkil qilish yo‘llarini, uning ijtimoiy psixologik asoslarini chuqur bilishi lozim. Pedagogik muloqot jarayoni

dastlabki qarashda sodda tuyiladi. O‘qituvchi gapiradi, eshitadi yoki aksincha bu muloqotning faqat tashqi, yuzaki tomoni, aksincha, muloqot jarayoni juda murakkab, ko‘p qirrali jarayondir.

O‘qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog‘liq. Chunki nutq va unda ifodalangan so‘z kishiga ta’sir etuvchi qudratli psixologik kuchga ega. Uni faqat o‘zining mazmuni bilan emas, balki so‘zlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta’sir darajasi va qudratini yanada orttirish mumkin.

Bizning fikrimizcha, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri muloqot madaniyatidir. O‘qituvchi qobiliyati bilim, ko‘nikma va malakalar mahsuli, shu bilan birga faoliyat usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilar bilan ta’lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o‘rnatish, ijobiy muloqot yarata olish, o‘ziga ishontira olish va jalb qilish – o‘qituvchi muloqot madaniyatining asosiy mohiyati bo‘lib, bunda bevosita o‘qituvchi bilan bog‘liq jarayonlar, ma’lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo‘lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada, o‘quvchilar bilan aloqa o‘rnatishning shakl va uslublariga qatiy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Muloqot madaniyatining tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy sifatlari bilan belgilanishini ta’kidlab o‘tish lozim. O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o‘rganishi. O‘quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish, har tomonlama tavsif berish, o‘qituvchining muloqotni to‘g‘ri tashkil etishi asosida amalga oshadi.

2. Shaxsiy muloqotda ro‘y beradigan kamchiliklarni aniqlash va darhol ularga barham berish choralarini izlab topish: muloqotda qo‘pollik, mensimaslik va boshqa salbiy holatlarni yengish.

3. O‘qituvchi o‘zi uchun muloqot madaniyatining qulay bo‘lgan uslublarini ishlab chiqishga doir faoliyatni ishlab chiqishi va o‘z-o‘zini kuzatish bilan yutuq va kamchiliklarni taqqoslash.

4. O‘zining muloqot madaniyati uslublariga muvofiq keluvchi milliy an’ana va ma’naviyatimizga xos jihatlardan unumli foydalanish.

5. Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va malaka oshirish jarayonida). Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o‘quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi va o‘quvchilarning bevosita o‘zaro munosabatini ma’lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo‘naltiruvchi kuchdir.

Risbay DJURAYEV,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor
Muhayo INOYATOVA,
pedagogika fanlari nomzodi

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-AXLOQIY G'OYALARNING RIVOJI

Annotatsiya

Maqolada mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar masalalariga bag'ishlangan. Mualliflar xalqimiz qalbiga yaqin qadriyatlarga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ya'ni o'tmish madaniy-ma'naviy qadriyatlarimizni ro'yobga chiqarish, milliy ongni o'stirish, diniy-ruhiniy poklanishimizga shart-sharoit yaratib berish, nohaq jabrlangan siymolar nomini yuzaga chiqarish, an'anaviy qadriyatlarni tiklash bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, qadriyat, milliy ong, meros, millatlararo totuvlik, immunitet, o'tmish bag'rikenglik.

Статья посвящена вопросам духовно-нравственной работы, проводимой в нашей стране. Авторы высказали свои мысли и соображения по изменению отношения к ценностям, близким сердцу нашего народа, то есть по реализации культурно-духовных ценностей прошлого, развитию национального сознания, созданию условий для религиозно-духовного очищения, увековечиванию памяти несправедливо репрессированных деятелей, восстановлению традиционных ценностей.

Ключевые слова. Духовно-просветительская работа, ценность, национальное сознание, наследие, межнациональное согласие, иммунитет, толерантность прошлого.

The article is devoted to the issues of spiritual and moral work carried out in our country. The authors expressed their thoughts and considerations on changing attitudes towards values close to the heart of our people, that is, on the realization of cultural and spiritual values of the past, the development of national consciousness, the creation of conditions for religious and spiritual purification, perpetuating the memory of unjustly repressed figures, the restoration of traditional values.

Key words. Spiritual and educational work, value, national consciousness, heritage, interethnic harmony, immunity, tolerance of the past.

Mustaqil O'zbekistonda ma'naviy-axloqiy g'oyalarning bugungi takomilida davlat rahbarimizning tutgan o'rni alohida ahamiyatga molikdir. Shavkat Mirziyoyev Oliy majlis sessiyasida qilgan ma'ruzalarida, yodgorlik majmualarining ochilishi marosimlarida, hokimiyat yig'ilishlarida, xalqimizni yangi yil va bayramlar bilan qutlash asnosida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni tadqiq etish, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan benazir ta'limotlarni chuqur egallash, qatag'on yillari qurboni bo'lganlar ruhini shod etishni ta'kidladi. U yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish g'oyalarini o'z ma'ruzalari va asarlarida muntazam bayon etib, ilm-fan ahli hamda pedagog olimlarni bu sohada fidoyi bo'lishga da'vat etdi.

Davlat rahbarimiz ma'naviy barkamollik, yaratuvchilikni ulug' fazilat hisoblaydi,

ana shunday fazilatga ega bo‘lmaslikni jaholat deb biladi: “Biz “jaholat” deganda, odatda diniy jaholat, aqidaparastlikni tushunamiz. Lekin bugungi hayotiy jarayonlar jaholat hamma sohada ham uchrashi, agar unga qarshi o‘z vaqtida kurash olib borilmasa, o‘ta og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatmoqda...”,[1] - deb ta’kidlaydi.

Shavkat Mirziyoyev viloyat, shahar va tuman hokimlari bilan uchrashuvda respublikamiz hayotining barcha sohalarida amalga oshiriladigan vazifalar kadrlar saviyasiga bog‘liqligini aytib, farzandlarimiz, nabiralarimiz oldidagi asosiy burchimiz ularni ertangi murakkab, bozor iqtisodiyoti sharoitiga mutanosib suronli hayotga tayyorlashdan iboratligini aytdi. Prezidentning ta’kidlashicha, farzandlar tinchligi, ularning baxti, kamoloti – jamiyatning eng katta boyligi ekanini nazarda tutib, bu ezgu maqsad har birimizning hayotimiz mazmuniga aylanishi darkor. Shavkat Mirziyoyev yana shuni aytdiki, haqiqatdan ham, o‘z farzandlarimiz va nabiralarimiz bilan faxrlanishni istasak, “... yosh avlodimizda qat’iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish”[2] zarur. Zero, inson ma’naviy barkamolligi ushbu tushunchalar bilan egizakdir.

U Oliy Majlis qo‘shma majlisida so‘zlagan nutqida xalq manfaatlarining birinchi o‘ringa qo‘yish zarurligini ta’kidlab: “Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan – shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham – shu xalq. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi. Xalq rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi. Xalq bizdan rozi bo‘lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo‘ladi”[3] - deydi.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda ma’naviy-ma’rifiy bunyodkorlik yo‘lida ta’lim sohasida katta ishlar amalga oshirildi. Ijtimoiy-ma’naviy sohalar bo‘yicha beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Hamid Olimjon, Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim Yusupov, Is’hoqxon Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta’lim dargohlari tashkil etildi. O‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi tubdan isloh qilinmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan:

– xalqimizning muqaddas e’tiqodi – islom diniga, ilm-fanga mansub ma’naviy-ma’rifiy merosimiz asrab-avaylanmoqda;

– o‘lkamizda yetishgan buyuk ajdodlarimiz – Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Axmad Yassaviy, Mirzo Ulug‘bek, Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Amir Temur kabi din peshvolari, ilm ahllari, shoir va sarkardalarimiz nomi tiklanib, abadiylashtirildi;

– Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun kurashgan, bu yo‘lda o‘z jonlarini fido qilgan, millat erkinligini orzu qilgan, milliy g‘oyani ilgari surganlari uchun qatag‘on qilingan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulxamid Cho‘lpon kabi ma’rifatparvarlar xotirasi abadiylashtirildi.

Milliy mustaqilligimizni mustahkamlash uchun xalqimiz qalbiga yaqin qadriyatlarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ya’ni o‘tmish madaniy-ma’naviy qadriyatlarimizni ro‘yobga chiqarish, milliy ongni o‘stirish, diniy-ruhiniy poklanishimizga shart-sharoit

[1] Shavkat Mirziyoyev. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2018 y. –508 b. – 195-b.

[2] O‘sha kitob, 162-b.

[3] https://kun.uz/52010676

yaratib berish, nohaq jabrlangan siymolar nomini yuzaga chiqarish, an’anaviy qadriyatlarni tiklash oliy maqsad qilib qo‘yildi. Binobarin, mustaqil O‘zbekistonning iqtisodiy va ma’naviy poydevorini mustahkamlash birinchi navbatda, mehnatsevar va badavlat, ma’naviy yetuk va madaniyatli kishilarni shakllantirishga qaratila boshlandi.

Bu jarayonning siyosiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-ma’naviy sohalardagi ahamiyati Prezidentimiz tomonidan har tomonlama asoslab berildi.

Siyosiy sohada:

– xalqning turmush tajribasiga, respublika aholisining milliy-madaniy an’analariga, barcha ijtimoiy guruhlari va qatlamlarining manfaatlariga mos keladigan, xalqimizni rozi qiladigan haqiqiy ijtimoiy adolat va demokratiya tamayillarini qaror toptirish;

– qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati vakolatlarini ajratish asosida milliy davlatchilikni barpo etish, barcha fuqorolarning qonun oldidagi huquqiy davlat barpo etish;

– O‘zbekistonda tug‘ilgan, uning zaminida yashayotgan va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubigidan va e’tiqodidan qat’i nazar, respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo‘lishga munosibdir, degan insonparvarlik va vatanparvarlik qoidasini ro‘yobga chiqarish;

– bir mafkura, bir dunyoqarashning yakkahokimligidan qat’iyan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olish;

– ko‘p partiyaviylikni amalda shakllantirish.

Iqtisodiy sohada:

– milliy boyliklar ko‘payishi, respublika mustaqilligi, xalq farovonligini ta’minlaydigan barqaror iqtisodiyotni barpo etish;

– bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich rivojlantirish, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikka keng yo‘l ochish, tadbirkorlikka imkoniyat yaratish;

– mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirish;

– korxona va tashkilotlar mustaqilligini kengaytirish;

– odamlarning ijtimoiy muhofazalari uchun shart-sharoitlar yaratish;

– tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirish uchun kurashish.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyati yo‘nalishlari bo‘yicha:

– aholi o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;

– mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish;

– oila, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish va sog‘lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, “mahalla –tuman – viloyat –respublika” tamoyili asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

– ijtimoiy-ma’naviy sohalar bo‘yicha beshta muhim tashabbus, “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo‘nalishlari, ta’sirchan, kreativ va innovatsion

uslublarini ishlab chiqish;

– tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g‘oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borish;

– aholining ijtimoiy-ma’naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalarini kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash[4]. Shavkat Mirziyoyev bunday ma’naviy potensial o‘zbek oilalarining yashash tarzi va an’analarida mavjud ekanligi, har bir inson nafaqat o‘z oilasi, balki qarindosh-urug‘lari, yaqin kishilari, qo‘ni-qo‘shnilarining salomatligi, ma’naviy va moddiy boyishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi zarurligini ta’kidlab o‘tganlar.

Asosiy maqsad – inson manfaatlariga xizmat qiladigan mehnatni rag‘batlantirishning kuchli mexanizmiga ega bo‘lgan, aholi ijtimoiy nochor qatlamlarini davlat yo‘li bilan himoya qiladigan bozor iqtisodiyotini qurishdan iborat bo‘lib qoldi.

Xalqimiz asrlar mobaynida o‘z madaniyati, urf-odatini qanchalik ko‘z qorachig‘idek saqlab, turli tarixiy buhronlar va talafotlar davrida ham milliy qadriyatlarimizni yuksaltirish haqida qayg‘urib kelgan bo‘lsa, boshqa xalqlar va mamlakatlarning umuminsoniy qadriyatlariga ham shu qadar katta ehtirom tuyg‘usi bilan munosabatda bo‘lib kelgan. Qadimgi Eron, Hind, Xitoy va Yunon madaniyatining yuksak namunalariga qanchalik qiziqishi kuchli bo‘lsa, arab va yevropa falsafasi, adabiyoti va san’atiga nisbatan ham hurmat va e’tibori shunchalik kuchli bo‘lgan. Natijada, kishilarimiz ongi va shuurida umuminsoniy qadriyatlarga munosabat ijtimoiy va hayotiy zaruriyatga aylangan. Uzoq tarixdayoq dunyoga samimiy muloqotda bo‘lib, yaqindan munosabatda bo‘lish uchun Sharq va G‘arbni bog‘lovchi Buyuk Ipak yo‘lini bunyod etgan, Samarqand va Buxoro, Termiz va Turkistonlarni islom ta’limotining shamchiroqlariga aylantirgan. Islom dinini dunyoning ko‘p mamlakatlarida keng tarqalishi va ildiz otishi xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan intilish hamda ishtiyoqning ifodasidir.

Umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish sovet davrida o‘zgacha tus olib, milliy o‘zlikni yo‘qotish evaziga umuminsoniy qadriyatlarga yaqinlashish va ularni o‘zlashtirish tamoyillari vujudga kelgan edi. Mustaqillik milliy o‘zlikni yo‘qotishga chek qo‘ydi. Endi o‘z madaniyatimiz va qadriyatlarimizni tiklash, rivojlantirish, bunyodkorlik ishlarini umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali qo‘shib olib borish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Zero, millat va mamlakat tarixi va taqdirida juda katta rol o‘ynaydigan omil – bu xalqning ruhini mustahkamlash va tetiklashtirishdir.

Mustaqillik sharofati bilan o‘tmish ajdodlarimiz orzu qilgan milliy istiqlol g‘oyasining shakllanishi va rivojlanishi tadqiq etilib, kitob holida xalqimizga taqdim etildi:

– asrlar davomida xalq orzu qilgan demokratiya tiklandi va hayotga tatbiq etilmoqda;

– o‘zbek xalqi o‘tmish tarixi, buyuk olim-fozillari, davlat arboblari, din peshvolari bilan g‘ururlanish va faxrlanish imkoniyatiga ega bo‘ldi;

– milliy odob-axloq, insonparvarlik, xalqqa va vatanga sadoqat kabi fazilatlar qaror topmoqda;

– o‘tmish tariximiz, madaniyatimiz, ma’naviyatimiz qadrlanib, olamshumul ahamiyat kasb etmoqda;

– o‘tmishda mustaqillik, ozodlik uchun olib borilgan kurashlar davrida shakllanib,

[4] “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zR Prezidenti qarori. 2019-yil, 3-may. -https://qalampir.uz/news/ma’naviy-ma’rifiy-ishlar-samaradorligini-oshirish-bo‘yicha-prezident-qarori-qabul-qilindi-3127

rivojlangan vatanparvarlik va insonparvarlik g‘oyalari xalqimiz ongi va qalbidan mustahkam o‘rin olmoqda;

– xalqning milliy his-tuyg‘usi, siyosiy ongi va siyosiy faoliyati, Vatan bilan g‘ururlanish, uning boy tarixi, bugungi dorilamon kunlari, baxtli kelajagi bilan g‘ururlanish, faxr-iftixor tuyg‘usi yuksalmoqda.

Shavkat Mirziyoyev tarbiya masalasidagi pozitsiyasini ochiqlab, shunday degan edi: “Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”, degan so‘zlarini takror va takror aytishdan charchamayman.

Nega deganda, bu fikr bugungi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega ekanini unutmasligimiz lozim.

Yoshlarimiz kimning avlodlari ekanini chuqur anglashlari kerak. Ayni vaqtda bugungi islohot va o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan bo‘lmayotganini bilishlari zarur”[5].

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi[6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2018 y. –508-b. – 195-b.

2. https://kun.uz/52010676

3. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zR Prezidenti qarori. 2019-yil.

4. O‘zbekiston yoshlar mamlakati. - https://strategy.uz/index.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining birinchi majlisidagi nutqi - https://review.uz/oz/post/vystupleniye-prezidenta-shavkata-mirziyoyeva-na-pervom-zasedanii-senata-oliy-majlisa

[6] O‘zbekiston yoshlar mamlakati. - https://strategy.uz/index.php?news=615

Feruza KARIMOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O‘QUV JARAYONIDA TALABALARDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif tomonidan o‘quv jarayonida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida mutaxassisga nisbatan yangi talablarni qo‘yish, shaxsni rivojlantirish, kasbni egallash, kasbiy faoliyatni amalga oshirish, madaniyatlararo muloqotning boshqa ishtirokchilariga munosabat kabi masalalar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar. Oliy ta’lim, bo‘lajak mutaxassis, kasbiy kompetensiya, o‘quv jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy faoliyat.

В статье рассматриваются такие вопросы, как формирование профессиональной компетентности у студентов в процессе обучения, установление новых требований к специалисту в процессе профессиональной подготовки студентов, личностное развитие, род занятий, профессиональная деятельность, отношение к другим участникам межкультурного общения.

Ключевые слова. Высшее образование, будущий специалист, профессиональные компетенции, учебный процесс, профессиональная подготовка, профессиональная деятельность.

This article addresses issues such as the formation of professional competence in students during the educational process, setting new requirements for the specialist in the process of professional training of students, personal development, occupation, professional activity, attitude to other participants of intercultural communication.

Key words. Higher education, future specialist, professional competence, educational process, vocational training, professional activity.

Zamonaviy ijtimoiy o‘zgarish natijasida hayotda ijtimoiy-iqtisodiy tendensiyalarni doimiy ravishda o‘zgartirganimiz, bugungi kunda tahlil qila oladigan, raqobatbardosh bozor sharoitida qarorlar qabul qilish va amalga oshirish malakasiga ega bo‘lgan mutaxassislarga nisbatan ehtiyoj sezilmoqda. Shu munosabat bilan, oliy ta’lim tizimida, o‘zini ko‘rsata oladigan, kasbiy muammolarni hal qila oladigan va kasbiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan talabaga nisbatan ehtiyoj ortib borayotganligi kasbiy kompetentlik muammosini dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Globallashuv sharoitida kasbiy faoliyat yangi xususiyatlarga ega bo‘lib, bu inson va mutaxassisning aqliy va ma’naviy o‘sishiga, kasbiy kompetensiyasiga tegishlidir. Bu esa, shaxsning umumiy madaniyati va kasbiy madaniyatidan kelib chiqadi. Kasbiy faoliyatda mutaxassisning kasbiy vazifalarni bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va tajribadan iborat hamda ijtimoiy-kasbiy guruh a’zolari tomonidan kasbiy faoliyat bilan vositachilik qiladigan me’yor va qadriyatlarni yaratish, uzatish va o‘zlashtirish jarayoni sifatida belgilanishi mumkin. “Kasbiy madaniyat” tushunchasining bu talqini ushbu tushunchada ideal darajani, ya’ni kasbiy ongni mavjudligining asosiy shaklini,

kasbiy obrazlarning yadroviy makoni va real daraja – kasbiy muloqotni, ya’ni, kasbiy madaniyatda qabul qilingan bu obrazlarni taqqoslash yo‘llarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Biroq, kasbiy madaniyat va professional shaxsning umumiy madaniyati har doim ham bir-biriga mos kelmaydi. Kasbiy madaniyati yuqori bo‘lgan mutaxassis ularning umumiy madaniyati jihatidan juda past darajada bo‘lishi mumkin. Bu jihat jamiyat va ta’lim tizimini insonparvarlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi hamda jamiyatning yangi qadriyatlari mutaxassisga nisbatan yangi talablarni qo‘yadi.

Ko‘pgina pedagog olimlarning fikriga ko‘ra, mutaxassisning kasbiy kompetentligi, shaxsiy va kasbiy sohalardagi muvaffaqiyat bilan bevosita bog‘liqdir. Darhaqiqat, har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyatning asosiy psixologik sharti o‘z kuchiga ishonchdir. Bizning fikrimizcha, oliy ma’lumotli mutaxassisning kasbiy kompetentligi bu –mutaxassisning ichki ruhiy holatlari va shaxs xususiyatlarining murakkab birlashgan tizimidir, uning kasbiy faoliyatini amalga oshirishga tayyorligi va zaruriy harakatlarni bajarish qobiliyati bo‘lib hisoblanadi. Shaxsning kasbiy rivojlanishining asosini kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ya’ni kasbiy tayyorgarlik jarayonida shaxsni rivojlantirish, kasbni egallash va kasbiy faoliyatni amalga oshirish tashkil etadi.

Kasbiy kompetentlik talabaning kasbiy muammolarni va tipik kasbiy vazifalarni hal qilish qobiliyatini belgilovchi ajralmas xususiyat sifatida qaraladi va u bilim, kasbiy va hayotiy vaziyatlar, qadriyat va mayllardan foydalangan holda kasbiy faoliyatning real vaziyatlarida yuzaga keladi, u kasbiy muammolarni hal qilishda ifodalanadi hamda kasbiy rivojlanishning ajralmas ko‘rsatkichi, mutaxassisning o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘zini-o‘zi anglash omili bo‘lib sanaladi.

Mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarini o‘rganishimiz natijasida “kompetensiya” tushunchasining keng talqinini ochib berishga erishdik. Keng ma’noda “kompetentlik” deganda, shaxsning psixik rivojlanishining ma’lum darajasini nazarda tutuvchi va shaxsning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishiga imkon beruvchi inson kamolotining yuqori bosqichi tushuniladi. Kompetentlik kasbiy mahoratning ajralmas ko‘rinishi sifatida qaraladi va muammolarni hal qilish tarzida ifodalanadi, kasbiy rivojlanishning ajralmas ko‘rsatkichi, o‘z-o‘zini rivojlantirish omili bo‘lib, mutaxassisning o‘zini-o‘zi anglashini rag‘batlantiradi, ya’ni, kompetentlik quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi, ya’ni:

kompetentlik faqat muayyan vaziyatda amalga oshirilgan real harakatda, ya’ni, harakatlanuvchining motivlari, maqsadlari, niyatlari ta’sirida bo‘ladi. Tashqi talablar-vaziyatning ijtimoiy konteksti shaxsiy qobiliyatlar bilan birga kompetentlikka kiradi;

kompetentlik kognitiv va kognitiv bo‘lmagan komponentlarni o‘z ichiga oladi (harakatli va aqliy ko‘nikmalar, bilim, motivatsiya va axloqiy yo‘nalishlar, munosabat, ijtimoiy va xulq-atvor komponentlari), ya’ni samarali harakat uchun safarbar qilinishi mumkin bo‘lgan hamma narsa kiradi;

kompetentlik oliy ta’lim muassasalarida an’anaviy va noan’anaviy o‘qitish vaziyatlarida harakat va o‘zaro harakat orqali umr davomida egallanadi va shakllanadi;

kompetentli shaxsga shaxsiy mualliflik bilim darajasiga ega murakkablik xos, unda u ko‘p kutishdan mustaqil bo‘la oladi, o‘z his-tuyg‘ulari va qadriyatlariga asoslangan harakatlarini nazorat qiladi va o‘z hayotining muallifiga aylanadi.

Kelajakda oliy ta’lim bitiruvchisini kasbiy raqobatbardoshligi ostida, biz muvaffaqiyatli va kafolatlangan kasblar bo‘yicha professionallik va muayyan mutaxassisliklar sohasida o‘ziga xos shaxsiy moslashish qobiliyati, madaniy va ijtimoiy normalar,

jamiyatning an’analari, samarali ijodni amalga oshirish va uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun tayyor bo‘lishi, ijodiy faollik, qiyinchiliklarni bartaraf eta olish, kasbiy determinatsiyaga qarshi tura olish va kasbiy faoliyat subyekti sifatida shaxsning o‘zligini saqlab qolishini tushunamiz.

Shu munosabat bilan oliy ta’limni modernizatsiyalash jarayoni talablariga javob beradigan ta’lim tizimini yaratish davr talabidir. Mazkur masalaga chuqur yondashadigan bo‘lsak, tizim ostida biz pedagogik voqeiylikning tarkibiy va funksional elementlarining muayyan munosabatlarini tushunamiz hamda ularning o‘zaro munosabatlari talabalarning o‘quv faoliyati davomida fan orqali kelajakdagi vazifalarini yanada mustaqil, ijodiy va samarali hal qilish, shaxsni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan.

Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining malakasini oshirish jarayonida talabalarning umumiy kasbiy tayyorgarligi bosqichida kompetentlik shakllanadi. Biroq, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish kasbiy kompetentlikning asoslarini shakllantirish jarayoni sifatida qaralsa, uzluksiz ta’lim va hayot davomida o‘zini-o‘zi tarbiyalash – shaxsning kasbiy kompetentligi va kasbiy mahoratini rivojlantirish jarayoni kasbiy rivojlanishning zarur sharti sifatida qaraladi.

Shu o‘rinda “kompetensiya” va “malaka” tushunchalarining nazariy sohasini aniqlashdagi farqni alohida ta’kidlash lozim. Oliy ta’lim bitiruvchisiga malaka tayinlash undan muayyan kasb bo‘yicha tajribaga ega bo‘lishni talab etmaydi, balki Davlat ta’lim standarti talablariga ko‘ra, bilim va ko‘nikmalari davomida orttirilgan umumiy va maxsus (kasbiy) malakalarga javob beradi. Shunday qilib, malaka – bu bo‘lajak bitiruvchiga o‘z ish joyida muayyan ish turini bajarish imkoniyatini beruvchi kasbiy ta’sir va tayyorlik darajasidir. Shuning uchun bo‘lajak bitiruvchi kasbiy faoliyati jarayonida tegishli kasbiy tajribani egallashdan oldin unda kasbiy tajribasi shakllangan bo‘ladi. Bu borada asosiy kompetentlik, muayyan kasbiy faoliyat bo‘yicha tajribasi yuqori darajada shakllangan xodim asosiy mutaxassis hisoblanadi.

Bugungi kunda bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muammosi mutaxassislar faoliyatini tahlil qilishni talab qiladi, bu murakkablik, turli vazifalar va xizmat vazifalarini bajarish bo‘yicha mas’uliyat bilan tavsiflanadi. Har qanday faoliyat, shu jumladan, pedagoglik ham o‘zining mazmuni, shakli va amalga oshirish usullari bilan boy va murakkabdir.

Shaxslararo muloqotning zamonaviy nazariyasida diqqat, kommunikativ kompetentlikni bevosita insonlararo muloqoti sharoitida shakllanadigan va yangilanadigan odamlar o‘rtasidagi muloqotning rivojlanuvchi va ko‘p jihatdan ongli tajribasi (shaxslararo malaka) sifatida ko‘rib chiqishga qaratiladi. Shu bilan birga, insonning kommunikativ kompetentligi nafaqat bir-birini tushunishga harakat qilayotgan kishilarning ma’lum bir ong holatiga tushiriladi, balki xulq-atvor jihatini ham o‘z ichiga oladi. Ushbu qoidaga muvofiq, bo‘lajak mutaxassisning kommunikativ kompetentligi shaxs tomonidan talab qilinadigan boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarning majburiy, shaxsiy va kasbiy tajribasi sifatida tavsiflanishi mumkin, chunki kasbiy muhitda va jamiyatda o‘z qobiliyatlari va ijtimoiy mavqei doirasida muvaffaqiyatli ishlash uchun, muloqot kompetentligi shaxsning o‘ziga xos xususiyatlariga, jamiyatda yuzaga keladigan o‘zgarishlarga va mutaxassisning bu o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy harakatchanligiga bog‘liq.

Oliy ta’lim muassasalarida maxsus fanlarni o‘qitishning maqsadini amalga oshirishni belgilovchi yondashuvlar quyidagilardan iborat: shaxsiy, kommunikativ yo‘naltirilgan va kasbiy-faoliyat. Maxsus fanlarni o‘qitishda kompetentlik yondashuvni kasbiy faoliyatga yo‘naltirishga tayyorlash jarayonida oliy ta’lim muassasalari talabalari

ushbu yondashuvlarni organik birlikda amalga oshirishlari lozim.

Oliy ta’lim sifatini aniqlash uchun mahorat yondashuvining dolzarbligi, shuningdek, bitiruvchi talabalar “kasbiy kompetentligi” tarkibida asosiy kompetensiyalar majmuini ko‘rish zarurligi ta’kidlanadi, kelajakda mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda zamonaviy ichki va xalqaro talablarni hisobga olishni ham nazarda tutadi.

Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning kasbiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni, xorij va mamlakatimiz oliy ta’lim tajribasini tahlil qilish asosida biz tadqiqotning umumiy konsepsiyasini shakllantirdik.

1. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning maqsadga muvofiq jarayonini ta’minlovchi shart-sharoitlarni yaratish uchun pedagogik tizimni loyihalash hal qilinayotgan muammoning o‘ziga xos xususiyatlariga javob beradigan falsafiy, umumiy, ilmiy yondashuvlar va usullar kombinatsiyasiga asoslanishi lozim. Bizning fikrimizcha, ularga quyidagilarni kiritish muhim:

• o‘quv faoliyatini tashkil etish qonuniyatlarini ochib beruvchi shaxsiy-faoliyat yondashuvi va fikrlarni shakllantirish, boshqarish uslublarini vosita va usullar orqali tanlash, nutqiy muloqot sharoitida faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish natijasida subyektiv ko‘nikmalari shakllanadi, boshqacha qilib aytganda, talabaning kasbiy kompetentligi ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish asosida shakllanadi;

• tizimli yondashuv, u ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari uchun yagona, maqbul faoliyat ko‘rsatuvchi va jadal rivojlanayotgan pedagogik tizimga tashkil etilishi mumkin bo‘lgan kontekstda, mazmunni tanlash esa, maxsus fanlarda kommunikativ kompetentligini bir butun va alohida qismlar yig‘indisidan ortiq narsa deb hisoblash mumkin bo‘lgan tarzda amalga oshirilishi lozim; talabaning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi, o‘z-o‘zini rivojlanishini ta’minlaydi, uning subyektiv salohiyatining barcha boyliklarini, munosabatlarini va madaniyatlararo muloqotning boshqa ishtirokchilariga munosabatlarini ochib beradi;

• kommunikativ-kompetentli yondashuv, bo‘lajak mutaxassisning kommunikativ kompetentligi tuzilishini yakuniy (kutilayotgan) natija asosida ta’lim tizimi maqsadlarini shakllantirishning nazariy asosi sifatida aniqlash imkonini beradi, shu jumladan, lingvistik, kommunikativ va pragmatik kompetensiyalar;

• iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlari talabalarining maxsus fanlardan kasbiy kompetentligini shakllantirishning muammoli-loyihaviy yondashuvi, muammoli va loyihaviy yondashuvga asoslangan va unda ta’lim jarayonini tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi yetakchi, ustuvor ta’lim strategiyasini amalga oshirish tushuniladi, unda talabalar mustaqil maqsadli, unumli izlanadilar, bilimlarni qayta ishlash va dolzarblashtirishni, kasbiy yo‘naltirilgan muammo, turli darajadagi murakkablikdagi loyiha ishlarini bajaradilar;

• madaniyatshunoslik yondashuvi, madaniyatlar muloqoti sifatida oliy ta’lim tizimidagi mutaxassislarning xorijiy tilni o‘zlashtirishi orqali kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonini qurilishini ta’minlaydi, unda talaba dastlab faol pozitsiyani egallab, o‘zini tillararo, madaniyatlararo, o‘zaro muloqot subyekti sifatida namoyon etadi.

2. Maxsus fanlarni o‘rganishi orqali kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik tizimi uzluksizlik, to‘ldiruvchanlik, evristik va reproduktiv usullarning uyg‘unligi, fanlararo integratsiya, ijtimoiy-madaniy va kasb-hunarga yo‘naltirish hamda guruhiy o‘zaro ta’sirning o‘zgaruvchanligi tamoyillariga asoslanishi;

3. Talabalarning kasbiy muloqot kompetentligini shakllantirish rasmiy va noan’a-

naviy ta’lim shaklida (talabalar amalga oshirilayotgan fan dasturlarida ishtirok etish, ilmiy anjumanlarda taqdimotlar, tanlovlarda ishtirok etish, viktorinalar, olimpiadalar) va noformal (til olimpiadalarda ishtirok etish uchun tayyorgarlik, tadbirlardagi faollik, talabalar kundaligi va boshqalar) tarzda amalga oshiriladi;

4. Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida ularning rol pozitsiyalari o‘zgaradi: ta’lim oluvchi, ta’lim beruvchi, mustaqil ta’lim oluvchi, tarqatuvchi.

5. Mamlakatimizning qadriyatlari, oliy ta’limda xulq-atvor normalari, madaniyati tizimini qabul qilishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy muhitni yaratish bu jarayon samaradorligining zaruriy shartidir.

6. Oliy ta’lim jarayonida talabalarning kasbiy kompetentligining shakllanish jarayoni o‘quv va mustaqil ta’lim faoliyatining birligi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin, bunda talaba faol pozitsiyani egallab, o‘zini madaniyatlararo, shaxslararo va kommunikativ faoliyat subyekti sifatida anglaydi, bu esa uzluksiz xarakterda bo‘lishi talab etiladi.

7. Ta’lim bosqichlarining quyidagi ketma-ketligiga amal qilinsa, fanlarni o‘rganishda talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni yanada samarali bo‘ladi: taassurotlardan bilimga, bilimdan ko‘nikma va malakalarga, so‘ngra kompetentlikka qarab o‘zgaradi.

8. Bo‘lajak mutaxassislarning maxsus fanlarni o‘rganishi orqali kasbiy kompetentligini shakllantirish loyihalash texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Umuman olganda, talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik tizimi uzluksizlik, to‘ldiruvchanlik, evristik va reproduktiv metodlar uyg‘unligi, fanlararo integratsiya, ijtimoiy-madaniy va kasbiy yo‘nalganlik va guruhiy o‘zaro ta’sirning o‘zgaruvchanligi tamoyillariga asoslanishi davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduquddusov O. Kasb ta’limi o‘qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005, – 156-b.

2. Зиновника М.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества. 2013. С. 212.

3. Qo‘ysinov O.A., Muslimov N.A., Abduraimov Sh.S. Mehnat va kasb ta’limi metodikasi fanlaridan kurs ishlari bajarish bo‘yicha metodik qo‘llanma. –T.: TDPU, 2009. – 40-b.

4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. – T.: –Turon-Iqbol, 2006. –592-b.

5. Muslimov N.A., Abdullayeva Q.M., Mirsoliyeva M., “Pedagogik mahorat” fanidan o‘quv-metodik majmua. //O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: Fan texnologiyalar, 2011. 322-b.

Hasan BEGIMQULOV,
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta’limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

PEDAGOGNING AXBOROT MUHITIDA RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA AXBOROT KOMPETENTLIGI MAZMUNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XXI asr ta’limida pedagogda ta’limni axborotlashtirish muhitida qo‘yiladigan zamonaviy kompetensiya talablari keltirilgan bo‘lib, maqolada pedagogning axborot kompetentligi mazmuni, tuzilmasi yoritib berilgan. Shuningdek, pedagogning axborot kompetentligini shakllantirish borasida xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Sifat, funksiya, malaka, kasbiy malaka, axborot kompetentligi, kompetensiya.

В статье представлены современные требования к компетентности учителя в образовании XXI века в информационной среде образования, содержание и структура информационной компетентности учителя. Также представлены выводы и рекомендации по формированию педагогической информационной компетентности.

Ключевые слова. Качество, функция, квалификация, профессиональная квалификация, информационная компетентность, компетентность.

This article presents the modern competence requirements for teachers in the information environment of education in 21st century education, the content and structure of the teacher's information competence. It also provides conclusions and recommendations for the formation of pedagogical information competence

Key words. Quality, function, qualification, professional qualification, information competence, competence.

XXI asrda pedagogning axborot kompetentligi darajasini yuqori bo‘lishi muhim sanaladi. Hozirda jahon miqyosida ta’limning barcha jarayonlarni axborotlashtirish, raqamlashtirish shiddat bilan rivojlanmoqda. Ko‘pgina pedagoglar kompyuterdan matnlarni tayyorlash uchun, uyali telefondan esa qisqa xabarlarni yuborish uchun foydalanadilar. Pedagoglar turli shakldagi mashg‘ulotlarni tashkil etishda proyektordan foydalanadilar, o‘quvchilarga internetda ma’lumot izlash bilan bog‘liq topshiriqlar beradilar, ota-onalarga elektron pochta orqali ma’lumot yuboradilar va h. k.

Ta’lim muassasalarida elektron jurnallar va kundaliklarga ruxsat etiladi yoki direktiv tarzda kiritiladi, bu esa o‘quv jarayonining axborot muhitiga (AM) qisman kirib borishini ta’minlaydi. To‘liq axborot muhitga kirib borish (ta’lim jarayonining asosiy ma’lumotlarini AMga joylashtirishni nazarda tutgan holda) qo‘shimcha pedagogik imkoniyatlarni taqdim etadi, klaviaturadan matnni ustomonlik bilan kiritish va internetdan ma’lumot qidirish uchun so‘rovni shakllantirish qobiliyati bilan birga bunday imkoniyatlarga ega bo‘lish – pedagogning axborot kompetensiyasini asosiy elementi hisoblanadi.

Ta’limni axborotlashtirish – bu qulay va sog‘liqni asraydigan sharoitlarda qo‘llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga

yo‘naltirilgan ilmiy-pedagogik, o‘quv-metodik ishlanmalarni yaratish hamda ulardan optimal ravishda foydalanishning metodologiyasi, texnologiyasi va amaliyoti bilan ta’lim sohasini ta’minlashning maqsadga qaratilgan tashkiliy jarayonidir.

Ta’limni axborotlashishi o‘z navbatida, pedagoglar tayyorlash tizimi oldiga yangi-yangi talablarni qo‘yadi, va albatta, pedagogdan axborot kompetentligiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Axborot kompetentligi rivojlangan mamlakatlarda professional sohada keng tarqalgan AKT(axborot kommunikatsiya texnologiyalari) vositalaridan professional muammolarni hal qilishda mohirona foydalanish bilan belgilanadi.

Axborotlarni o‘zlashtirish va ulardan ta’lim jarayonida yetarlicha hamda samarali foydalanish uchun qulay vositalardan foydalanishga zarurat tug‘ilmoqda. Bugungi texnologiyada yuz berayotgan inqilobiy o‘zgarishlar aynan axborotlardan ta’lim jarayonida yetarlicha foydalanishni ta’minlashda kompyuter va texnik vositalar, umuman olganda, ta’limni axborotlashtirish sharoitlarida tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan o‘quv muassasalarida ta’lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini kiritish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida elektron ta’lim sifatini oshirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadr potensialini rivojlantirish, mutaxassislarni tayyorlash soha rivojining asosiy ustunidir. Biroq, mavjud bo‘lgan infrastrukturani ishlata oladigan, texnik ko‘nikmalarga ega pedagoglar kamligi sezilib turadi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib, biz pedagogning axborot kompetentligini tashkil etuvchi komponentlarni tarkibi va mazmunini tizimlashtiridik.

Pedagogning axborot – kompetentligi tarkibiga quyidagilar kiradi:

Umumfoydalanishdagi axborot kompetentligi;

Umumpedagogik axborot kompetentligi;

Predmet-pedagogik axborot kompetentlik (inson faoliyatining tegishli sohasidagi AKTning professional kompetentligini aks ettiradi).

Komponentlarning har biri AKT resurslarini qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lgan AKT malakasini o‘z ichiga oladi.

YUNESKO tavsiyalari asosida “Pedagoglarning AKT kompetentligi tuzilmasi” (2011-yil) pedagogning kasbiy standartning barcha tarkibiy qismlarida mavjud deb qaraladi. Ta’lim jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi va mutaxassislar tomonidan, odatda, pedagog faoliyatini kuzatish va uning axborot muhitida fiksatsiyasini tahlil qilish jarayonida baholanadi.

Pedagog AKT – kompetentligining komponentlari quyidagilarga bo‘linadi:

Umumta’limiy komponent.

1. AKT vositalari bilan ishlashni boshlash, to‘xtatib turish, davom ettirish va tugatish, muammolarni bartaraf etish, sarflanadigan materiallarni ta’minlash, ergonomika, xavfsizlik texnikasi va asosiy ta’lim muassasasida AKTni rivojlantirish natijalariga kiritilgan boshqa masalalar bo‘yicha texnikadan foydalanish va qoidalarga rioya qilish.

2. AKTdan foydalanishning axloqiy va huquqiy normalariga rioya qilish (shu jumladan, ruxsatsiz foydalanish va axborotni qo‘llashga yo‘l qo‘yilmasligi).

3. Atrof-muhit va ta’lim jarayonida jarayonlarni video-audio qayd etish.

4. Audio-vizual matnli aloqa (ikki tomonlama aloqa, konferensiya, tezkor va kechiktirilgan xabarlar, matnni avtomatlashtirilgan tuzatish va tillararo tarjima).

5. Internet va ma’lumotlar bazalarida qidirish ko‘nikmalari.

6. Kundalik va professional kontekstda mavjud bo‘lgan ko‘nikmalardan muntazam foydalanish.

Umumiy pedagogik komponent.

1. Axborot muhitida (AM) pedagogik faoliyat va uning quyidagi vazifalariga muvofiq AMda doimiy aks etilishi:

2. Ta’lim jarayonini rejalashtirish va obyektiv tahlil qilish.

3. Atrof-muhitga ta’lim jarayonining shaffofligi va tushunarliligi (va tegishli kirish cheklovlari).

4. Ta’lim jarayonini tashkil etish:

- o‘quvchilarga topshiriqlar berish,
- keyingi mashg‘ulotdan oldin topshiriqlarni tekshirish, oraliq va yakuniy natijalarni ko‘rib chiqish va aniqlash, shu jumladan, belgilangan mezonlarga muvofiqligini ko‘rib chiqish;
- o‘quvchilar va o‘zining portfoliosini yaratish va izohlash;
- topshiriqni bajarishda talabalarga masofadan turib maslahat berish, o‘quvchining tyutor bilan o‘zaro aloqasini qo‘llab-quvvatlash.

O‘quv jarayonini tashkil etish, unda o‘quvchilar tizimli, ta’lim maqsadlariga muvofiq quyidagilarni bajaradilar:

- faoliyat olib boradilar va ochiq, nazorat qilinadigan axborot maydonida natijalarga erishadilar;
- havola va murojaatlar normalariga amal qiladilar (agar pedagog plagiatga qarshi tizimlardan foydalana olsa);
- ularga taqdim etilgan axborot vositalaridan foydalanadilar.

5. Telekommunikatsiya muhitida, shu jumladan, kompyuter yordami bilan taqdimotlar, munozaralar va konsultatsiyalar tayyorlash va o‘tkazish.

6. Telekommunikatsiya muhitida guruh (shu jumladan, maktablararo) faoliyatni tashkil etish va o‘tkazish.

7. Faoliyatni loyihalashtirish (shu jumladan, jamoaviy), rollarni va hodisalarni tasavvur qilish vositalaridan foydalanish.

8. Vizual kommunikatsiya jarayonida ko‘rgazmali obyektlardan foydalanish, shu jumladan, konseptual, tashkiliy va boshqa diagrammalar, videoroliklarni tahrirlash.

9. O‘quvchining hozirgi holati, shaxsiyat xususiyatlari, oldingi tarixi, turli o‘quvchilar haqida ilgari to‘plangan statistik ma’lumotlarga asoslanib, o‘quvchining individual taraqqiyotini taxmin qilish, loyihalashtirish va nisbiy baholash.

10. Raqamli ta’lim resurslari (manbalari, vositalari) sifatini ulardan foydalanishning belgilangan o‘quv vazifalariga nisbatan baholash.

11. Ijtimoiy axborot makonini, xususan, yoshlar axborot makonini hisobga olish.

12. O‘quvchilar ishida umumiy foydalanish komponentini shakllantirish va ulardan foydalanishni qo‘llab-quvvatlash.

13. O‘quvchilarning salomatlik holati monitoringini tashkil etish.

Predmet-pedagogik komponent

– O‘z fanidan virtual laboratoriyalarida (tabiiy-matematika fanlari, iqtisodiyot, ekologiya, sotsiologiya) tajribalar tashkil etish va o‘tkazish.

– Video tasvirlarni belgilaydigan raqamli o‘lchash moslamalaridan (datchiklardan) avtomatik o‘qish yordamida raqamli ma’lumotlarning bir qatorini olish, keyingi o‘lchovlar va tajribaviy ma’lumotlarni to‘plash (tabiiy va matematik fanlar, geografiya).

– Kompyuter statistikasi va vizualizatsiya vositalari (tabiiy va matematik fanlar, iqtisodiyot, ekologiya, sotsiologiya) yordamida raqamli ma’lumotlarni qayta ishlash.

– Geolokatsiya. Geoaxborot tizimlariga axborot kiritish. Xaritalar va kosmik tasvir-

lardagi obyektlarni tanib olish, xaritalar va rasmlarni (geografiya, ekologiya, iqtisodiyot, biologiya) birlashtirish.

– Raqamli aniqlagichlardan foydalanish, ularning to‘ldirilishi (biologiya).

– O‘z fanining yuqori sifatli ma’lumot manbalarini, shu jumladan, badiiy matnlar va filmlarga moslashtirishlarni, tarixiy hujjatlarni, bundan tashqari, tarixiy xaritalarni (barcha mavzular) bilish.

– Axborotni shajara daraxtlari va vaqt chiziqlarida (tarix, ijtimoiy fanlar) taqdim etish.

– Musiqiy kompozitsiya va ijroning (musiqa) raqamli texnologiyalaridan foydalanish.

– Vizual ijodning raqamli texnologiyalardan, shu jumladan, animatsiya, multiplikatsiya, uch o‘lchamli grafika va prototip (san’at, texnologiya, adabiyot) dan foydalanish.

– Raqamli boshqaruvga ega virtual va real qurilmalarni loyihalash (texnologiya, informatika).

– O‘quvchilar ishida fanning predmet-pedagogik tarkibiy qismining barcha elementlarini amalga oshirishda pedagogning qo‘llab-quvvatlashi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va fikrlarga tayanib pedagoglarni axborot kompetentligini shakllantirish yo‘llari va usullari borasida quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

Pedagog tomonidan AKT kompetentligiga erishishning optimal modeli quyidagi omillarning kombinatsiyasi bilan ta’minlanadi, ya’ni Davlat ta’lim standartlari mazmuniga AKT kompetentligini egallash talabini kiritish (har qanday ta’lim darajasida);

– yetarlicha texnologik bazaning mavjudligi (DTS talabi): keng polosali Internet kanali, mobil kompyuterga doimiy kirish, ta’lim muassasasida axborot muhiti vositalari o‘rnatilgan bo‘lishi;

– ta’lim muassasasining AM dagi faoliyatini ekspert baholash orqali, attestatsiyadan o‘tgan holda malaka oshirish tizimida pedagogning asosiy AKT kompetentligini dastlabki o‘zlashtirishi;

– malaka oshirish kurslarida axborot kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan modullar blokini kiritish.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta’limni axborotlashtirish sharoitida axborot kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etishning zamonaviy bosqichida nafaqat an’anaviy ta’lim texnologiyalari, balki elektron ta’lim ham qanoatlantira olmaydigan ehtiyojlar yuzaga kelmoqda. Ana shunday ehtiyojlarni qondirishda ta’lim tizimiga axborot kompetentligi yuqori darajada rivojlangan kadrlarni tayyorlash davr talabiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Роберт. И. В. Современные информационные техналоги в образовании: дидактические проблемы; перспективы исполъзования/ И. В. Роберт. – М.: ИИОРАО.2010. – С 140.

2. Information and communication technologies in education: UNESCO Institute for information technologies in education, 2013.

Muhayyo UMARALIYEVA,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada innovatsion faoliyatni takomillashtirish asosida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish mazmuni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif pedagogik tadqiqotlar jarayonida innovatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsion faoliyat, takomillashtirish, kasbiy kompetentlilik, identifikatsion-belgilar, innovatsion ta’lim.

В статье рассматривается содержание развития профессиональной компетентности учителей в процессе совершенствования инновационной деятельности. Автор также упоминает особенности инноваций в педагогических исследованиях.

Ключевые слова. Инновационная деятельность, совершенствование, профессиональная компетентность, опознавательные знаки, инновационное образование.

The article discusses the content of developing the professional competence of teachers in the process of improving innovation. The author also mentions the characteristics of innovation in pedagogical research.

Key words. Innovative activity, improvement, professional competence, Identification marks, innovative education.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimining barcha turlarini davlat va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion islohotlar amalga oshirilmoqda. Chunki shiddat bilan rivojlanib borayotgan barcha sohalardagi kabi ta’lim tizimiga ham yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayanish tendensiyalari yetakchilik qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning: “Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak. Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi e’tiborimiz markazida bo‘ladi”, deb e’tirof etgan fikrlarida bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida olib borish o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etishi o‘z ifodasini topgan.

Pedagogik tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda qo‘llanilayotgan “innovatsiya” tushunchasiga berilgan bir qancha ta’riflarning tahliliga ko‘ra, innovatsiya tushunchasi pedagogik jarayonlardagi mazmun o‘zgarishlarni, ya’ni yangilik kiritish asosida ma’lum bir

jarayonni rivojlantirish yoki samarali tashkil etish kabi ma'nolarda qo'llaniladi. Shuningdek, innovatsion faoliyatda sohaga yangilik kiritish asosida ma'lum bir jarayonni samarali muvofiqlashtirish tushuniladi.

Demak, "innovatsiya" tushunchasi yangilik, yangi narsa, o'zgarish ma'nosini anglatadi; innovatsiya vosita va jarayon sifatida qandaydir yangi narsani kiritishni taxmin qiladi. Pedagogik jarayonga muvofiq innovatsiya o'qitish va tarbiyalashning maqsadlari, mohiyati, usullari va shakllarida yangilik kiritishni, o'qituvchi va o'quvchining birgalikda faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi.

Fikrimizcha, pedagogik innovatsiyalarning ilmiyligi, yangiligi va amaliyotga tatbiq etilishi uning amaliy ahamiyatiga molik zaruriy xususiyatlaridan hisoblanadi. Shunday ekan, innovatsiya natijalari samaradorligi innovatsion jarayon yoki innovatsion faoliyatning ilmiy asoslarda tashkil etilishi bilan bevosita bog'liq.

Pedagogik tadqiqotlar jarayonida innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– ularning ishonchliligi va ilmiy asoslanganligi;

– qo'llanilish sohasi va ko'lami;

– tatbiq etilishi va samaradorligi;

– natijaviyligi va unumdorligi;

– tatbiq etish metodlari va texnologiyalarini tavsiflash imkoniyati;

– vaziyatlarga ko'ra jamoada yoki tatbiq etish jarayoni ishtirokchilari o'rtasida ixtiloflarni keltirib chiqarishi.

O'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yilgan talablar, mavjud ehtiyojlar, o'qituvchi kasbi, uning kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlari va kasbiy kompetentlilik komponentlarining o'ziga xos jihatlariga asoslanib aytish mumkinki, o'qituvchilar kasbiy kompetentliligi asosan innovatsion jarayonlarda shakllanib, rivojlanib boradi. Yuqorida biz innovatsiyalarning tatbiq etish ko'lamini uning o'ziga xos xucuciyatlaridan biri cifatida keltirdik, demak, innovatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari sifatida, uning ko'lami (global va lokal) tatbiq etish davri, ya'ni innovatsion jarayonning o'lchamlari (bosqichlarga ajratish va tahlil qilish), amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari, qo'llanilish sohasi innovatsion jarayon samaradorligiga muhim ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi.

Pedagogik innovatsiya – yangi samarali ta'lim olishni ta'minlovchi ta'limning innovatsion faoliyati natijasi.

Pedagogik innovatsiya va innovatsion ta'lim sezilarli farqlanadi.

Pedagogik innovatsiya va innovatsion ta'limni taqqoslovchi tavsif.

1-jadval

Identifikatsion belgilari	**Pedagogik innovatsiya**	**Innovatsion ta'lim**
Maqsadli mo'ljallar	Yangi ta'lim mahsulotini yaratish: ta'lim tizimi, mazmuni, ta'lim texnologiyasi va vositasi	Ta'lim amaliyotida innovatsiyani o'zlashtirish va ishlatish
Innovatsiya subyektlari	Ilmiy xodimlar, pedagoglar-innovatorlar	Ta'lim muassassalarining pedagogik jamoalari
Innovatsion faoliyat predmeti	Ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida mavjud ta'lim amaliyotida maqsadli o'zgarishlar	Ta'lim jarayoniga innovatsion loyihalarning mazmunini va mexanizmini joriyetish

Faoliyat mazmuni	Tajriba-qidiruv loyihalash faoliyati	Pedagogik ta’lim faoliyati
Innovatsionlilik darajasi mezoni	Yangilik, qaytadan tiklash, foydaliligi, joriy etish imkoniyati, fanlararo aloqadorligi	Amalga oshirish maqbulliligi, samaradorligi, salbiy samaraning mavjud emasligi
Amalga oshirish darajasi	regional darajada	Ta’lim muassasasining lokal darajasida

Fikrimizcha, muhokama qilinayotgan muammoga muvofiq innovatsion ta’lim – bu kompetentlilik yondashuvni amalga oshirishga mo‘ljallangan ta’lim.

2-jadval

Innovatsion ta’lim komponentlari	**Ta’lim sohasida kompetentli yondashuvning tavsiflari**
1	2
O‘qitishning ahamiyati	Ijtimoiy-kasbiy imkoniyatning o‘z-o‘zini faollashtirish va kasbiy hayotda o‘z-o‘zini amalga oshirishni taqlid qiluvchi ta’lim
Motivatsiya	Shaxsiy va kasbiy rivojlanish sabablari
Maqsadli mo‘ljallash	Innovatsion faoliyat texnologiyalarini egallash, maxsus kompetentlilik / kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish
Yetakchi faoliyat	Innovatsion faoliyat
Ta’lim mohiyati	DTC, o‘quv rejalari, dasturlar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik qo‘llanmalar, didaktik materiallar, o‘qish natijalarini baholash vositalari
O‘qitish texnologiyasi (shakllar, o‘qitish usullari va vositalari	Bilimlarni tizimlashtirish texnologiyalari va taqdimotlar, informatsion va kommunikatsion texnologiyalar, kontekstli va o‘qitishning shaxsni rivojlantirish texnologiyalari, loyihaviy o‘qitish
Nazorat va baholash	Baholashga mezonli-mo‘ljalli yondashuv va obyektiv o‘lchash muolajalari tizimlarini ishlatish asosida ta’lim natijalarining sifatining nazorati va baholanishi

Tahlilar natijasida shuni ta’kidlash joizki, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishga mo‘ljallangan innovatsion ta’limda ta’lim olayotganlarni maqsadli yo‘nalishga jalb etish uchun adekvativ ruhiy-pedagogik sharoit zarur. Ularga quyidagilar tegishli:

- amaliy topshiriqlar bilan asosiy ta’lim dasturlari mazmunini boyitish;
- kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalarini ta’lim jarayonida ishlatish;
- kompetensiyaviy yondashuv asosida mustaqil ishlarni tashkil etish;
- o‘qish (o‘qitish) natijalarini muntazam kuzatib borish.

Ta’limning innovatsion rivojlanishida muhim o‘rin ta’lim texnologiyalariga ajratiladi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari – bu faoliyatning yakka uslubini rivojlantirish jarayonida o‘quvchilar va pedagoglarning o‘zaro harakatida o‘qitishning shakl va usullarining integratsion birligini hosil qiluvchi pedagogik vaziyatlarda tashxis qo‘yilayotgan va bashoratlanayotgan yutuqlarni ta’minlovchi shaxsning rivojlanishiga yo‘naltirilgan harakatlar, operatsiyalar va muolajalarning tartibga solingan yig‘indisidir.

Fikrimizcha, mazkur ta'rifda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'limdagi innovatsion texnologiyalarning muhim jihatlariga e'tibor qaratish kerak:

- shaxsning rivojlanishiga maqsadli ko'rsatma;
- o'qitish shakllarining, usullarining va vositalarining integratsion birligi;
- o'quvchilar va pedagoglarning o'zaro fasilitatsion harakati;
- pedagogik faoliyatning yakka uslubi.

Demak, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishda quyidagi shakllar va usullarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

3-jadval

Ta'lim texnologiyalari	Ta'lim texnologiyalarining shakllari va usullari
"Kaskad" texnologiyalari	Ma'ruza, mavzu bo'yicha adabiyotlar ro'yxatini tuzish, jadval-sxemalarni to'ldirish, referatlar tayyorlash, sxemalar, chizmalar, texnologik xaritalar bilan ishlash, mavzu bo'yicha adabiyotlarni tizimlashtirish, javoblarini tuzgan holda dasturlangan so'rovnoma o'tkazish
Informatsion va kommunikatsion texnologiyalar	Dasturlangan o'qitish, telekonferensiyani, multimediali texnologiyalar
Rivojlanayotgan o'qitish texnologiyalari	Muammoli ma'ruza, ma'ruza-diskussiya (munozara), aniq vaziyatlar tahlili, tashkiliy-fikrlaydigan o'yinlar, o'quv-kasbiy matnlarning tanqidiy tahlili, loyihalar usuli, kreativlikni rivojlantirish treninglari, refleksiv texnologiyalar
Kontekstli o'qitish texnologiyalari	Ma'ruza-suhbat, me'yoriy hujjatlarni to'ldirish, loyihalash metodlari, interaktiv ta'lim, tajriba-sinov
O'qitish natijalarini nazoratlash texnologiyalari	Seminar-treninglar asosida suhbat o'tkazish, test, nazorat ishi, ijodiy ishlar, referat

Zamonaviy mutaxassis yangi texnologiyalarga moslashishni, turli axborot-kommunikatsion tizimlar va ularning subyektlari bilan uddaburonlik bilan o'zaro ishlashni bilishi kerak. Zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli va talabchan bo'lishi uchun inson umummadaniy va kasbiy kompetensiyaga, shuningdek, innovatsion yo'naltirganlikka ega bo'lishi kerak.

Innovatsion ta'lim jarayonida kompetentli mutaxassis tomonidan mobillikka erishish mehnat bozorida raqobatbardoshlikka, o'zining kasbini erkin egallashiga va faoliyatning aralash sohalarida mo'ljal olishiga, doimiy kasbiy o'sishiga tayyorligini shakllantirishga ko'maklashadi.

Demak, innovatsiya tushunchasi asosan, yangilik kiritish sifatida qo'llaniladi, innovatsion jarayon tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o'zlashtirish hamda amaliyotga tatbiq etish hamda innovatsiyalarning samaradorligi va natijaviyligini o'rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash kabi jarayonlarni qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, biz o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish yo'nalishlarida tashkil etiladigan innovatsion jarayonlarni murakkab, ko'p darajali pedagogik tizim sifatida izohlashda quyidagi bir qator xususiyatlarni

innovatsiyalarga xos xususiyatlar deb hisoblaymiz: dialektiklik, davriylik, asoslanganlik darajasi, ixtiloflilik, ahamiyatlilik, tavakkalchilik, rahbarlik uslublarini tavsiflash qobiliyati, vaziyatga aloqadorlik, tarkibiy tuzilishga egaligi (strukturaviylik), innovatsion harakatlar strategiyasini shakllantirish imkoniyati, boshqaruvchanlik, ijtimoiy mo‘ljallanganlik, insonlarning qiziqishi bo‘yicha tabaqalashtirish qobiliyati, innovatsiyalarni subyekt tomonidan qabul qilinishi.

Innovatsion yondashuv o‘qituvchidan boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llashni emas, balki ularni doimiy takomillashtirishni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgaradi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash o‘z navbatida ta’lim jarayoniga qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Innovatsiyaning ahamiyatliligi – bunda innovatsion jarayonda o‘qituvchilarda o‘quvchilarning qiziqishi va ularning yangiliklarga bo‘lgan munosabatlarini obyektiv baholash imkoniyati tug‘iladi, pedagogik jarayonda o‘zaro munosabatlarni o‘zgarishi, keskinlashuv yoki muvofiqlashuv vujudga keladi va o‘z navbatida, mazkur jarayonga mos keluvchi innovatsion ta’lim loyihalarini ishlab chiqish imkoniyati tug‘iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umaraliyeva M.A. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari// SamDU ilmiy axborotnomasi. – 2015.№4(92).–128-132b. (13.00.00. №7).

2. Umaraliyeva M.A. Organizational-Pedagogical Conditions of Forming Professional Competence of Teachers //Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics.2015. p.187.

3. Umaraliyeva M.A. Innovatsion yondashuvlar asosida o‘qituvchilar kasbiy kometentliligini rivojlantirishning korporativ asoslari.// “Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy ommabop jurnali. –T., 2017, jurnali, №2.

Ulfat MAHKAMOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
professori, pedagogika fanlari doktori
Dilshod MAHKAMOV,
Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI TARBIYALASHDA O‘QITUVCHI KOMPETENSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalashda o‘qituvchi kompetensiyasi xususiyatlari hamda bugungi kunda ular kasbiga qo‘yiladigan talablar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim, tarbiya, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, anotomoiya, fiziologiya, ma’naviyat, gigiyena, etika, estetika.

В статье описаны характеристики компетентности учителя в обучении молодежи в Узбекистане и требования, предъявляемые к учителям сегодня.

Ключевые слова. Учитель, студент, образование, воспитание, педагогика, психология, социология, анатомия, физиология, духовность, гигиена, этика, эстетика.

The article describes the characteristics of the teacher's competence in teaching young people in Uzbekistan and the requirements for teachers today.

Key words. Teacher, student, education, upbringing, pedagogy, psychology, sociology, anatomy, physiology, spirituality, hygiene, ethics, aesthetics.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqida: “Biz uzluksiz ta’limni takomillashtirish, farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz”[1] deb ta’kidladilar.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Shu munosabat bilan ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Bu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoban quyidagi fikrlarni keltirish o‘rinlidir: “Yoshlar xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi. Keng ko‘lamli islohotlarimizni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning Mustaqillikning 30 yilligiga bag‘ishlangan bayram tabrigi “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 1.09.2021-yil.

yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o‘rin tutadi”[2]. Ma’lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g‘oyalarni dadil o‘rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishda ularning bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san’at va sport sohasidagi iste’dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishda o‘qituvchining mahorati muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan o‘qituvchi “Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya asosida maktab ta’limi tizimida ham katta o‘zgarishlarni amalga oshirishda “Besh muhim tashabbus” dasturi, “Barkamol avlod” markazlari doirasida yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, tadbirkorlik sohasidagi g‘oya va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishi katta ahamiyatga ega. Darhaqiqat, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ta’lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirish o‘qituvchilarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki ta’lim islohotlari tobora kengayib borayotgan jarayonlar ular oldiga yanada ulkan vazifalarni qo‘ymoqda. Yangi O‘zbekistonning rivojlanishi o‘qituvchining doimiy izlanishi asosida yutuqlar bilan birga kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishni talab etmoqda. Bu o‘rinda uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va boshqarish Yangi O‘zbekiston rivojlanishining mustahkam poydevori sanaladi.

O‘qituvchi o‘g‘il-qizlarni o‘qitish, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasb-hunarlarni egallash, tarbiya olish asosida jamiyatda o‘z o‘rnini topishda, orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarishda shart-sharoitlar yaratish mahoratiga ega bo‘lishi ularda shijoat, dadil fikr va takliflarni vujudga keltiradi.

Yoshlar tarbiyasida doimo izlanish va intilishda bo‘lgan, yuksak marralarni ko‘zlab, oldinga qarab intiladigan o‘qituvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga albatta erishadi. Bunday o‘qituvchilar o‘quvchilarning ongu tafakkurini yuksaltirishga olib keladi. Buning natijasida, o‘quvchilarda mehr, vafo va sadoqat, vatanparvarlik tuyg‘ulari rivojlanadi.

Har bir mutaxassisning hayotda nimaga, qanday yutuq va natijalarga erishganligi bevosita o‘qituvchi kompetensiyasiga bog‘liq. Shuning uchun ham o‘qituvchi ustozlar sifatida o‘quvchilarga mehr va e’tibor ko‘rsatishi muhimdir. Chunki, jamiyatning taraqqiyot va madaniyat darajasi o‘qituvchilarga bog‘liq.

Darhaqiqat, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi oila, mahalla, maktab hamkorligida jismonan baquvvat, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va ongli yashash qobiliyatiga ega bo‘lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o‘zlashtiradigan, ma’lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi shaxsining milliy va umummadaniy kompetensiyasi ijtimoiylashuvida munosabatlarga kirishish, kasb-hunar o‘rgatish, o‘quvchi yoshlarning ma’naviy va g‘oyaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda shaxsni tarkib toptirish va rivojlantirishda axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalarni o‘quvchilar ongiga singdiradi. O‘quvchilar bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan jarayonlarni amalga oshirish asosida umuminsoniy qadriyatlar, milliy meros, ma’rifat va hayot saboqlarini shakllantirish vazifasini amalga oshiradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ushbu jarayonda o‘qituvchi, ota-ona va farzandlar, shuningdek, bir necha av-

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning “Yangi O‘zbekiston” nashriga bergan intervyusi. 19.08.2021-yil.

lodga mansub shaxslarning o‘zaro munosabatlari uzviyligini ta’minlashda faol ishtirok etadi, ularning bir-birlari bilan bilim, tajribalarini o‘rganish, takomillashtirishga oid yosh avlod tarbiyasi bilan shug‘ullanadilar. Yosh avlodda moddiy va ma’naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko‘rsatadilar.

O‘qituvchi bevosita mamlakat hayoti va xalq tajribasi bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, o‘quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanib borishida ta'sir ko‘rsatadi. Bu o‘rinda o‘qituvchining vazifasi ta’lim-tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil etishning optimal imkoniyatlardan foydalanib o‘quvchi shaxsini kamol topishini ta’minlashdir.

Bu o‘rinda, o‘qituvchi tariximiz, betakror va noyob ma’naviy boyliklarimizni nafaqat chuqur o‘rganishi, balki ularnio‘quvchilar ongiga yetkazishi Yangi O‘zbekiston g‘oyasini shakllantirishining asosiy negizini tashkil etadi. Bu yo‘nalishda o‘qituvchi o‘quvchilarda madaniyat, kino, raqs va tasviriy san’at sohalarini, adabiyot va kitobxonlikni rivojlantirishi, milliy hunarmandchilikni takomillashtirishi Yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi mashg‘ulotlar jarayonida madaniy boyliklar, buyuk muhaddis bobolarimizning diniy va ilmiy ma’naviy merosini o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida Imom Buxoriy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari, shuningdek, O‘zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlik qilishi, xalqimizning boy diniy-ma’naviy merosini chuqur o‘rganishlari yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda beqiyos o‘rin tutadi.

O‘qituvchi hozirgi murakkab va shiddatli zamonda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni va ta’siri tobora ortib borayotganini hisobga olib, bu sohadagi o‘z faoliyatini yanada kuchaytirishi, o‘quvchi yoshlar ma’naviyatini qo‘llab-quvvatlashida bilim va tajriba, tashkilotchilik salohiyati, o‘quvchi yoshlar uchun fidoyilik tuyg‘usiga ega bo‘lishi uning faoliyatini samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Shu jihatdan ham ta’lim islohotlarining samarali amalga oshirilishi birinchi navbatda, o‘qituvchilarga, ularning bilim va tajribasi, ishbilarmonlik xususiyatlariga bog‘liq. Eng muhimi, ular o‘quvchi yoshlarning ishonchini qozongan bo‘lishi shart. Bu o‘rinda ularning ishi, faoliyati va muomala madaniyati, siyosiy, huquqiy va axloqiy saviyasiga ota-onalar, keng jamoatchilik baho beradi. Lekin ochiq aytadigan bo‘lsak, ba’zi bir o‘qituvchilarning ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ish faoliyati ota-onalar, o‘quvchi yoshlar o‘rtasida yetarli obro‘ e’tiborga ega emas.

Buning uchun o‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida fanlar uzviyligiga erishish va keng qamrovli ishlarni amalga oshirish, ularni nazariy va amaliy jihatdan tashkil etishda falsafa, ma’naviyat, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, anatomiya, fiziologiya va gigiyena, etika, estetika fanlari bilan bog‘liqlikda olib borish muhim o‘rin tutadi.

Afsuski, ko‘pgina o‘qituvchilar o‘quvchi yoshlarning dardu tashvishlari bilan yashashni qandaydir ikkinchi darajali ish deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham ular ko‘pgina masalalarda zaif va ojiz bo‘lib qolmoqda.

O‘qituvchining madaniyati, hayotiy bilim va tajribalari bevosita o‘quvchilar bilan muloqot qilishdan boshlanadi. O‘qituvchi o‘quvchi bilan birga ishlamasa, qanchalik sharoit yaratmasa ta’lim islohotlarining rivojlanishi qiyin bo‘ladi.

Bugungi o‘qituvchi mustaqil qaror qabul qilib, mustaqil ish olib borish imkoniyatiga ega. O‘qituvchi nimanidir bilmasligi yoki ko‘zdan qochirishi, xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin, lekin u ana shu xatolarni tuzatishda yangicha ishlash, o‘z bilim va tajribasini oshirishi farzandlarimizning baxtini ta’minlash jarayonlarini takomillashtirishning asosini tashkil etadi.

Chunonchi, o‘qituvchi ta’lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri tashkil qilish va o‘quvchilarga bilim berish jarayoni orqali ularning bilimlarini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatish usul

va uslublarini amalga oshirish masalalarni nazariy va amaliy jihatdan rivojlantiradi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi turli xil ijtimoiy guruhlar bilan tarbiya ishlarini olib boradi. Masalan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar, o‘smirlar, o‘spirinlar, qizlar, yigitlar hamda turli millat vakillaridan iborat bo‘lgan jamoa asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil qiladi.

Tarbiyaviy ishlar asosida bolalarda “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish”,“Yangi O‘zbekiston” tushunchalarini tarkib toptirish, shaxsning ma’naviyatini zamon talablariga javob beradigan tarzda shakllantirish kabilar o‘quvchilarda Vatan, ona-yurt tuyg‘ularini, axloq va odob bilimlarini rivojlantiradi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, ularning anatomik fiziologik xususiyatlarini o‘rganishi ularning qanday yashayotgani, nima bilan nafas olayotganini nazorat qilishi, qanday masala va muammolar qiziqtirayotgani, tashvishga solayotganini yaqindan bilishi muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchi keng jamoatchilik tomonidan qizg‘in muhokama qilinayotgan barcha muammolarga e’tibor qaratishi va ularni mashg‘ulotlar, ma’naviy tadbirlar orqali o‘quvchilar ongiga yetkazish, ularga munosabat bildirish madaniyatini rivojlantirish zarur.

O‘qituvchi tarbiyaviy tadbirlarda o‘quvchilarga yoshligidanoq oilaga yuksak hurmat, ehtirom, mamlakat, tinchlik, hamjihatlik, o‘sish, yuksalish, huquq, jonajon Vatanimizga bo‘lgan cheksiz mehr va sadoqat, bilim va tajriba, aql-zakovat, yagona xalq, yagona millat, ezgu maqsad tuyg‘ularini shakllantirishi ularni Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari qatoridan o‘rin egallash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning Mustaqillikning 30 yilligiga bag‘ishlangan bayram tabrigi “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 1.09.2021-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning “Yangi O‘zbekiston” nashriga bergan intervyusi.19.08.2021-yil.

3. Mahkamov U.I., Ismoilova D, Olimjonova D. Islohotlarda o‘qituvchi o‘rni. Maqola Mug‘allim xem uzliksiz bilimlendirio‘ № 2, 2021-yil 10–14-betlar.

4. Mahkamov U.I., Ismoilova D.M ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.

Muxlisa MADIYAROVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASH MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif tomonidan o'quv jarayonida talabalarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish, talabalarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida mutaxassisga nisbatan yangi talablarni qo'yish, shaxsni rivojlantirish, kasbni egallash, kasbiy faoliyatni amalga oshirish, madaniyatlararo muloqotning boshqa ishtirokchilariga munosabat kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim, bo'lajak mutaxassis, kasbiy kompetentsiya, o'quv jarayoni, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy faoliyat.

В статье рассматриваются такие вопросы, как формирование профессиональной компетентности у студентов в процессе обучения, установление новых требований к специалисту в процессе профессиональной подготовки студентов, личностное развитие, род занятий, профессиональная деятельность, отношение к другим участникам межкультурного общения.

Ключевые слова. Высшее образование, будущий специалист, профессиональные компетенция, учебный процесс, профессиональная подготовка, профессиональная деятельность.

This article addresses issues such as the formation of professional competence in students during the educational process, setting new requirements for the specialist in the process of professional training of students, personal development, occupation, professional activity, attitude to other participants of intercultural communication.

Key words. Higher education, future specialist, professional competence, educational process, vocational training, professional activity.

Oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassislar faoliyatini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda tayyorlanayotgan bo'lajak mutaxassisdan shiddat bilan rivojlanib borayotgan ta'lim tendensiyalari asosida o'z fanini chuqur bilishi va zamonaviy bozor talablariga javob beruvchi raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda ularning zaruriy kompetensiyalarini shakllantira olishi, ularda kompetensiyalarni kelgusida kasbiy faoliyatida izchil qo'llay olish mahoratini shakllantira olishi talab etiladi.

Oliy ta'limda kasbiy-ijodiy faoliyat ko'nikmalarining o'zlashtirilishi nafaqat amaliy ko'nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo'lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o'zlashtirilishini talab etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nazariy

va amaliy mustaqil ta’lim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilgan. Mustaqil ta’lim olishda talaba o‘zi mustaqil ravishda adabiyotlar, darsliklar, gazeta va jurnallar, radio va televideniye, elektron darsliklar, o‘quv-qo‘llanmalar, internet resurslari, mobil ilovalar va o‘quv-uslubiy majmualardan foydalanishi nazarda tutiladi. Mustaqil ta’lim o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarishi asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim olish jarayonida ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, ta’limdagi mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Bu esa, zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishini taqozo etadi.

Dars va darsdan tashqari o‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish, ularni intellektual-ijodiy fikrlashni, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish, ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, bo‘lajak mutaxassislarni kelgusida yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘ladi, chunki o‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omillardan biri bu – kreativ fikrlash bo‘lib hisoblanadi.

Bo‘lajak mutaxassisning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarida ifodalanadi. Aslini olganda kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik talabalarning zehni o‘tkir bo‘lishini belgilab beradi, talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi.

Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishdan oldin auditoriyada qulay muhit, sharoitni yaratish lozim. Kreativ muhitda ta’lim olayotgan talabalarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega professor-o‘qituvchini kuzatishi natijasida kreativ fikrlashga moyillik paydo bo‘ladi.

Shuningdek, talabalarni mustaqil ta’lim jarayonida kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo, pedagogning o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur, bordi-yu, uning o‘zi kreativlik sifatlarga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, talabalarni kreativ fikrlashga rag‘batlantira oladi. Oliy ta’lim pedagogining o‘zi kreativ, ijodkor bo‘lsagina, talabalarda ham shunday qobiliyat paydo bo‘ladi.

Ta’lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida malakali kadrlar tayyorlashning muhim omillaridan biri – bu ta’lim sifati va samaradorligini oshirishdir. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o‘yin texnologiyalari, muammoli o‘qitish, xususan, mustaqil ta’limning noan’anaviy metodlari ham muhim o‘rinni egallaydi.

Dars jarayonida talabalarda mustaqil fikr yuritishga, aqliy va ijodiy faollikka erishishga qaratilgan mashg‘ulot turi mustaqil ta’lim bilan bog‘liq bo‘ladi. Mustaqil ta’limning asosiy masalasi ham, aynan talabaning dars va darsdan so‘nggi faoliyatida faolligini ta’min etishga yo‘naltirilgan shart-sharoit, erkin fikr va kasbiy mas’uliyatni his qilishni ta’min etishga qaratilgan ijodiy jarayondan iborat.

Bugungi zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta’limda talabalarga tayyor bilimlarni berish emas, balki ularni bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga yo‘naltirish tobora muhim

ahamiyat kasb etib bormoqda. Zero, tayyor bilimlarni o‘zlashtirish garchi, talabalarning borliqni anglashlari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini, u yoki bu ko‘rinishdagi kishilik faoliyati mohiyatini tushunishlariga yordam beradi. Biroq, borliq va ijtimoiy munosabatlarning mavjud holatini ifodalovchi hodisa, voqeiylik, jarayonning tarkibiy elementlari o‘rtasidagi o‘zaro birlik, aloqadorlikni tushunish, sabab-oqibatlarini tahlil qilish, faoliyat mazmuni, yo‘nalishi va eng muhimi, natijasini kafolatlovchi omillarni tahlil qilish malakalarini samarali rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu kabi dars jarayonida salbiy holatning oldini olishda talabalarni “muammo vaziyatlar”ga ro‘para qilish metodik jihatdan samarali sanaladi.

Bo‘lajak mutaxassis faoliyatining individual uslubi kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlar bilan emas, balki ularning kombinatsiyalarining xilma-xilligi bilan belgilanadi. Ammo zamonaviy fan pedagogik fazilatlar, ularning professor-o‘qituvchining muvaffaqiyatiga ta’siri to‘g‘risidagi savollarga aniq javob bermaydi. Ushbu masala bo‘yicha turli xil fikrlar mavjud. Kasbiy-didaktik komponent – bu bo‘lajak mutaxassisning kasbiy va ta’limiy muammolarini hal qilishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini ko‘rsatadigan bir qator kompetensiyalar. Ular – aksiologik, gnostik, operatsion, refleksiv.

Bugungi kunga kelib, bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash doirasida ushbu kompetensiyani shakllantirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ammo hozirgi paytda shuni ta’kidlash kerakki, didaktik kompetensiya nafaqat pedagogik kompetensiyaning ajralmas qismi, balki yuqori malakali professor-o‘qituvchini zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida ishlashga tayyorlashda muhim jihatlardan biridir.

Albatta, talabalarning mustaqil bilim olishini yo‘lga qo‘yish natijasida dars jarayoni samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini ko‘tarish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanib, uning ta’lim berish jarayonini to‘g‘ri tashkil eta olishiga bog‘liqdir. Agar talaba uchun auditoriyada barcha yetarli sharoitlar – o‘quv materiallari, kompyuter texnikasi, avtomatlashtirilgan dasturlar kabilar bo‘lsa-yu, undan foydalanish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, o‘quv jarayoni to‘g‘ri tashkil etilmagan bo‘lsa, yuqori natijaga erishib bo‘lmaydi. Har qanday holatda ham dars va darsdan tashqari sharoitda o‘qituvchi va talabaning o‘zaro munosabatlari muhim o‘rin egallaydi.

Muammoli vaziyatlarning didaktik imkoniyatlari talabalarni o‘rganilayotgan masala (mavzu, muammo) yuzasidan fikrlash, masala mohiyatini yorituvchi tarkibiy elementlar o‘rtasidagi o‘zaro birlik va aloqadorlikni anglash, muammo-muammoni hal qilish jarayoni muammoning yechimi tizimi asosida masalani tahlil qilish, muammo borasidagi farazlarni ilgari surish, ularning maqbulligini tekshirish, muammo yechimini bayon etish va uni himoya qilish kabi amaliy harakatlarni tashkil etishga majbur qiladi. Qolaversa, muammoli vaziyatlar yordamida mutaxassislar o‘z bilimlarini mustaqil tahlil qilish, o‘quv-bilish faoliyatiga tanqidiy yondashish, o‘rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan ijodiy fikrlarini ilgari surish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladiki, xuddi shu holat jamiyat tomonidan ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan ijtimoiy buyurtmaning to‘laqonli bajarilishini ta’minlaydi. Shu sababli hozirgi sharoitda oliy ta’lim tizimi kredit-modul tizimiga o‘tayotgan bir davrda mustaqil ta’limdan foydalanish, auditoriyada muammoli ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Oliy ta’limda kreativ fikrlash – bu bo‘lajak mutaxassisning ta’lim faoliyati sohasidagi vakolatlari va funksiyalari doirasini belgilaydigan: bilim, ko‘nikma va malaka hamda tajribani shakllantirish qonuniyatlarini ochib beradi, tarkibning hajmi va tuzilishini belgilaydi. Auditioriyada ta’lim berish, o‘qitish usullari va tashkiliy shakllari yaxshilanib, o‘quv jarayonining talabaga ta’siri orqali zamonaviy insonni tarbiyalaydi.

Ma’lumki, mustaqil ta’limni yo‘lga qo‘yishda nafaqat talabalarni muayyan fan bo‘yicha bilim ko‘nikma va malakalarini oshirish, ularda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish, shu bilan bir qatorda bo‘lajak mutaxassis sifatida talaba shaxsida ijodiy va ilmiy tafakkurni rivojlantirish vazifasi turar ekan, ma’lum ma’noda global professionallik masalasi ham o‘z tasdig‘ini topmog‘i lozim. Bu jarayondagi ijodiy texnologik yondashuv talabadan tezkor fikrlashni va faol harakatni talab qiladi. Chunki talabadagi faollik ijodiy faoliyatga aylangan taqdirdagina mehnatni ilmiy tashkil qilish, vaqt byudjetidan unumli foydalanish amalga oshadi. Ana shunda talaba qiziqishlar asosida o‘zining diqqatini muayyan obyektga qarata oladi.

Ijodiy texnologik faoliyat shunchaki oson kechadigan jarayon emas. Shaxsning sezgisi, idroki uning xotirasi hamda mantiqiy tafakkur ko‘lami bilan uyg‘un bog‘lanib ketadi. Ijodiy faoliyatda talabdagi bilim innovatsion ko‘nikma va malakalar bilan yanada takomillashib boradi.

Har tomonlama ijodiy rivojlanayotgan bo‘lajak mutaxassis shaxsi faqat ajralmas pedagogik jarayon sharoitlarida shakllanishi mumkin, talabaning kasbiy kompetentligi, har bir bosqichi umumiy tamoyillari asosida usullari va maqsadlari yakuniy maqsadiga qurilgan. Aynan shuning uchun fanlararo integratsiya oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’lim jarayonida talabalar ta’lim va tarbiyasining muhim sharti hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida umumiy va mutaxassislik fanlarini o‘qitishda, talabalarning kreativ fikrlash malakalarini shakllantirishda muammoli ta’lim texnologiyalari orasida muhim o‘rin egallagan “Keys-stadi” texnologiyasi, “Loyiha” metodini qo‘llash tajribasi shakllanmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarda mustaqil ta’lim jarayonida ularga xos kreativ sifat va ijodiy pedagogik faoliyat malakalarini samarali rivojlantirish ta’limni samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, oliy ta’lim muassasalarida ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish jarayonida talabalarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko‘rsatkichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash bugungi kunni asosiy talablaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv – qo‘llanma. – T., TDPU, 2003. – 174-b.

2. Avliyoqulov N.H. O‘qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Buxoro. 2001. – 49-b.

3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Mirsoliyeva M. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T., 2016. – 147-b.

4. Muqimov B.R., Ximmataliyev D.O. “Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini o‘qitishning interfaol usullari asosida takomillashtirish” // Monografiya. – T., 2019. – 132-b.

5. Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009.

6. Утёмов В.В., Зинковкина М.М., Горев П.М. Педагогика креативности: прикладной курс научного творчества / Учеб. пособ. – Киров: АНОО “МежрегинальныйЦИТО”, 2013.

Jumanazar XUSANOV,
fizika-matematika fanlari doktori, professor
Nasriddin SHAMSIDDINOV,
fizika-matematika fanlari nomzodi
Baxtiyor QUVONOV,
fizika-matematika fanlari nomzodi

GEOMETRIYA FANIDAN USLUBIY ISHLANMALAR TAYYORLASHDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Maqolada geometriya fanidan uslubiy ishlanmalar tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarni ta’lim sohasidagi keyingi yangiliklardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishi, dars jarayonini yangiliklardan foydalanib tashkil etishi va rivojlantirishi o‘qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratini oshirishda katta ahamiyatga egaligini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Geometriya, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, element, elektron ta’lim, pedagogik mahorat.

В статье рассматривается эффективность использования информационно-коммуникационных технологий при подготовке методических разработок в области геометрии. Автор также подчеркивает важность своевременного информирования педагогов, работающих в образовательных учреждениях, о последних достижениях в области образования, организации и развития учебного процесса с использованием нововведений в повышении профессионально-педагогического мастерства учителей.

Ключевые слова. Геометрия, информационные и коммуникационные технологии, элемент, электронное обучение, педагогические навыки.

The article discusses the effectiveness of the use of information and communication technologies in the preparation of methodological developments in the field of geometry. The author also emphasizes the importance of timely awareness of teachers working in educational institutions about the latest developments in the field of education, the organization and development of the teaching process using innovations in improving the professional and pedagogical skills of teachers.

Key words. Geometry, information and communication technologies, element, e-learning, pedagogical skills.

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta’limni axborotlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda, ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda. Ta’lim berishda internet texnologiyalari, kompyuter texnologiyalari, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari, mobil texnologiyalaridan foydalanish ochiq ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini sifatida keng quloch yoymoqda.

Ta’lim tizimida barcha fundamental bilimlar asosan an’anaviy bosma shaklda tayyorlangan o‘quv adabiyotlari, ovozli axborotlar va video ishlanmalar orqali beriladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini tashkil etishning yangi va samarali shakllaridan biridir. Bu asosan o‘quvchilarning mustaqil ishlariga qaratilgan aniq bir o‘quv dasturini amalga oshirishdir. O‘quv adabiyotlari yaratishda misol va masalalarning uzviyligi, miqdori, o‘xshashligi, qiyinlik darajasini hisobga olgan holda sinf ishi, uy vazifasi va yozma nazorat ishlari tayyorlashda o‘qituvchilarda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Shuning uchun elektron ta’lim dasturlaridan foydalanib masalalar tuzish, o‘qituvchiga masalalarning yechimlarini topish, nazorat ishlarini tekshirishda yengillik tug‘diradi va vaqtni tejaydi.

Geometriya fanini o‘rganishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida qo‘lga kiritilgan eng ilg‘or yutuqlardan hisoblangan Mathematika, Maple, Mathlab kabi elektron ta’lim dasturlaridan hisoblangan Mapledan foydalanish darsni qiziqarli va samarali bo‘lishini ta’minlovchi asosiy mezonlardan biridir.

Mazkur maqolada ixtiyoriy uchta tomoni berilgan uchburchakning qolgan elementlarini topish Maple-10 dasturida tuzilgan.

Dasturda:

S – uchburchak yuzi;

r – uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusi;

R – tashqi chizilgan aylana radiusi;

rR – ichki va tashqi chizilgan aylanalar markazlari orasidagi masofa;

rm – ichki chizilgan aylana markazi va medianalarning kesishish nuqtasi orasidagi masofa;

rh – ichki chizilgan aylana markazi va balandliklarning kesishish nuqtasi orasidagi masofa;

Rm – tashqi chizilgan aylana markazi va medianalarning kesishish nuqtasi orasidagi masofa;

Rh – tashqi chizilgan aylana markazi va balandliklarning kesishish nuqtasi orasidagi masofa;

mh –medianalar va balandliklarning kesishish nuqtalari orasidagi masofa;

mA – A uchidan tushirilgan mediana uzinligi;

lA – A uchidan tushirilgan bissektrisa uzinligi;

hA – A uchidan tushirilgan balandlik uzunligi;

cosA – A burchak kosinusi kabi elementlarning qiymatlari topamiz.

Uchburchakning tomonlari a, b, c berilgan holda qolgan elementlarni topishdan olingan natijalar quyidagicha

1-jadval

	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
	a	B	c	S	r	R	rR	rm	rh	Rm	Rh	mh
1	14	15	13	84	4	$\frac{65}{8}$	$\frac{\sqrt{65}}{8}$	$\frac{1}{3}$	$\frac{\sqrt{17}}{4}$	$\frac{\sqrt{165}}{24}$	$\frac{\sqrt{165}}{8}$	$\frac{\sqrt{165}}{12}$
2	10	12	8	$15\sqrt{7}$	$\sqrt{7}$	$\frac{16\sqrt{7}}{7}$	$\frac{4\sqrt{14}}{7}$	$\frac{2}{3}$	$\frac{2\sqrt{77}}{7}$	$\frac{2\sqrt{259}}{21}$	$\frac{2\sqrt{259}}{7}$	$\frac{4\sqrt{259}}{21}$
3	24	25	7	84	3	$\frac{25}{2}$	$\frac{5\sqrt{13}}{2}$	$\frac{\sqrt{229}}{3}$	$3\sqrt{2}$	$\frac{25}{6}$	$\frac{25}{2}$	$\frac{25}{3}$
4	$10\sqrt{3}$	$12\sqrt{3}$	$10\sqrt{3}$	144	$3\sqrt{3}$	$\frac{25\sqrt{3}}{4}$	$\frac{5\sqrt{3}}{4}$	$\frac{\sqrt{3}}{3}$	$\frac{3\sqrt{3}}{2}$	$\frac{11\sqrt{3}}{12}$	$\frac{11\sqrt{3}}{4}$	$\frac{11\sqrt{3}}{6}$

1-jadval davomi

14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24
mB	mC	lA	lB	lC	hA	hB	hC	$\cos A$	$\cos B$	$\cos C$
$\frac{\sqrt{505}}{2}$	$\frac{\sqrt{673}}{2}$	$\frac{2\sqrt{65}}{2}$	$\frac{28\sqrt{13}}{9}$	$\frac{168\sqrt{5}}{29}$	12	$\frac{56}{5}$	$\frac{168}{13}$	$\frac{33}{65}$	$\frac{5}{13}$	$\frac{3}{5}$
$\sqrt{46}$	$\sqrt{106}$	$6\sqrt{2}$	$\frac{20}{3}$	$\frac{30\sqrt{14}}{11}$	$3\sqrt{7}$	$\frac{5\sqrt{7}}{2}$	$\frac{15\sqrt{7}}{4}$	$\frac{9}{16}$	$\frac{1}{8}$	$\frac{3}{4}$
$\frac{25}{2}$	$\frac{\sqrt{2353}}{2}$	$\frac{35}{4}$	$\frac{168\sqrt{2}}{31}$	$\frac{120\sqrt{2}}{7}$	7	$\frac{168}{25}$	24	$\frac{7}{25}$	0	$\frac{24}{25}$
$8\sqrt{3}$	$\sqrt{291}$	$\frac{48\sqrt{15}}{11}$	$8\sqrt{3}$	$\frac{48\sqrt{15}}{11}$	$\frac{48\sqrt{3}}{5}$	$8\sqrt{3}$	$\frac{48\sqrt{3}}{5}$	$\frac{3}{5}$	$\frac{7}{25}$	$\frac{3}{5}$

Ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarni ta’lim sohasidagi keyingi yangiliklardan o‘z vaqtida xabardor bo‘lishi, dars jarayonini yangiliklardan foydalanib tashkil etishi va rivojlantirishi o‘qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘quvchilarda mustaqil, keng, chuqur, puxta, mukammal, tez, tanqidiy, ijobiy, kriativ fikrlay olish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Bu esa ularda o‘z fikrida qat’iylik, atrofdagilar fikriga munosabat, o‘z-o‘ziga baho bera olish, hozirjavoblik, harakatchanlik va intiluvchanlik, mustaqil fikrlash xislatlarini shakllantirishda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. O‘qituvchi, o‘quvchilarning geometriya fanidan o‘tilgan mavzudagi materiallarni tushunish (tasavvur etish, taqqoslash, xususiylashtirish, umumlashtirish, baholash) darajasini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlarni axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ko‘rgazmali tashkil etishga harakat qilishi lozim. O‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari eng avvalo, o‘qituvchi tomonidan dars jarayonida qo‘yilgan masalaning dolzarbligiga ham bog‘liq. Chunki inson o‘z hayotida ma’lum muammoga duch kelgandagina tez, keng va chuqur fikrlay boshlaydi.

Geometriya fanini o‘qitishda va uslubiy ishlanma, tarqatma materiallar tayyorlashda elektron ta’lim dasturlaridan tizimli foydalanish, kutilayotgan natijaga erishish, o‘quvchilarning geometrik tasavvurini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchi axborot kommunikatsiya texnologiyasini yaxshi bilishi, o‘quv materiallarini o‘quvchilarni faollashtirishga yo‘naltirilgan turli xil ta’lim shakllaridan foydalanish uchun moslashuvchan metodologiyani qo‘llashi zarur. Shuni ta’kidlash joizki, geometriya fanini o‘qitishda va ilmiy-uslubiy ishlarda Maple dasturining qo‘llanishi ko‘pgina muammolarning hal etilishida katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Агапова Н.В. Перспективы развития новых технологий обучения. – М.: ТК Велби, 2005. – С.247.

2. Mario Lucertini Technological Concepts and Mathematical Models in the Evolution of Modern Engineering Systems. Germany, 2012.

Rahima SAFAROVA,
Buxoro davlat tibbiyot instituti katta o‘qituvchisi

TIBBIYOT XODIMLARINI TAYYORLASHDA FIZIKA FANINI O‘QITISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida o‘rganiladigan “Fizika” fani mavzularining o‘qitilishi muhokama qilinadi, fanning mazmunini tahlil qilinadi. “Fizika” fanida ochilgan professional yo‘naltirilgan savollar, kasbiy yo‘naltirilgan masalalarning tasnifi berilgan. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida fizikani o‘rganish jarayonida foydalanish mumkin bo‘lgan professional yo‘naltirilgan vazifalar tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar. Tibbiyot, fizika, kasbiy yo‘naltirilgan savollar, jismoniy muammo, fizika, fizika va tibbiyotni o‘qitishning zamonaviy usullari.

В статье рассматривается дисциплина “физика”, которая изучается в медицинских вузах. Проводится анализ содержания данной дисциплины, выделяются профессионально ориентированные вопросы, раскрываемые в рамках дисциплины “физика”. Дается классификация профессионально ориентированных вопросов. Описываются физические задачи профессионально ориентированного характера, которые могут быть использованы в процессе изучения физики в медицинских вузах.

Ключевые слова. Физика, профессионально ориентированные вопросы, физическая задача, физика и медицина современные методы обучения физики.

The article discusses the discipline “physics”, which is studied in medical universities. The analysis of the content of this discipline is carried out, highlighted professionally oriented questions disclosed in the discipline “physics”. A classification of professionally oriented issues is given. The article describes professionally oriented physical tasks that can be used in the process of studying physics in medical universities.

Key words. Physics, professionally oriented questions, physics problem, modern methods of teaching physics, physics and medicine.

Kundalik hayotimizda tibbiyot va fizika sohalarining o‘rni beqiyosdir. Har kuni fizikaning tibbiyot rivojiga ta’siri tobora ortib bormoqda, shu tufayli tibbiyot sanoati modernizatsiya qilinmoqda.

Fiziklar tomonidan ishlab chiqarilgan ko‘plab qurilmalar shifokorlarga har qanday turdagi tekshiruvlarni o‘tkazishga imkon beradi. Tadqiqotlar bemorlarga aniq tashxis qo‘yish va tiklanishning turli usullarini topishga imkon beradi. Tibbiyotga birinchi to‘liq ko‘lamli hissa – Wilhelm Rentgenning hozirgi kunda uning nomi bilan ataladigan nurlar sohasida kashf etilishi. Bugungi kunda rentgen nurlari odamdagi u yoki bu kasallikni osongina aniqlashga, suyaklar darajasidagi ma’lumotlarni batafsil bilib olishga va hokazolarga imkon beradi.

XIX asrda tibbiyot talabalari fizikani juda jiddiy darajada o‘rganganlar. Hozirgi vaqtda fizika bir qator o‘rganilgan fanlarda ham mavjud, ammo talabalar ko‘pincha uni o‘rganish juda muhim deb hisoblamaydilar. Ushbu holatni tuzatish kerak, chunki

fizika tibbiyotga tobora jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda: lazer jarrohligi, yumshoq to‘qimalarni ultratovush tekshiruvi, magnit-rezonans tomografiya, rentgen nurlari, gamma skalpel bilan operatsiyalar va boshqalar.

Hozirgi vaqtda turli darajadagi murakkablikdagi diagnostik tadqiqotlar va eng xavfsiz jarrohlik aralashuvlar faqat fiziklar tomonidan ishlab chiqilgan va saqlanib turadigan zamonaviy texnik vositalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Shifokorning vakolati, albatta, ishlatilgan uskunani sozlash va ta'mirlashni o‘z ichiga olmaydi, lekin u qurilmaning ishlashi asoslarini tushunishi kerak.

Shuning uchun tibbiyot universitetida fizika talabalariga dars berish jarayonida bevosita tibbiyot bilan bog'liq bo‘limlarni qamrab olish zarur. Zamonaviy multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo‘llaniladigan namoyish moslamalari o‘quv jarayonini takomillashtirish va bo‘lajak shifokorlarni zamonaviy tibbiy diagnostika va davolashda qo‘llaniladigan fizik usullar bilan batafsil tanishtirishga imkon beradi.

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalariga fizika kabi tabiiy fanlar bo‘yicha dars berish kelajakdagi shifokorlarning umumiy madaniy va kasbiy vakolatlarini shakllantirish masalasini hal qilishga qaratilgan. Tabiatshunoslik profilining fanlarini o‘rganish jarayonida talaba o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan asosiy vakolatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolar va jarayonlarni tahlil qilish qobiliyati va tayyorligi, turli xil kasbiy va ijtimoiy faoliyat turlarida gumanitar, tabiatshunoslik, biomedikal va klinik fanlar metodlaridan amaliyotda foydalanish;
- muhim siyosiy voqealar va tendensiyalarni tahlil qilish, siyosiy hayotda mas'uliyat bilan qatnashish, jahon tarixiy jarayonining asosiy tushunchalari va qonuniyatlarini o‘zlashtirish, tarixiy meros va tendensiyalarga hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, davlat siyosatini baholash qobiliyati va tayyorligi;
- mantiqiy va asosli tahlilga, jamoat oldida nutq, munozara va polemika, professional mazmundagi matnlarni tahrirlash, o‘quv va o‘qitish faoliyatini olib borish, hamkorlik va nizolarni hal qilish, bag‘rikenglik qobiliyati va tayyorligi;
- kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan muammolarning tabiiy ilmiy mohiyatini aniqlash, ularni hal qilish uchun tegishli fizik-kimyoviy va matematik apparatlardan foydalanish qobiliyati va tayyorligi;
- bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash qobiliyati va tayyorligi, kompyuter uskunalariga egalik qilish, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash;
- kasbiy muammolarni hal qilish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlarini qo‘llash;
- tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy va tibbiy ma'lumotlarni, mahalliy va xorijiy tajribalarni o‘rganish qobiliyati va tayyorligi;
- yangi istiqbolli vositalarni yaratish, tadqiqot natijalaridan amaliy foydalanish va amalga oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilish uchun zamonaviy nazariy va eksperimental tadqiqot usullarini ishlab chiqishda ishtirok etish qobiliyati va tayyorligi.
- Yuqorida keltirilgan vakolatlarni shakllantirish zamonaviy sog‘liqni saqlash va tibbiyot sharoitida, ham O‘zbekistonda, ham chet elda faoliyat olib borishga qodir bo‘lgan shifokorni tayyorlashning ajralmas qismidir.

Ta'limga faollikka asoslangan yondashuv bilan talabalar ishining asosiy elementi muammolarni hal qilish bo‘ladi, ya'ni faoliyatni, ayniqsa, yangi faoliyat turlarini o‘zlashtirish: ta'lim va tadqiqot, izlash va loyihalash, ijodiy va boshqalar. Bunday holda,

haqiqiy bilimlar tashkil etilgan vazifalar ustida ishlashning natijasi bo‘ladi. Shu bilan birga, V.V. Davydov, faoliyatni rivojlantirish bilan talaba jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan qadriyatlar tizimini shakllantira oladi. Passiv bilim iste’molchisidan talaba o‘quv faoliyatining faol subyektiga aylanadi.

Jismoniy hodisalar, jarayonlar, qonuniyatlarni bilish jarayonida vazifaga yondashish yetakchi usul bo‘lishi mumkin. Vazifaga asoslangan yondashuv, siz fizika, matematika va informatika kurslarini o‘zlashtirganingizda, tushunchalar tizimini o‘zlashtirishga va o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishga yordam beradigan faol usullar deb nomlanadi. Muammolarni hal qilish orqali shaxsning rivojlanishini ta’minlaydigan o‘quv-bilish faoliyatining aniq usullari va usullarini ishlab chiqish sodir bo‘ladi. Rivojlanayotgan o‘quv kontekstining talabi shundan iboratki, shifokorning tafakkuri uchun muhim bo‘lgan intellektual fazilatlarni rivojlanishiga ma’lum darajada hissa qo‘shadigan ijodiy vazifalarni (xususan, g‘ayritabiiy vazifalarni) darsning topshiriq materialiga kiritishdir.

Shaxsiy yo‘naltirilgan yondashuvda, talaba butun o‘quv jarayonining asosiy belgisidir. O‘qituvchi “axborot manbai” va “nazoratchi” emas, balki o‘quvchining shaxsiyatini rivojlantirishda diagnostikachi va yordamchiga aylanadi. Fizika va matematikani o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish uchun barcha mantiqiy darajalarni – atrof-muhitdan shaxsiy o‘ziga xoslik va o‘ta maqsadlarni qamrab oladigan kundalik tajribani egallashning tabiiy mexanizmlari va strategiyalaridan foydalanish zarur. Yakimanskaya o‘rganish bir vaqtning o‘zida yoki ketma-ket uchta hissiy hislar tizimidan foydalangan holda qurilishi kerak, deb hisoblaydi.

O‘quv va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilib, xulosa qilishimiz mumkinki, turli yillarda pedagogik nazariya va amaliyotda fizika, matematika va informatika o‘qitishni tashkil qilishning turli xil pedagogik yondashuvlari ustunlik qildi: bilimga asoslangan, kompetensiyaga asoslangan, faoliyatga asoslangan, vazifaga yo‘naltirilgan, shaxsga yo‘naltirilgan. Bunga uslubiy munosabatlarning o‘zgarishi, ta’lim paradigmasining o‘zgarishi va ta’lim uchun ijtimoiy buyurtma sabab bo‘ldi.

Oliy ta’lim tizimida fizikani o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- modulli o‘qitish texnologiyasi;
- muammoli o‘qitish texnologiyasi;
- dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi;
- individual ta’lim texnologiyasi;
- guruhli o‘qitish texnologiyasi;
- guruhlarda interaktiv ta’lim texnologiyasi.

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlari (masalan, tibbiyot, pediatriya fakultetlari) talabalariga fizika o‘qitishda katta miqdordagi materiallar va o‘quv soatlari soni yetarli bo‘lmagan hollarda modulli o‘qitish texnologiyasidan foydalanish samaralidir. Modulli trening o‘quv ma’lumotlarini qat’iy tuzilishini, o‘quv mazmuni va tinglovchilarning ishlarini to‘liq, mantiqiy yakunlangan o‘quv bloklari (modullari) bilan tashkil etishni nazarda tutadi. Modulli mashg‘ulotlardan foydalanish talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini rivojlantirishga, bilim sifatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Modulli o‘qitish texnologiyasidan foydalanish universitet o‘qituvchisiga quyidagilarga imkon beradi:

1) o‘qitishda differensial yondashuvni amalga oshirish va tibbiyot universitetlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

2) har xil faoliyat turlaridan (individual, juftlikda, guruhda) foydalanishga imkon beradi;

3) test yoki imtihon uchun material to‘plashga, o‘quvchilarni o‘qitish sifati darajasining oshishiga, fizikani o‘rganish motivatsiyasining oshishiga, o‘quv va kasbiy faoliyatning mavzulardan tashqari usullarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Muammoli o‘qitish texnologiyasi tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalariga fizika fanini o‘qitishda samarali amalga oshiriladi. Darslarda muammoli vaziyatlardan foydalangan holda muammoli o‘qitish texnologiyasini o‘quv jarayoniga joriy etish quyidagilarni ta’minlaydi.

1) talabalarning amaliy kasbiy faoliyatida olgan bilimlarini qo‘llash qobiliyatini shakllantirish;

2) nostandart vaziyatda navigatsiya qilishga imkon beradigan qobiliyatlarni rivojlantirish (aks ettirish, maqsadni belgilash, rejalashtirish, modellashtirish va faol muloqot qilish qobiliyati).

Dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi, o‘ziga xosligi sababli, matematikaning amaliy masalalari berilgan, hal etilishi qat’iy algoritmik bo‘lgan bunday bo‘limlarini o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin. Ushbu bo‘limlarga “Algebra va geometriya” bo‘limi kiradi.

Ba’zi jismoniy tushunchalar inson tanasining tuzilishi va ishlashini tushunish uchun asosiy hisoblanadi. Masalan, mexanikaning umumiy qonuniyatlari nuqtayi nazaridan, tayanch-harakat tizimi – bu qo‘llar tizimi: kestirib qo‘shma I turini, oyoq bilagi zo‘r qo‘shimchani II turini, bilagini esa III turini qo‘lini. Boshning bir tekis joylashishi (atlantooksipital artikulyatsiya ham I turtki) bosh suyagining og‘irlik markaziga tatbiq etiladigan tortishish kuchi momentlarining tengligi va mushaklarning tortishish kuchi bilan bog‘liq. Ushbu kuchlarning biron birining o‘zgarishi boshning holatini o‘zgartirishga olib keladi.

Tibbiy asboblarda qo‘llar keng qo‘llaniladi: har xil turdagi qaychi, forseps, nippers va boshqalar. Shifokor tomonidan amalga oshiriladigan ba’zi manipulyatsiyalar, shuningdek, qo‘lni bajarishni o‘z ichiga oladi (tish shifokori tishni olib tashlashda kuch momentini saqlash qonunidan foydalanadi).

Ko‘pgina diagnostika va davolash usullari fizikaviy tamayillardan foydalanishga asoslangan: tibbiy termometrning ishlashi simobning issiqlik kengayishiga, auskultatsiya uchun ishlatiladigan stetoskop (fonendoskop) moslamasi tebranish va to‘lqinlarning xususiyatlariga asoslanadi.

Kelajakdagi shifokor fizikani bilishi kerak, chunki jismoniy qonunlarga tayanish tirik organizmning faoliyatini o‘rganishga, normal fiziologik va patologik jarayonlarni tushuntirishga imkon beradi. Inson tanasidagi turli jarayonlarning murakkabligi va o‘zaro bog‘liqligiga qaramay, ularning aksariyati jismoniy jarayonlarga yaqin.

Qon aylanishi – bu yurak ishi (mexanika), biopotensiallarni hosil qilish (elektr), suyuqlik oqimi (gidrodinamika), elastik tebranishlarning tomirlar orqali tarqalishi (tebranish va to‘lqinlar) bilan bog‘liq jarayon. Nafas olish issiqlik almashinuvi (termodinamika), bug‘lanish (fazaviy transformatsiyalar) bilan bog‘liq.

Bundan tashqari, tanada jismoniy makroprotseslardan tashqari, oxir-oqibat biologik tizimlarning xatti-harakatlarini belgilaydigan molekulyar jarayonlar mavjud. Ushbu mikroprotsesslarning fizikasini tushunish organizmning holatini, bir qator kasalliklarning xususiyatlarini, giyohvand moddalar ta’sirini (shu jumladan, yon ta’sirini) to‘g‘ri baholash uchun zarurdir.

Shaxsiy o‘qitish texnologiyasi tibbiyot talabalariga matematika, fizika va informatika fanlarini o‘qitishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda (o‘tkazishda) foydalanish mumkin. Mustaqil ishni tekshirishda o‘qituvchining bitta talaba bilan o‘zaro munosabati talabaning fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini xolisona baholashga imkon

beradi. Mustaqil ishlarni bajarishda talaba yolg‘iz o‘zi o‘quv qurollari (kitoblar, kompyuter va boshqalar) bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, bu uning intellektual ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Guruhli ta’lim texnologiyalari (kichik guruhlarda ishlash, to‘rtlarda ishlash) OTM o‘qituvchilari tomonidan talabalarga “Informatika” fanini o‘qitishda foydalanishlari mumkin. Universitetda o‘qitishning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan, xususan tibbiyot talabalarini o‘qitishdan iborat bo‘lgan ijodiy qobiliyatlarni, intellektual ko‘nikmalarni rivojlantirish loyihalar usuli, kichik guruhlarda ishlash orqali eng samarali amalga oshiriladi. Guruh texnologiyalaridan foydalanish tibbiyot talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni (tahlil qilish, bashorat qilish, shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish va boshqalar) shakllantirishga yordam beradi.

Yuqoridagi bo‘limlarning har birida kasbiy yo‘naltirilgan savollarni ajratish mumkin. Shu bilan birga, professional yo‘naltirilgan savollar deganda, biz savollarni tushunamiz, ularni o‘rganish va hal qilish shifokorning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘ladi.

Tibbiyot oliy o‘quv yurtidagi fizika kursining kasbiy yo‘naltirilgan savollari, shuningdek, professional yo‘naltirilgan jismoniy muammolarni yechishda ham o‘rganilishi bilan birga kasbiy yo‘naltirilgan jismoniy vazifalar deganda, mazmuni aniq professional yo‘naltirilgan xususiyatga ega bo‘lgan jismoniy vazifalarni tushuniladi, bu yechim shifokorning kelajakdagi kasbiy faoliyatida foydali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ремизов А. Н., Антонов В. Ф., Владимиров Ю. А. Программа по медицинской и биологической физике для студентов медицинских вузов. –М.: ВУНМЦ, 2000.

2. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования. Специальность 060101 Лечебное дело. Квалификация врач-лечебник. –М., 2009.

3. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования. Специальность 060103 Педиатрия. Квалификация врач-педиатр. –М., 2009.

4. Федеральный государственный образовательный стандарт высшего профессионального образования. Специальность 060201 Стоматология. Квалификация врач-стоматолог. –М., 2009.

5. Коробкова С.А., Соловьёва В.В., Горбузова М.С. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ, МАТЕМАТИКЕ И ИНФОРМАТИКЕ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 6.

6. Atoyeva Mehriniso. Elektrodinamika bo‘limini o‘qitishning samaradorligini oshirish aspektlari, Fizika, matematika va informatika, – T. 2016. – № 2. – 81–85-betlar.

7. Atoyeva Mehriniso. Elektromagnetizm bo‘limini davriylik texnologiyasi asosida o‘qitishning didaktik imkoniyatlari, O‘zMU xabarlari. – T. 2016. – ¹ 1/2. – 86–89-betlar.

8. Atoyeva Mehriniso. Uzluksiz fizika ta’lim samaradorligi, Uzluksiz ta’lim. – T. 2012. – ¹ 3. – 19–23-betlar.

Malika XAYDAROVA,
Buxoro davlat universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIGA INDIVIDUAL YONDASHUVNI TATBIQ ETISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish haqida fikr yuritilgan bo‘lib, unda individual yondashuv muammosiga nisbatan nazariy qarashlarning vujudga kelishi va taraqqiy etishi, boshlang‘ich ta’lim jarayonida individual yondashuvni tatbiq etishning asosiy belgilari, strategiyalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Individual yondashuv, individuallashtirilgan ta’lim, tabaqalashtirilgan ta’lim, o‘quv materiali, pedagogik shakllar, metodlar, mustaqil ish, topshiriq, aqliy qobiliyat, qiziqish.

В данной статье рассматривается применение индивидуализированного подхода к процессу начального образования, в котором описывается возникновение и развитие теоретических подходов к проблеме индивидуальных подходов, а также основные особенности и стратегии реализации индивидуализированного подхода к начальному образованию.

Ключевые слова. Индивидуальный подход, индивидуальное обучение, дифференцированное обучение, учебный материал, педагогические формы, методы, самостоятельная работа, задание, умственные способности, интерес.

This article discusses the application of an individualized approach to the primary education process, which outlines the emergence and development of theoretical approaches to the problem of individual approaches, and the main features and strategies for implementing an individualized approach to primary education.

Key words. Individual approach, individualized learning, differentiated learning, learning material, pedagogical forms, methods, independent work, task, mental ability, interest.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy markazlari: Avstriyada o‘quvchilarning bilish faoliyatini individual rivojlantirishga asoslangan dasturlar, Germaniyada iqtidorli o‘quvchilarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Nemis maktab akademiyasi”, Angliya, Fransiya va AQSh kabi davlatlarda chuqurlashtirilgan maktab hamda tabaqalashtirilgan sinflarda o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF5712-sonli “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Farmonining qabul qilinishi va u asosida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etishni taqozo etmoqda.

Pedagogika ensiklopediyasida “Individual yondashuv metodi – (lot.individium – bo‘linmas) pedagogik jarayonni o‘quvchining individual o‘ziga xos jihatlari (mijozi, xarakteri, qobiliyati, moyilligi va boshqalar)ni e’tiborga olgan holda amalga oshirish metodi” sifatida talqin etiladi.

Ta’limni individuallashtirish – uni har bir o‘quvchining o‘z individual xususiyatlariga moslab tashkil etish demakdir. Individuallashtirish deganda, har bir o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga oladigan o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatini

boshqarish tizimi tushuniladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual tayyorgarliklarini ta’minlashda ularning layoqatlarini alohida e’tiborga olish lozim. Agar o‘quvchi o‘z tayyorgarligi davomida faol harakat qilmasa, uning layoqati tashqi ta’sir va sharoitlar natijasida o‘z-o‘zidan qobiliyatga aylanmaydi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirish yo‘llaridan biridir. Individual yondashuvning ahamiyati shundaki, o‘quvchi ta’lim jarayonining asosiy subyekti sifatida o‘qituvchi hamda o‘quv materiallari bilan muloqotga kirishadi. Bu o‘z navbatida, shaxsning ijobiy fazilatlarini aniqlash; shaxsni muntazam psixologik-pedagogik tashxislash; ta’lim-tarbiya jarayonida shaxs xususiyatlarini hisobga olish; shaxs rivojlanishini bashorat etish va boshqalarni qamrab oladi.

Individual yondashuv bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallashga bo‘lgan tabiiy moyilliklarini to‘liq e’tiborga olish imkoniyatini ta’minlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv ta’lim shakllarining eng qadimiysi bo‘lib, u qadimgi davr va o‘rta asrlarda ham keng qo‘llanilgan. Uning samarasi, ayniqsa, amaliy san’at, hunarmandchilikda ustoz-shogird ta’limi tarzida namoyon bo‘lgan.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishda uning yo‘llari, usullari, o‘qitish maromi, o‘quvchilarning o‘ziga xos farqli jihatlari, ularning rivojlanganlik darajalari va o‘qish layoqatlari alohida hisobga olinishi kerak.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etish quyidagi holatlarga ko‘ra amalga oshiriladi:

− o‘quvchilar guruhiga xos bo‘lgan emas, balki har bir o‘quvchiga xos umumiy belgilar hisobga olinadi;

− o‘quv jarayoni uchun muhim bo‘lgan o‘ziga xosliklargina ta’limni individuallashtirish jarayonida hisobga olinadi;

− aksariyat hollarda ta’limni individuallashtirish jarayonida o‘quvchilarning qobiliyatlari va salomatliklariga ham e’tibor qaratiladi;

− o‘quv jarayonini individuallashtirish qisman amalga oshiriladi va u umumiy o‘quv vaziyati bilan uyg‘unlashtiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida individual yondashuvni tatbiq etishning asosiy belgilarini ajratish muhim ahamiyatga ega. O‘quv jarayonini individuallashtirish uchun o‘quvchilarga ko‘proq mustaqil topshiriqlar berish lozim. Shu bilan bir qatorda, o‘quv jarayonini individual yondashuv asosida tashkil etilganda darsning tarkibiy tuzilishi ham o‘zgaradi. Individual yondashuvda ta’lim jarayoni oldiga bir qator maqsadlar qo‘yiladi va bu maqsadlarga erishish uchun o‘quv mashg‘uloti bir holatdan ikkinchi holatga ko‘chiriladi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishda quyidagi talablar nazarda tutiladi:

1) O‘quvchilar faoliyatini umumiy tarzda tashxislovchi, bashoratlovchi, ta’limiy, bilim beruvchi, rivojlantiruvchi, shakllantiruvchi, optimallashtiruvchi;

2) O‘quvchilarni o‘ziga xos tarzda moslashtiruvchi, tuzatuvchi va h. k.

O‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirishga oid turlicha yondashuvlarning mavjudligiga qaramasdan, mutaxassislar quyidagi talqinga ko‘proq moyillik bildiradilar:

1) Ta’limni individuallashtirish – bu o‘quv jarayonini tashkil etish, uning yo‘llari, usullari, o‘qitish maromini tanlashda o‘quvchilarning o‘ziga xosligi, ularning rivojlanganlik darajasi va o‘qish layoqatini hisobga olish demakdir.

2) O‘quv jarayonini tabaqalashtirish – o‘quv jarayonini tashkil etishda o‘quvchilarni muayyan o‘ziga xos jihatlariga ko‘ra alohida o‘qitish imkonini beruvchi guruhlarga ajratish demakdir.

O‘zbek xalqining tarixiy tajribalarini o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qitishning jamoaviy shaklidan ko‘ra o‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish ko‘p jihatdan samaralidir. Shu bilan bir qatorda, o‘quv jarayonini individuallashtirish va tabaqalashtirish bo‘yicha xorijiy pedagoglarning nazariy yondashuvlari mavjud va ular alohida ahamiyatga molik.

O‘quv jarayonini individuallashtirishning bir qator strategiyalari mavjud:

− o‘qitishga bog‘liq bo‘lmagan holda eng kam sonli o‘quvchilardan boshlab butun guruh a’zolarining o‘ziga xosliklarini hisobga olish;

− ta’limning turli variantlarini ishlab chiqish, jumladan, o‘quvchilarga muayyan mavzuni o‘rgatish maromi, maqsadlari, metodlari, o‘quv materiallari, talab etilgan o‘zlashtirilganlik darajalari kabilarni ko‘p variantlarda taqdim etish;

− ta’limda individuallashtirishni qo‘llash o‘rgatiladigan barcha o‘quv predmetlari, ularning muayyan qismlari, o‘quv kurslari, o‘quv materiallari va alohida o‘quvchilarga nisbatan amalga oshiriladi. Buning natijasida o‘quvchilarning umumiy belgilariga asoslangan holda turli guruhlarni tashkil etish mumkin.

Avstriyada o‘quvchilarning bilish faoliyatini individual rivojlantirishga asoslangan dasturlarda o‘quvchilarning o‘ziga xos layoqatlariga asoslangan holda ularning mustaqil ishlarini takomillashtirishni nazarda tutadilar. Individuallik o‘quvchilarning sinfdagi mustaqil ishlari, topshiriqlar, individuallashtirish esa, o‘quv topshirig‘i har bir o‘quvchi uchun uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida-alohida tanlanganda vujudga keladi.

Bugungi kunga kelib ta’lim jarayoniga bo‘lga yondashuvlar tubdan o‘zgarmoqda. O‘quv jarayoniga individual yondashuv o‘quvchilarning aqliy qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab amalga oshirilmoqda. Ta’lim bosqichlarining har birida o‘quv jarayonini individuallashtirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u o‘ta murakkab pedagogik jarayon sifatida tavsiflanadi. Angliya maktablarida ikki turdagi individuallashtirilgan o‘quv jarayoni amal qiladi:

− o‘quvchilarning turli guruhlariga ta’lim berish, bunda ularning layoqatiga bog‘liq holda turli darajaga ega bo‘lgan turlicha bilimlar taqdim etiladi;

− bir qator o‘quv predmetlari va ta’lim sohalaridan chuqurlashtirilgan bilim berish.

Umuman olganda, o‘quv jarayonini individuallashtirishning mazkur shakllari qulay bo‘lishi bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklarga ham ega. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga individual yondashuvni tatbiq etishda quyidagi qulayliklar mavjudligi kuzatildi: o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchining o‘ziga xosligini hisobga olish imkoniyati tug‘iladi; o‘quvchilarning o‘quv-biluv jarayoniga bo‘lgan qiziqishlari ortadi; mustaqil ishlarning ahamiyati oshadi; individual topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarning ijodkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni.

2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild./ tuzuvchilar: Jamoa. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015, 368-b.

3. Qalandarova M.K. O‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish mexanizmlari// Monografiya. – T.: Fan nashriyoti, 2019. – 97-b.

4. Anyon, Yolanda; Nicotera, Nicole; Veeh, Christopher A. Contextual Influences on the Implementation of a Schoolwide Intervention to Promote Students' Social, Emotional, and Academic Learning // CHILDREN & SCHOOLS Том: 38 Выпуск: 2 Стр.:81-88 Опубликовано: APR 2016 http://webofscience.com

Kunduz KARIMOVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY MASALALAR YORDAMIDA MATEMATIK TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bolaning yoshiga mos bo‘lgan turli pedagogik vositalar va usullar orqali amalga oshirilishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. Rivojlanish, tafakkur, mantiqiy fikrlash, boshlang‘ich sinf, matematika, murakkab masalalar.

В данной статье рассматривается, что для формирование и развитие логического мышления у школьников начальных классов осуществляется с помощью различных педагогических средств и методов, соответствующих возрасту ребенка.

Ключевые слова. Развитие, мышление, логическое мышление, начальная школа, математика, сложные вопросы.

The article shows that the formation and development of logical thinking in younger schoolchildren is carried out with the help of various pedagogical means and methods corresponding to the age of the child.

Key words. Diversity, thinking, logical thinking, beginning class, math, complex problem.

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yosh avlodni zamonga mos ravishda ilmli, yuksak salohiyatli, kuzatuvchan va yetuk qilib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bugungi kunning mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng yoshlari esa yurtimiz taqdirini hal qiluvchilardir. Bunday barkamol avlodni tarbiyalash uchun esa bolalarning ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini orttirib ularning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish muhim. O‘z fikrini aniq bayon qiluvchi, mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashda esa matematika fanining o‘rni beqiyosdir.

Matematik terminlarga inson hayotining ilk davrlaridayoq duch kelishi tabiiy holdir. Bolalar keyinchalik maktabgacha ta’lim muassasalarida matematika fanining dastlabki bilimlariga ega bo‘ladilar. Ular sanay olishadi, katta, kichik, baland, past, teng kabi terminlarni mazmunini anglaydilar va xatto kichik sonlar bilan amallar bajara olishadi.

Maktab davri bilimni rivojlantirish uchun eng asosiy davr bo‘lib, o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishining ortishi yoki pasayishi o‘qituvchiga bog‘liqdir. Agar o‘qituvchi mahoratli va bilimli bo‘lsa, o‘quvchining bilimi uning miyasida xuddi toshga o‘yib yozilgan bitik kabi muhrlanib qoladi, aksincha esa xuddi qumga yozilgan kabi darrov o‘chib ketadi.

Matematika fanlar ichida eng murakkabi va shu bilan birgalikda eng qiziqarlisi hamdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ham fanlar orasidan matematika fanini o‘zlashtirishda ancha qiynalishadi. Ular uchun ayniqsa, murakkabroq bo‘lgan masalalarni yechish jarayoni ancha qiyinchilik tug‘diradi va ko‘pgina o‘quvchilar masalalarni yechishda to‘g‘ri fikrlay olmay xatolikka yo‘l qo‘yadilar. Shakli va mazmuni o‘zgargan masalalarni

yechishda esa yuqoridagi jarayon tabiiy holdir.

Maktabda darslarning bir xil tartibda o‘tilishi o‘quvchilarni zeriktirib qo‘yadi va tabiiyki o‘quvchi darsni majburiy ravishda o‘qib o‘tkazadi. Bir xillikda berilgan misol va masalalarni ishlatish o‘quvchida yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun zarur. Lekin o‘quvchini matematika faniga bo‘lgan qiziqishi bilan ularni bu fanni sabrsizlik bilan kutishiga sabab bo‘ladigan topshiriqlar yordamida ipsiz bog‘lay olish kerak. O‘quvchilarni darsni intizorlik bilan kutishiga qanchalik erishilsagina bilim berish shunchalik osonlashadi. Bu maqsadni amalga oshirish esa faqat o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lib, darsdagi bir xillikdan chetlashgan holda o‘quvchilar uchun turli xil savol, topshiriq va masalalardan foydalanish kerak.

Masalan, quyidagicha masala boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda qiziq.

Masala. Xonzoda uyida qo‘y va tovuqlarni boqishda yordamlashadi. Qo‘y va tovuqlar boshlari soni jami 16 ta bo‘lib, oyoqlari soni 40 ta. Xonzodaning uyida nechta tovuq va nechta qo‘y bor?


Bunday masalalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida ayrim iqtidor egalarigina faqat tanlash yo‘li bilan masala yechimini topa olishadi va yechimdan foydalangan holda o‘z fikrlarini isbotlab olishadi. Bu masalalarni uyga vazifa qilib berilsa va ko‘proq vaqt o‘quvchilar muhokamasiga qo‘yilsa, ularning fikrlashlari uchun kenroq imkoniyat yaratilgan bo‘ladi.

Har qanday matematik bilimlar mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun asos bo‘la oladi. Ayniqsa, masalalar yechishga o‘rgatishda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymasdan uni har tomonlama tushuntirishga harakat qilish zarur. Avvalo, masalani hamma o‘quvchi tushunadigan qilib, ravon o‘qib berish va bolalarni ham shunga o‘rgatish kerak. Ayrim o‘quvchilar masalalarni o‘qish jarayonida ishlab, darhol masalaning javobini aytib qo‘yadi. Bolalarni dastlabki qadamlardayoq masala haqida o‘ylashga, masala shartini har tomonlama tekshirib fikrlashga o‘rgatish zarur. O‘quvchilardan har bir berilgan son nimani anglatishini, masala shartida berilganlar haqida tushunchalarga egaligini va nimani topish kerakligi haqida har safar so‘rash maqsadga muvofiq.


V.A.Onishuk, L.V.Chashko, N.M.Rozenberglar didaktik vositalar majmuini ko‘rgazmali qurollar, modellar, audiovizual va kompyuter vositalaridan iborat deb biladilar hamda o‘qitishning bu didaktik vositalari o‘quvchining ko‘rishi va eshitishi orqali ongiga ta'sir etib, ilmiy bilimlarni chuqur egallash, amaliy ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishi uchun ishonchli asos bo‘ladi deb izohlaydilar.

Biz masala yechimini topishda aynan ko‘rgazmali qurollar va modellardan foydalandik. Masala yechimini o‘quvchilar bilan birgalikda quyidagicha amaliy ravishda tushuntirish mumkin. Bunday tushuntirish usuli boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun juda oson va tabiiydir. Chunki ularning xotirasida ko‘rgan va o‘zi ishtirok etgan jarayonlar ko‘proq joylashadi.


Yechish: Masalani yechishda biz plastilin va gugurt cho‘plaridan foydalandik. Masala shartiga ko‘ra qo‘y va tovuqlarning boshlari soni 16 ta. Demak, Xonzodaning uyida boqilayotgan qo‘y va tovuqlar soni 16 ta ekan. Shuning uchun plastilin yordamida 16 ta shar yasaladi.



Masala shartiga ko‘ra, ularning oyoqlari soni 40 ta bo‘lganligi uchun 40 ta gugurt cho‘pi olinadi. Masalaga ko‘ra, ularning oyoqlari soni kamida 2 ta. Shuning uchun har bir sharga 2 tadan gugurt cho‘pini joylashtiramiz.



Bizda yana ortiqcha 8 ta gugurt cho‘pi qoladi. Biz izlayotgan jonzotlar 2 oyoqli va 4 oyoqli bo‘lganligi uchun qolgan 8 ta cho‘pni ham yana 2 tadan sharlarga joylashtiramiz.



O‘quvchilar 4 ta cho‘pli shar qo‘ylar va 2 ta cho‘pli shar tovuqlar ekanini anglab olishadi. Demak, Xonzodaning uyida 4 ta qo‘y va 12 ta tovuq bor ekan.

Amaliy tarzda yechim topgan o‘quvchilarga masalani ifoda tuzib yechishga o‘rgatish osonroq kechadi. Dastlab o‘quvchilarga “2 ta tovuqda nechta oyoq bor?”, “3 ta qo‘yda nechta oyoq bor?”, “14 ta oyoq nechta tovuqda bor?”, “12 ta oyoq nechta qo‘yda bor?” kabi savollar beriladi. Bu savollar o‘quvchilar uchun qiziq va uning javobini topish qiyin emas. Keyin o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi masalani yechishni quyidagicha savol-javoblar yordamida amalga oshirish mumkin:

1-usul.

O‘qituvchi: Qo‘yda nechta oyoq bo‘ladi?

O‘quvchilar: 4 ta.

O‘qituvchi: Tovuqda nechta oyoq bo‘ladi?

O‘quvchilar: 2 ta.

O‘qituvchi: Xonzodaning uyidagi tovuq va qo‘ylar soni nechta?

O‘quvchilar: 16 ta.

O‘qituvchi: Agar uy hayvonlarining har birida 2 tadan oyoq bo‘lsa, ulardagi oyoqlar soni nechta bo‘ladi?

O‘quvchilar: 32 ta(16·2=32).

O‘qituvchi: Masala shartida oyoqlar soni nechta?

O‘quvchilar: 40 ta.

O‘qituvchi: Demak, yana nechta oyoq yetishmadi?

O‘quvchilar: 8 ta(40-32=8).

O‘qituvchi: Bizga masala shartida Xonzodaning uyidagi tovuq va qo‘ylar borligi aytilgan edi. Biz ularning oyoqlari sonini 2 tadan qilib oldik va Xonzodaning uyida faqat tovuqlar bo‘lib qoldi. Shu sababdan oyoqlar soni kam bo‘lib qoldi.

O‘quvchilar: (o‘ylanib qolishadi)

O‘qituvchi: Yana 8 ta oyoqni 2 tadan yana nechtasiga qo‘yish mumkin?

O‘quvchilar: 4 tasiga(8:2=4).

O‘qituvchi: Xonzodaning uyidagi jonzotlarning nechtasi 4 oyoqli va nechtasi 2 oyoqli?

O‘quvchilar: 4 tasi 4 oyoqli va 12(16-4=12) tasi 2 oyoqli.

O‘qituvchi: Demak, Xonzodaning uyidagi tovuqlar va qo‘ylar nechtadan ekan?

O‘quvchilar: Xonzodaning uyidagi tovuqlar 12 ta qo‘ylar esa 4 ta ekan.

Yuqoridagi savol-javoblarni umumlashtirib yechim yozamiz:

16·2=32

40-32=8

8:2=4(ta qo‘y)

16-4=12(ta tovuq)

1-usulda Xonzodaning uyidagi jonzotlarning hammasi tovuqlar bo‘lsa degan faraz bilan yechim izlashga kirishilgan bo‘lsa, 2-usulda uydagi jonzotlarning hammasi qo‘ylar bo‘lsin deb faraz qilinadi.

2-usul.

O‘qituvchi: Qo‘yda nechta oyoq bo‘ladi?

O‘quvchilar: 4 ta.

O‘qituvchi: Tovuqda nechta oyoq bo‘ladi?

O‘quvchilar: 2 ta.

O‘qituvchi: Xonzodaning uyidagi tovuq va qo‘ylar soni qancha?

O‘quvchilar: 16 ta.

O‘qituvchi: Agar uy hayvonlarining har birida 4 tadan oyoq bo‘lsa, ulardagi oyoqlar soni nechta bo‘ladi?

O‘quvchilar: 64 ta(16·4=64).

O‘qituvchi: Masala shartida oyoqlar soni nechta?

O‘quvchilar: 40 ta.

O‘qituvchi: Oyoqlar soni masala shartidagidan nechta ko‘p?

O‘quvchilar: 24 ta(64-40=24).

O‘qituvchi: Bizga masala shartida Xonzodaning uyidagi tovuq va qo‘ylar borligi aytilgan edi. Biz ularning oyoqlari sonini 4 tadan qilib oldik va Xonzodaning uyida faqat qo‘ylar bor bo‘ldi. Shu sababdan oyoqlar soni juda ko‘p bo‘lib qoldi.

O‘quvchilar: (o‘quvchilar fikr bildirishlari mumkin).

O‘qituvchi: Endi 24 ta oyoqni 2 tadan bir nechtasidan olishimiz kerak. Xo‘sh o‘quvchilar, nechtasidan olamiz?

O‘quvchilar: 12 tasidan olamiz(24:2=12).

O‘qituvchi: To‘g‘ri! Xonzodaning uyidagi jonzotlarning nechtasi 4 oyoqli va nechtasi 2 oyoqli?

O‘quvchilar: 4 tasi(16-12=4) 4 oyoqli va 12 tasi 2 oyoqli.

O‘qituvchi: Demak, Xonzodaning uyidagi tovuqlar va qo‘ylar nechtadan ekan?

O‘quvchilar: Xonzodaning uyidagi tovuqlar 12 ta, esa qo‘ylar 4 ta ekan.

16·4=64

64-40=24

24:2=12(ta tovuq)

16-12=4(ta qo‘y)

Masalalarning ko‘rgazmali va amaliy yechilishining birga olib borilishi o‘quvchilarni masalaga qanday yondashishga va masala yechimini qay tartibda izlash ko‘nikmasini orttirish bilan birgalikda, ularni masalalarni mantiqan fikrlab yechishga o‘rgatadi. Tajriba-sinov ishlari davomida bunday masalalar o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro fikr almashish natijasida do‘stlikning mustahkamlanishi va fikrini bayon qilishga qiynaladigan ayrim o‘quvchilarning muloqotga kirishishi ham aniqlandi.

Masalani yechimini yuqoridagi kabi yechish orqali analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlashtirish, tizimlashtirish kabi tafakkur amallari asosida bajarilishiga

guvoh bo‘lamiz. O‘quvchilar masalani diqqat bilan o‘qish orqali masala shartida berilgan sonlar nimani bildirishini anglashadi, berilgan terminlar ma’nosini to‘la tushunishadi, masala yechimini topishda qanday ketma-ketlikda oshirishni biladilar va bulardan to‘g‘ri xulosa chiqargan holda natijaga erishadilar.

O‘quvchilar bunday masalalar ma’nosini tushungan holda ularning qanday usullarda yechilishini taqqoslay olishlari orqali ko‘zlangan yechimga erishish osonlashadi. Masalalardagi belgi va xususiyatlarni umumlashtirish bilan fikrlar birlashtiriladi.

Yuqorida keltirilgan tafakkur amallarining bajarilishi esa o‘quvchilardagi matematik tafakkur shakllanishi uchun bevosita xizmat qiladi. O‘quvchilarda fikrlash qobiliyati rivojlanadi va mazmundor bo‘ladi, masala yechishda har xil g‘oyalar paydo bo‘ladi. Fikrlash doiralari kengayadi, bilim saviyalari oshadi va ijodiy izlanishga moyillik kuzatilib, matematik tafakkur shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M.. Matematika // 1-sinf uchun darslik. –T.: Turon-Iqbol, 2017.

2. Abdurahmonova N., O‘rinboyeva L. Matematika // 2-sinf uchun darslik. –T.: Yangiyo‘l Poligraf servis, 2018.

3. Burxonov S., Xudoyorov O‘., Norqulova Q., Ruziqulova N., Goibova L. Matematika // 3-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2019.

4. Bikbayeva N. U., Yangabayeva E., Girfanova K. M. Matematika // 4-sinf uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2017.

5. Karimova K.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematik tafakkurini shakllantirishda mantiqiy masalalar tizimi. Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘. №3, 117-b, 2020.

6. Karimova K.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ikki noma’lumli tenglamalar sistemasi bilan yechiladigan masalalarni mantiqan fikrlab yechishga o‘rgatish. Наука образование в современном мире: вызовы XXI века // Nur-Sultan, 2021.

7. Онишука В.А. – Дидактика современной школы// Под ред. Академика – Киев, – Рядянъка школа.– С. 140-174.

Nigora AKBAROVA,
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

O'RTA TIBBIY TA'LIMNI KOMPETENTLIKKA ASOSLANGAN YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'rta tibbiy xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentli yondashuvdan foydalanishning ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, yuqori malakali tibbiyot xodimlarini tayyorlashda ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalari mazmunini zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Professional ta'lim, raqobatbardosh, innovatsiya, kasbiy kompetensiya, mahorat, kommunikativ, protsessual, intellektual, loyihaviy, individual.

В данной статье изложена важность использования компетентного подхода при подготовке среднего медицинского персонала к профессиональной деятельности. Освещены также вопросы разработки и внедрения в практику содержания их личностных и профессиональных компетенций на основе современных подходов к подготовке высококвалифицированных медицинских работников.

Ключевые слова. Профессиональное образование, конкурентность, инновация, профессиональная компетентность, мастерство, коммуникативное, процедурное, интеллектуальное, проектное, индивидуальное.

This article outlines the importance of using a competent approach in the preparation of secondary medical personnel for professional activity. The issues of developing and putting into practice the content of their personal and professional competencies on the basis of modern approaches to the training of highly qualified medical workers are also highlighted.

Key words. Professional education, competitive, innovative, professional competence, skill, communicative, procedural, intellectual, project, individual.

Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi davlatimiz siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ta'lim tizimidagi barcha islohotlar, barcha ta'lim yo'nalishlari kabi, tibbiyot xodimlarini tayyorlash sohasiga ham aloqadordir. Xalq sog'ligi mamlakatning rivojini ta'minlab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimiz Hukumati tomonidan xalq salomatligini yaxshilash borasida qonunlar, maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda va ular izchil amaliyotga tatbiq etilmoqda. Islohotlardan ko'zda tutilgan eng asosiy maqsad tibbiyot xodimlari va tibbiyot hamshiralarining bilim darajalarini oshirish, jahon andozalariga javob beradigan, raqobatbardosh, ruhan va jismonan sog'lom yetuk kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Rejalashtirilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar kasb-hunar ta'limini rivojlantirish uchun shaxs, davlat va jamiyat manfaatlari asosida huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy-uslubiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Boshlang'ich va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi sohasidagi davlat siyosatining istiqbolli vazifalaridan biri – malakali

ishchilar va o‘rta darajadagi mutaxassislarni tayyorlash tizimi, hajmi va sifatidagi kamchiliklarni bartaraf etish, yangi iqtisodiyot tarmoqlarida raqobatbardosh korxonalar talablariga javob berishini ta’minlashdan iborat.

Professional ta’lim tizimida ro‘y berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni quyidagi sabablar asosida kelib chiqqanligini aytishimiz mumkin:

– mehnat bozoridagi o‘zgarishlar;

– malakali kadrlarga talabning ortishi;


– ish beruvchilarning salohiyatli xodimlarning shaxsiy va kasbiy kompetentligi sifatiga bo‘lgan talablarning ortishi;

– raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida milliy iqtisodiyotni tizimli modernizatsiya qilish.

Bugungi kunda ta’lim tizimi uchun ko‘plab muhim muammolarni hal etish kompetentli yondashuvni amalga oshirish bilan bog‘liq. Davlat miqyosida kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, kompetentli yondashuvga imkoniyatlar va cheklovlar ham mavjud. Uni amalga oshirishdagi cheklovlardan kompetentlikka yo‘naltirilgan kasbiy ta’limga o‘tishda jamiyat rivojlanishi uchun kerakli yangiliklar, innovatsiyalarni ajratib olish kerak.

Jahon ta’lim amaliyotida “kompetentlik” tushunchasi ta’limning intellektual va mahorat komponentini birlashtiruvchi tushuncha sifatida e’tirof etiladi. “Kompetentlik” tushunchasi asosida ta’lim mazmunini talqin etish mafkurasi yotadi, u “natijadan” shakllantiriladi. Biz tibbiyot ta’lim muassasasi bitiruvchisining kompetentligi deganda, asosiy (kasbiy), umumkasbiy va kasbiy kompetentliklardan iborat majmuani tushunamiz.



Rasm. Tibbiyot ta’lim muassasasi bitiruvchisining kompetentligi majmuasi.

Asosiy “kompetentlik” faoliyatning keng sohalari bilan bog‘liq ko‘nikma va bilimlarni o‘z ichiga oladi. Asosiy kompetentliklarni birlashtirib, “ishlash qobiliyati” deb atash mumkin, u maqsadga yo‘naltirilganlik, baholash, harakat va refleksiyani anglatadi.

“Asosiy kompetentliklar” tushunchasi asta-sekin yangi avlod o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi standartlarida o‘z aksini topadi. Shu bilan birga, asosiy kompetentliklarga nafaqat kasbiy, umumkasbiy kompetentliklarni kiritish mumkin, balki o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasasidagi ta’lim jarayonida asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda shakllantiriladigan bilimlarni ham kiritish mumkin.

Umumkasbiy kompetentliklar – bu bitiruvchining kasbiy mobilligini belgilovchi tayanch bilim va ko‘nikmalardir.

Umumkasbiy kompetentliklar shakllangan o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilarida o‘z kuchiga ishonish, jamoa bilan ishlay olish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlik, o‘zgaruvchan ishlab chiqarish sharoitida o‘z bilimlaridan samarali foydalanish, yangi ishlab chiqarish sharoitlariga tez moslashish, qiyinchiliklarga qarshi turish ko‘nikmalari shakllangan bo‘ladi.

Asosiy (kasbiy) va umumkasbiy kompetentliklarni shakllantirishda ta’lim standartlari talablarini amalga oshirish jarayoni kollej bitiruvchisining har tomonlama harakatchanligini oshiradi. Bunda o‘rta darajali mutaxassislarni tayyorlashda umumkasbiy fanlarni o‘rganishda asosiy kompetentlikni egallash maxsus fanlarni ushbu maqsadlarga – ta’limning mazmuni va tashkiliy shakllari darajasida fanlararo aloqalar tizimi orqali yo‘naltirishga olib keladi.

Zamonaviy amaliyotda “kasbiy kompetentlik” atamasi belgilangan standartlarga muvofiq vazifalarni bajarish uchun xodimning qobiliyatini belgilaydi. Kasbiy kompetentlik – bu ishni standartlar me’yorlariga muvofiq bajara olish qobiliyatidir. Demak, kasbiy kompetentlik – bu xodimning lavozim talablariga mos ravishda ish bajara olish qobiliyatidir, lavozim talablari – bu tashkilot yoki sanoatda qabul qilingan standartlarni amalga oshirish topshiriqlaridir. Kompetentli yondashuvni amaliyotga joriy etish masalasini ko‘rib chiqishda hozirgi kunda uni ommaviy tatbiq etishga tayyorgarlik masalasini ham hisobga olish zarur.

Shunday qilib, tibbiy ta’lim tizimiga kompetentli yondashuvni joriy qilish istiqbollari innovatsion loyihaviy qarorlar, strategiyalar va taktikalar sifati bilan bog‘liq. Ko‘rib chiqilayotgan yangilikning samaradorligi yakuniy natijada, resurs va kadrlar bazasining rivojlanishi bilan aniqlanadi. Shuningdek, yangi standartlar va namunaviy ta’lim dasturlari sinov dasturlar bo‘lib, keyingi o‘zgarishlar uchun yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailova Zukhra, Ruzimurot Choriyev and Aynisa Musurmanova, Mahfuza Aripjanova. “Methods of training of teachers of university on advanced training courses”. Journal of Critical Reviews 7.5 (2020): 413-416.

2. Narbayeva T.K, Musurmanova A. “Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family”. Annals of the Romanian Society for Ceff Biology 25.1 (2021): 6485-6496

3. Ismailova Z.K, Musurmanova A, Shomurotova N.N, Kholiqova N.A “Methods of training of teachers of technical university on advanced training courses”. Annals of the Romanian Society for Ceff Biology 25.2 (2021): 2959-2970

Lola NAMAZBAYEVA,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari
ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH USUL VA TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarga bolalarni tabiat bilan tanishtirish texnologiyasi va usullari haqida ma’lumot berilgan. Bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish uchun bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglar oldida turgan vazifalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Jonli va jonsiz tabiat, atrof-olam, tarbiyachi-pedagoglar, ko‘nikma va malakalar, tirik organizm, ko‘rgazmali, amaliy, og‘zaki, kuzatish, bilish darajasi, portfolio, texnologiya.

В статье представлена информация о технологии и способах приобщения детей к природе для будущих воспитателей. Описаны задачи, которые стоят перед будущими педагогами по знакомству детей с миром.

Ключевые слова. Живая и неживая природа, окружающая среда, воспитатель - педагог, навыки и умения, живой организм, визуальное, практическое, устное, наблюдение, уровень знаний, портфолио, технология.

The article provides information about the technology and methods of introducing children to nature for future educators. The tasks facing future educators to acquaint children with the world are described.

Key words. Animate and inanimate nature, environment, educators, skills and abilities, living organism, visual, practical, oral, observation, level of knowledge, portfolio, technology.

Bola sezgi organlari yordamida tabiatni bevosita idrok etadi. Shuning uchun uning oldida har xil turdagi shakl, o‘lcham, rang, tovush, hid, harakatlarda namoyon bo‘ladi. Bu uning hissiy rivojlanishini shakllantiradi va unga tabiat haqidagi dastlabki aniq tasavvurlarni, aloqalarni shakllantirishga, ko‘rish, tabiat hodisalarining munosabatlarini va bog‘liqligini (vizualdan mantiqiy fikrlashga o‘tish) tushunishga imkon beradi.

Tabiatga g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish, kerak bo‘lganda, yaxshi ishlar va xatti-harakatlarning namoyon bo‘lishini nazarda tutadi va buning uchun bolalar o‘simliklarga qanday g‘amxo‘rlik qilishni, ularning qulay o‘sishi va rivojlanishi uchun qanday sharoit yaratishni bilishlari kerak. Tabiatga nisbatan bunday munosabatni shakllantirish uchun avvalo, tirik organizm haqidagi bilimlarni egallashi, uni jonsiz tabiat obyektlaridan ajrata bilish alohida ahamiyatga ega.

Kichik guruhda bolalar tabiatning alohida obyektlari: tabiiy material (qum, suv, qor, muz) va uning xususiyatlari, o‘simliklarning tuzilishi (poyasi, barglari) haqida bilimlarni, ya’ni o‘ziga xos xususiyatlarini (poya, barg, gul) va ularning namlikka bo‘lgan ehtiyojini; hayvonlarning ko‘rinishi (baliqlar, qushlar, sutemizuvchilar) va ularning harakatlanish usullari va oziqlanishi bilan tanishtirish lozim. Bolalar ba’zi hayvonlarning bolalari bilan tanishadilar. Fasllarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida birlamchi bilimlar beriladi.

O‘rta guruhda bolalarning jonsiz tabiat obyektlarining xossalari va sifatlari haqidagi tasavvurlari kengayadi va oydinlashadi (masalan, suv – bu shaffof suyuqlik, ba’zi narsalar suvda suzadi, boshqalari cho‘kib ketadi; qor va suv xususiyatlari havo haroratiga qarab o‘zgaradi).

Katta guruhda asosiy vazifa bolalarda tabiatda mavjud bo‘lgan aloqalar va munosabatlar haqida bilimlarni shakllantirishdir: yashash sharoitlari va holatiga qarab o‘simliklar va hayvonlarning ehtiyojlari, ayrim organlar va ularning funksiyalari o‘rtasidagi bog‘liqliklar to‘g‘risida.

Shunday qilib, maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalar tabiat haqidagi bilimlarning boshlang‘ich tizimini egallaydilar, bu aqliy faoliyatni rivojlantirishga va tabiatga nisbatan barqaror ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Vazifalarning murakkabligi va xilma-xilligi tarbiyachi-pedagogdan bolalar bilan ishlashning turli usullari va shakllaridan foydalana olishini talab qiladi, bu bir qator talablar, turli yosh guruhlaridagi xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari: mashg‘ulotlar, ekskursiyalar, sayrlar, tabiat burchagida ish faoliyati, yer maydonchasidagi ish faoliyati.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari: ko‘rgazmali, amaliy, og‘zaki.

1. Ko‘rgazmali usul va uning turlari.

Ko‘rgazmali usulga quyidagilar kiradi: kuzatish, tasviriy materiallar, texnik vositalar yoki o‘quv ekrani. Kuzatish – bu atrofdagi dunyo obyektlari va hodisalarini maqsadli, tizimli idrok etish. Kuzatish atrof – olam predmetlari va hodisalarini maqsadga muvofiq, rejali idrok etishdir. Kuzatish – murakkab bilish faoliyati bo‘lib, unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Kuzatilayotgan hodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi va malakalari muhim ahamiyatga ega. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o‘stirishda katta ahamiyatga ega. Tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan, bo‘lajak tarbiyachi-pedagog bir qator vazifalarni hal etadi: bolalarda tabiat haqidagi bilimni shakllantiradi, kuzatishni o‘rgatadi, kuzatuvchanlikni o‘stiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi.

Predmet va hodisalarning xususiyati va sifatlari haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan qisqa muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar qismlarning shakli, rangi katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, sathining xarakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri, ular chiqadigan tovushlarni ham o‘rganadigan va h.k.

O‘simlik va hayvonlarning o‘sishi va rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar haqidagi bilimlarning yoritilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi – uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi, bunda bolalarga obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashga to‘g‘ri keladi.

Bolalarning bilish darajasiga qarab, bo‘lajak tarbiyachi-pedagog har xil turdagi kuzatuvlardan foydalanadi. Kuzatishlar o‘simliklarni va hayvonlarni, ob-havo bilan, kattalarning tabiatdagi ishlari bilan tanishganda, mashg‘ulot davomida, ekskursiyalarda, sayrlarda va tabiat burchagida tashkil etiladi.

Tarbiyachi bolalarni xulosa chiqarishlariga ko‘maklashadi. Kuzatishlarda tarqatma materiallardan foydalanish bolalarning yuqori faoliyatini ta’minlaydi. Ko‘rgazmali metodlar guruhiga bolalar bilan birga rasmlarni ko‘rish, diapozitiv va kinofilmlarni namoyish

qilish ham kiradi. Bu usullar foydalanish xilma-xil vazifalarni hal qilishga, tasavvurlarni aniqash va bilimlarini tizimlashtirish, umumlashtirish, estetik idrokni tarkib toptirishga yordam beradi.

Rasmlar tabiat hodisalarini batafsilroq ko‘rish, diqqatni uzoq muddat shu predmetga qaratish imkonini beradi, buni esa ko‘pincha tabiatni bevosita kuzatishda tabiatning dinamikligi va o‘zgaruvchanligi tufayli amalga oshirilishining imkoni bo‘lmaydi. Bundan tashqari, ko‘p hodisalarni bevosita kuzatish mumkin emas. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta’limiy, voqeaband, predmetli, shuningdek, badiiy rasmlar orqali tanitishadi.

2. Amaliy usul va uning turlari.

Tabiatning oddiy hodisa va tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o‘tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma-xil o‘yinlardan keng foydalaniladi. Bu o‘yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o‘zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o‘yinlardan keng foydalaniladi.

Didaktik o‘yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o‘sishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalarni mavjud bilimlaridan foydalanishga o‘rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug‘atni boyitadi, bolalarda birgalikda o‘ynash ko‘nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stolbosma va og‘zaki didaktik o‘yinlardan foydalaniladi.

Predmetli o‘yinlar – barglar, urug‘lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o‘ynaladigan “Ajoyib qopcha”, “Mevalar va ildizlar”, “Bu butoqda kimning bolakaylari” va shu kabi o‘yinlardir. Bu o‘yinlar yordamida bolalar faol muloqotda bo‘ladigan predmetlarning xususiyat hamda belgilari haqidagi tasavvurlari boyitiladi. Predmetli o‘yinlar, ayniqsa, kichik va o‘rta yosh guruhlarda keng qo‘llaniladi. Bu o‘yinlar bolalarga tabiat jismlarining o‘zidan foydalanish, ularni qiyoslash, hamda ularda sodir bo‘ladigan ayrim tashqi belgilaridagi o‘zgarishlarni qayd qilish imkonini beradi. Predmetli o‘yinlar barcha yoshdagi guruhlarning biroz murakkablashtirilgan bilimlarini kengaytirish, tafakkurlarini kuchaytirish hamda harakatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Stolbosma o‘yinlari – “Yilning to‘rt fasli”, “Kichkintoylar”, “Mevalar”, “O‘simliklar”, “Barglarni terib ol”, “Juft rasmlar” va shu kabilardir. Bu o‘yinlar bolalarning o‘simliklar, hayvonlar jonsiz tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini o‘zlashtirish, aytilayotgan so‘zga qarab predmetni tasvirlash ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O‘yin so‘z bilan birgalikda olib boriladi, so‘z rasm idrok etilishidan oldin keladi yoki o‘yin bilan uyg‘unlashib ketadi. Bunday o‘yinlar 5-6 ta bolalar bilan o‘tkaziladi (guruhlashtirilsa bo‘ladi).

Og‘zaki o‘yinlar (“U nima uchun uchadi, yuguradi, sakraydi”, “Suvda, havoda, yerda”, “Kerak emas” va shu kabilar) hech qanday jihoz talab qilinmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetlarning vazifalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni mustahkamlash, umumlashtirish va bir tizimga solish maqsadida o‘ynaladi. Bu o‘yinlar diqqatni, zehnni, qabul qilish tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi.

Harakatli o‘yinlar – hayvonlarning xatti-harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog‘liq bo‘lib, ba’zilarida jonsiz tabiat hodisalarini aks ettiradi. Bu “Ona tovuq va jo‘jalar”, “Mushuk va sichqonlar”, “Quyosh va yomg‘ir” va shu kabi o‘yinlardir.

Ijodiy o‘yinlarda bolalar mashg‘ulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan taassurotlarni aks ettiradilar (parrandachilik fabrikasi, issiqxona va shu kabilardagi ishlar), ular haqidagi bilimlarni egallaydilar, bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanib, kattalarning tabiatdagi mehnatlarining ahamiyatini anglab oladilar.

Bolalar mehnati. Bolalarning tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat qilish jarayonida bolalarda tabiatga bo‘lgan munosabatlar shakllanadi. Tabiatdagi mehnat bolalarda berilgan topshiriqqa mas’uliyat bilan yondashishni tarbiyalaydi. Biroq buning uchun bolalar zarur mehnat malakalarini egallab olgan bo‘lishlari, o‘z mehnatlarining ahamiyatini tushunishlari lozim. Tabiatdagi mehnat maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor tarbiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Tarbiyachi-pedagog bolalarni mehnat orqali maqsad va natijalarga erishish, predmetlarni sensor belgilarini nazarda tutishga o‘rgatadi.

Bolalar tajribasi va eksperimenti. Bolalar tajriba qilishni yaxshi ko‘radilar. Buning sababi shundaki, boshlang‘ich fikrlash doirasi ularda ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Tajriba va eksperiment uslubini qo‘llashning asosiy afzalligi shundaki, bolalar o‘rganilayotgan obyektning turli jihatlari, uning boshqa obyektlar bilan atrof-muhit bilan aloqalari to‘g‘risida haqiqiy g‘oyalar oladilar; bolaning xotirasi boyitiladi, uning fikrlash jarayonlari faollashadi; nutq rivojlanadi; aqliy ko‘nikmalar jamg‘armasi rivojlanib, uni amalda qo‘llay oladi; bolaning hissiy sohasi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi, mehnat qobiliyatlari shakllanadi, jismoniy faollikning umumiy darajasining oshishi tufayli sog‘lig‘i mustahkamlanadi; maktabgacha yoshdagi bola yo‘naltirilgan tadqiqot (izlash) faoliyati orqali atrofdagi olamni o‘rganadi.

3. Og‘zaki usul. Suhbat.

Og‘zaki usullardan foydalanish bir qancha vazifalarni hal etadi. Tabiatga oid hikoyaning qimmati shu bilan aniqlanadiki, u ma’lum ta’limiy vazifalarni hal etar ekan, bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi va ma’lum yoshdagi guruh bolalariga mo‘ljallanadi. Uning badiiy adabiyotni o‘qishga nisbatan afzalligi mana shundandir. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalarning nutqini eshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida uni anglab olishi og‘zaki tasnif asosida yetarlicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi himoyasidagi voqea-hodisalarning bir-biriga bog‘liqligi, hamda munosabatlarni aniqlash va tushunishi, hikoya mazmunidagi yangiliklarni o‘zining avvalgi bilim bilan qiyoslab ko‘rishi lozim.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bo‘lajak tarbiyachi-pedagogning hikoyasidan, tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o‘qishdan, suhbatdan foydalaniladi. Og‘zaki uslub yordamida kuzatish va tabiatdagi mehnat jarayonida olgan bilimlari aniqlashtiriladi, to‘ldiriladi, umumlashtiriladi, hamda tizimga solinadi.

Tabiat bilan tanishish uchun qo‘llaniladigan texnologiyalar.

Maktabgacha ta’limdagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta’limning davlat standartlarini joriy etishga qaratilgan bo‘lib, ular pedagogika amaliyotida qo‘llaniladigan yangi vositalar, shakllar, usullarni aniqlaydi.

“Axborot” asridagi AKT texnologiyalari yaxshi o‘rganilgan va bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida qo‘llaniladi:

– mashg‘ulotlarlarda, guruhlarni bezash uchun illyustrativ materiallarni, stendlarni tanlash.

– mashg‘ulotlar uchun qo‘shimcha manbalarni tanlash (taqdimotlar, multfilmlar va boshqalar).

– tajriba almashish (bolalar bog‘chasi, internetda yaratilgan saytlar), davriy nashrlar, xorijdagi boshqa pedagoglarning ishlanmalari bilan tanishish.

– interaktiv o‘yinlar.

Loyiha faoliyat texnologiyasi.

Bu texnologiya bir qator afzalliklarga ega: jonli va jonsiz tabiatning har qanday mavzusini chuqur o‘rganish va amaliy natijalarga erishishdir. Loyihaviy faoliyat usuli, ayniqsa, katta yoshdagi bolalar bilan ishlashda muvaffaqiyatli amalga oshiriladi va yaxshi natija beradi. Bu bosqich yanada e’tiborni, kuzatishni, tahlil qilishni boshlash qobiliyati, sintezni, o‘zini-o‘zi qadrlash, shuningdek, hamkorlikdagi faoliyatga intilish bilan tavsiflanadi.

Atrof-olam bilan tanishish uchun loyihalarning tasnifi:

“O‘yinli” – bolalar mashg‘uloti, guruh faoliyatida qatnashish (o‘yinlar, xalq raqslari, dramatizatsiya, har xil o‘yin-kulgilar);

“Ekskursiyaviy” – atrofdagi tabiat va ijtimoiy hayot bilan bog‘liq muammolarni o‘rganishga yo‘naltirilgan.

“Tavsifiy”, bu shunday tasnifki, bunda bolalar o‘z taassurotlari va his-tuyg‘ularini og‘zaki, badiiy, imo-ishorali holatda yetkazishni o‘rganadilar;

“Qurish-yasash”, muayyan foydali mahsulotni yaratishga qaratilgan bo‘lib, masalan, qushlar uyini yig‘ish, yopiq figura shaklida gullar ekilgan kichik hajmdagi bog‘ yaratish.

O‘yin texnologiyasi. O‘yin pedagogik texnologiyalari tushunchasi turli xil pedagogik o‘yinlar shaklida turli xil pedagogik o‘yinlar tashkil etishning keng qamrovli usullarini o‘z ichiga oladi, ular umuman ochkolar va mos keladigan o‘yindan farq qiladi. Bu o‘z navbatida, oqlangan pedagogik natijada u aniq ajratilgan va ma’lum bir o‘quv yo'nalishi bilan tavsiflanadi.

Texnologik yondashuv, yangi pedagogik texnologiyalar bolaning yutuqlarini yuzaga chiqaradi va ularning kelgusida maktabda muvaffaqiyatli o‘qishini yanada kafolatlaydi. To‘siqlarni yengan holda, har qanday bo‘lajak tarbiyachi-pedagog yangi texnologiya yaratuvchisi bo‘la oladi. Ijodkorliksiz texnologiyani yaratish mumkin emas. Texnologik darajada ishlashni o‘rgangan bo‘lajak tarbiyachi-pedagog uchun uning rivojlanayotgan holatidagi bilish jarayoni har doim asosiy o‘rinda bo‘ladi. Hamma narsa o‘zimizning qo‘limizda, shuning uchun imkoniyatlarni qo‘ldan boy bermasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T., G‘afurov Z. Tabiatni e’zozlash umumbashariy muammo – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 135-b.

2. O‘zing yasa (matematika, tabiiy fanlar va boshqa o‘quv markazlari uchun didaktik va o‘yin materiallari) – T.: 2011. – 206-b.

3. Hasanboyeva O. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2016. – 128-b.

4. Sodiqova Sh. A., Rasulxo‘jayeva M. A. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi. – 2012.

5. Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o‘qitish metodikasi – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – 2005.

6. Каменева Л.А., Кондратева Н.Н., Маневсева Л.М., Терентева Е.Ф. Под. ред., Л.М. Маренсова, П.Г. Samorukova. Мир природы и ребенок (Методика экологического воспитания дошкольников): Учеб. Пособие для педагогических училищ по специальности “Дошкольное образование” / — СПб, 1998.

Dilafruz KENJABOYEVA,
Termiz davlat universiteti, “Fakultetlararo xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARIDA DEONTOLOGIYA VA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchisining deontologiya va kasbiy kompetentligi mohiyati, o‘qituvchining majburiyati, burchi va kasbiy kompetentligi haqida, jamiyatda o‘qituvchilarning bugungi vazifalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Deontologiya, burch, vazifa, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, xulq normalari.

Данная статья посвещена к проблеме педагогическая деонтологии, обьязанностиям, долг и профессиональной конпетенции современного учителя и его сегоднишней задачи в обществе.

Ключевые слова. Педогогическая деонтология, объязанность, долг, компетентнось, нормы поведения, компетенция.

The article is devoted to the problem of pedagogical deontology, responsibility, duty and professional competence of modern teachers and their duties in the society.

Key words. Pedagogical deontology, responsibility duty, social competence, the standart of bechavior, competence.

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi davrida jahon ta’siri yo‘nalishi bo‘yicha ta’limning yangi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida o‘qituvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish milliy tadbirlar rejasiga kiritilgan. Oliy ta’lim sifatini yaxshilashni asosiy yo‘naltiruvchi nuqtasi sifatida oliy maktab o‘quvchilari funksional savodxonlikni rivojlantirish ularning jamiyatda faol ishlashi, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, o‘z o‘rnini takomillashtirish hamda o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarish qobiliyatlarini talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchi kadrlarning qiyofasi, axloqiy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo‘yilmoqda. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida malakali o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Mamlakatimizda fuqarolarning ma’naviy qiyofasini belgilovchi fazilatlar vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g‘urur, mehnatsevarlik, baynalminalchilik kabilar o‘qituvchi orqali talabalarga singdiriladi. Shuning uchun bugungi oliy ta’lim o‘qituvchisi o‘zi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni puxta o‘zlashtirib olishi, amaliy faoliyatda shaxsan ibrat bo‘lishi lozim. Bizga ma’lumki, 2020-2021-yillar butun dunyo xalqi uchun tashvishli og‘ir yil bo‘ldi. Jahon xalqi COVID-19 infeksiyasi bilan kasallanib o‘zlarining yaqin kishilaridan judo bo‘lishadi. Dunyoda iqtisodiy va boshqa sohalarda katta yo‘qotishlar bo‘ldi. O‘zbekistonda ham bu kasallik tufayli fuqarolar uchun sinovlar bo‘ldi. Tibbiyot xodimlari o‘zlarining burchlarini, majburiyatlarini fidoiylik bilan bajarib kelmoqda. Bugungi kunda respublikamizda tibbiyot xodimlari singari ko‘plab pedagoglar, professor o‘qituvchilar o‘z kasblarini sadoqatlilik, mas’uliyatlilik bilan yuqori

kompetentlilik darajasida bajarmoqdalar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, men ko‘p yillik xorijiy til o‘qituvchisi sifatida o‘z burchimni, bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish haqida mulohazalar yuritmoqchiman.

Bugungi bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining deontologik va kasbiy kompetentligini jahon standarti, O‘zbekiston ta’lim standarti talablariga javob beradimi? Ushbu savolga javob berish uchun men avvalambor, “deontologiya” “kompetentlik”, so‘zlarining izohli lug‘atlarda bildirilgan ma’nosi haqida tushuntirmoqchiman. “Deontologiya”[1] so‘zi deontos – “sharq” burch, logos - “ta’limot” degan ma’noni anglatadi. Ingliz faylasufi Dje Bentam mazkur tushunchani ilmiy jihatdan asoslagan.

Uning “deontology of sience of morally” 2 asarida deontologiya ya’ni inson axloqi, etikasi haqidagi ilmiy fikrlar bayon qilingan. Keyinchalik Dje Bentam tomonidan tavsiya qilingan “deontologiya” fanidagi g‘oyalar nemis faylasufi I.Kantp tomonidan rivojlantirildi. Bugungi kunda “deontologiya” inson tomonidan talab darajasida huquq normalarini va qoidalarini o‘rgatuvchi fandir. Deontologiya so‘zi kasbiy etikada keng qo‘llanilib har bir kasb doirasida kasbning odob, huquq, qonunchilik, pedagog va boshqa kasblarni burch, odob-axloq normalarini ifodalaydi. Ho‘sh bugungi xorijiy til o‘qituvchilari o‘z burchlarini odob-axloq normalarini mukammal amalda qo‘llay olayaptilarmi?

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan 2012-yil 10-dekabrda PF-1875 farmoni asosida O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishda yanada takomillashtirish vazifasi qo‘yildi.

Shu qaror asosida bugungi kunda, xorijiy til o‘qituvchilari o‘z shogirdlariga kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni amalga oshirishda fidokorlik bilan o‘z faoliyatini davom ettirmoqdalar. Demak bugungi va ertangi xorijiy til o‘qituvchilari kasbiy deontologik va kasbiy kompetentlik sirlarini egallashga harakat qiladi. Bugungi pedagoglarga va bo‘lajak o‘qituvchilar faoliyatiga bir qator O‘zbekiston professorlar pedagogik kasbning ustalari M.Ochilov, X.Ibragimov, D.Ro‘ziyeva, B.Xodjayev, O.Musurmonova, A.Kenjaboyev, M.Bozorova va boshqalar o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etilishi zarur bo‘lgan sifatlar xususida o‘z fikrlarini bayon qilganlar.

Jumladan, professor O.Musurmonova pedagogik mulohazalarini shunday ifodalaydi:

A) o‘qituvchilik kasbining asosiy burchi va uning mazmuniga e’tibor berish:

B) qo‘yilgan talablarning bajarilishida pedagogik xulq- atvor muhim ekanligini inobatga olish. Professor M.Ochilov o‘qituvchi burchi to‘g‘risida o‘z fikrini quyidagicha ifodalaydi: “O‘qituvchi yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish sohasidan o‘z burchini zo‘rlik tufayli yuklatilgan majburiyat emas, balki o‘z hayotining ma’nosi, ishonch va vijdon da’vati deb, hisoblaydi. Fuqorolik burchini his etmoq, butun xalq va O‘zbekiston davlatining buyuk kelajagi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni taqozo etadi”[2]. Tegishli ma’lumotli, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Mening nazarimda bo‘lajak zamonaviy xorijiy til o‘qituvchilar qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘lishi zarur.

1. O‘qituvchi jamiyat hayotida ro‘y beradigan o‘zgarishlar olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglashi, bu borada o‘quvchilarga xorijiy tillarda to‘g‘ri,

[1] Bentham J Deontology Bentham Deontology together with atable of the springs of Oction and the Article of Utilirianism, - Oxford Clarendon Press: 1983/p 124.

[2] Ochilov M. “Muallim qalb me’mori” –T.: O‘qituvchi nashriyoti 2001-yil. 67-b.

asosli ma’lumotlar bera olish,

2. O‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi o‘z ustida tinimsiz ishlashi, ona tilini mukammal bilishi, qiyoslash asosida o‘qituvchilarda nutq qobiliyatni takomillashtirishi lozim;

3. O‘qituvchi o‘z xalqining urf-odatini, qadriyatlariga amal qilgan holda xorijiy tillarda dars bera olish;

4. O‘qituvchi xorijiy tilni pedagogikani, psixologiyani, pedagogik mahoratni, zamonaviy axborot texnologiyalarini mukammal egallashi, o‘quvchilarning individual psixologik holatlarni inobatga olgan holda ish olib borishi;


5. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor bo‘lishi kreativlik asosida samarali metod va vositalardan samarali foydalana olishi zarur.

O‘z davrining buyuk allomasi A.Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” didaktik asarida o‘qituvchi xalq oldida obro‘ga, hurmat va izzatga sazovor bo‘lishi kerakligini, u xalq bilan birga yashashini, xalq bilan birga bo‘lishini aytgan. Nodon mutaassib johil mudarrislarni tanqid qilib mudarris orasidagi eng sara qiyofali kishi bo‘lishi ya’ni sof ko‘ngilli, pok qalbli, insofli, odobli yaxshi kishilarni odobini aks etirishi lozim” deb aytib o‘tgan”[3].

O‘tgan asrning 60-70 yillarida “ta’lim kompetensiyaviy yondashuv” yangi tadqiqot yo‘nalishi kirib keldi. “Kompetensiya” lotincha so‘z bo‘lib,“compete”, kiritayapman, munosibman, loyiqman yoki bir sohadagi bilimlar, tajribalar ma’nosini anglatadi. Demak inson ma’lum sohada yaxlit bilimga ega bo‘lgan kabi ma’nolarni anglatadi. “Kompetentlik – bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, rahbarlik faoliyatiga singdirib borishdir”, deydi tajribali pedagog, dotsent A.E.Kenjaboyev[4].

“Kompetensiya – bir kishining vazifalari, huquqlari doirasi”, – deb ta’kidlaydi Rus pedagogi S.I.Ojegov. Bugungi kunda kompetensiya ta’lim jarayonida o‘qituvchilar faoliyatida “Kompetensiya”, “Kompetentlik” tushunchalari keng ishlatilmoqda.

Rasm. Zamonaviy pedagogik kompetensiyaga ta’sir etuvchi omillar va xususiyatlar



Bugungi tajribali pedagog o‘z shogirdlari bilan birgalikda pedagogok faoliyatlari davomida har kuni o‘z faoliyatlarini refleksiya qilib borishi pedagogik deontologiya va kompetentlik rivojlanib, yuksalib borishiga ijobiy ta’sir qiladi.

1. O. Musurmonova. Pedagogik texnologiyalar, ta’lim samaradorligi muhim omili. –T.: “Yoshlar tashkiloti”[5]

Bugungi o‘qituvchi kasbiga qiziqqan har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘z kasbini sevishi,

[3] A.Navoiy “Mahbub ul-qulub” –T. Badiy adabiyot nashriyoti o‘n besh tomli nashri 1966-yil 192-193-betlar.

[4] Kenjaboyev A.E. Pedagogik deontologiya va o‘qituvchining kasbiy kompetentligi. Zamonaviy ta’lim jurnali 2021-yil, 9-10-betlar 4-son.

[5] Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar-ta’lim samaradorligi omili. –T.: Yoshlar nashriyot uyi 2020-yil, 23-b.

unga fidoyilik bilan yondashib, har kungi faoliyatini refleksiya qilib borsa, yuqori kompetentlikga erishadi.

Bugungi pedagog kasbiy faoliyatini o‘z burchlarini deontologik talablar asosida tashkil etishi va o‘zida mavjud bo‘lgan kompetentlikga tayanib, barkamol avlod tarbiyasiga e’tibor berishi lozim. O‘qituvchilik burchini yuksak darajada anglash tuyg‘usi muallimning xatta-harakatlarini tartibga solib huquqini boshqarib turadi. Unga mas’uliyat hissi yuqori bo‘lsa, u ta’lim – tarbiya ishlarini bajarishga shunchalik kuch sarflaydi. Burch, mas’uliyat kamaysa yoki so‘nsa, o‘qituvchining qo‘li ishga bormaydi, o‘qitish sifati pasayadi. Yuqoridagi bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, men bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilariga quyidagi metodik tavsiyalarni taklif qilaman:

1.Ta’lim – tarbiya jarayonini tashqi tamoyillari ichida nazariya va amaliyot birligi muhim o‘rin tutadi, shuni hisobga olgan holda o‘quv maqsadlaridan tinglovchilarning o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotga qo‘llash imkoniyatini yaratish zarur:

2. O‘qituvchi o‘quv topshiriqlarini tinglovchilarning o‘rnatilgan nazariy bilimlarini yangi kutilmagan vaziyatda qo‘llashini nazarda tutishi lozim.

3. Berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘qituvchi o‘quv materialini qayta ishlashi, moslashtirishi, loyihalashi, modellashtirishi, qayta ishlab berishi talab etiladi.

4. O‘qituvchining deontologik tayyorgarligi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi.

5. Pedagoglar o‘z faoliyatini deontologik asosda tashkil etishi va o‘zida mavjud bo‘lgan kompetentlikka tayanib, har tomonloma barkamol avlodni voyaga yetkazadi.

6. O‘qituvchining kasbiy burch va mas’uliyatini bajara olishi uning pedagogik mahoratini yanadi takomillashtirishini oshiradi. Har bir o‘qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirishida kishilar bilan tez muloqotga kirisha olishi, ko‘pchilik fikriga qo‘shilish, ular bilan dilkashlik bo‘lib, bu onda muomala madaniyatining shakllanishini ifodalaydi. Chunki o‘qituvchiga hamisha aloqa qilishga ular bilan muloqot qilishga to‘g‘ri keladi. Jamiyatimiz fuqoralari bilan turli mavzularda tarbiyaviy suhbatlar tashkil etish mumkin, bu esa o‘z navbatida, kommunikatsiyani (aloqa)ni ifodalaydi. Bugungi bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilari ham muloqot madaniyatini, muomala madaniyatining kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lib, o‘z burchlarini his etib kelajakdagi pedagogik faoliyatiga tayyor bo‘lishlari davrning talabidir.

O‘qituvchi xarakterida qalbdan mehribonlik, talabchanlik bo‘lishi shart. Bu uning muvaffaqiyatli ishlashining birinchi sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil, 23-sentabr. Xalq so‘zi gazetasi 2020-yil 24-sentabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

3. A.Navoiy “Mahbub ul-qulub” o‘n besh tomlik. – T.: Badiy adabiyot nashriyoti 1966-yil 13-tom 192-193-betlar.

4. Kenjaboyev A.E. Pedagogik deontologiya va o‘qituvchining kasbiy kompetentligi. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2021-yil, 9-10-betlar 4-son.

Bahodir KARIMOV,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

TALABALARDA METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH FANINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlari va bo‘lajak muhandisning normativ-metrologik xabardorligini shakllantirish darajasini baholash ko‘rsatkichlari, darajalari, mezonlari hamda bo‘lajak muhandisning normativ-metrologik xabardorligi uning yuqori darajasi ishlab chiqarishni standartlashtirish va metrologik ta’minlash sohasidagi professional faoliyat ekanligi to‘g‘risida fikr mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, normativ-metrologik, axborot texnologiya, metrologiya, metodika, muhandis, mexanizm.

В статье описаны механизмы совершенствования методики обучения студентов метрологии, стандартизации и сертификации, а также показатели, уровни, критерии оценки уровня сформированности нормативно-метрологической осведомленности будущего инженера и его высокий уровень нормативно-метрологической осведомленности будущего инженера-профессиональная деятельность в области стандартизации и метрологического обеспечения.

Ключевые слова. Стандартизация, сертификация, нормативно-метрологический, информационные технология, метрология, методология, инженер, механизм.

The article describes the mechanisms for improving the methods of teaching students of metrology, standardization and certification, as well as indicators, levels, criteria for assessing the level of formation of normative and metrological awareness of a future engineer and his high level of normative and metrological awareness. future engineer - professional activity in the field of standardization and metrological support.

Key words. Standardization, certification, normative-metrological, information technology, metrology, methodology, engineer, mechanism.

XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu ta’lim tizimida pedagoglar, jumladan, talabalarda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlari kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirdi.

Dunyo miqyosida ta’lim jarayoniga talabalarda metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish, muhandisning normativ-metrologik xabardorligini shakllantirish darajasini baholash ko‘rsatkichlari, darajalari va mezonlari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mexanizmlarini joriy etish, yangi usul, vositalarni ishlab chiqish meto-

dikasini va metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Normativ-metrologik xabardorlikning shakllanish darajasini baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari mos ravishda ajratilgan kognitiv, operatsional-faoliyatli, motivatsion-qiymatli tarkibiy qismlarga taqsimlangan. Normativ-metrologik xabardorlikning shakllanganlik ko‘rsatkichlari etib bilimlarning shakllanganligi, amaliy ko‘nikmalar va bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyatlarining shakllanganligi; shaxs fazilatlarining shakllanganligi belgilandi. Normativ-metrologik xabardorlik shakllanganligining yuqori, o‘rta, past darajalariga ajratish mumkin.

Normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirishning uslubiy tizimi – bu o‘zaro ta’sirda va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan funksional va tarkibiy qismlarning to‘plamini o‘z ichiga olgan hamda talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatini tashkil etishning metodik funksiyasini bajaradigan pedagogik tizim bo‘lib hisoblanadi.

Har qanday uslubiy tizim o‘ziga xos metodik tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Texnik mutaxassisliklar talabalarida normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirishning metodik tizimini modellashtirishda ajratib ko‘rsatilgan umumdidaktik tamoyillar [S.I.Arxangelskiy]: nazariya va amaliyotning ilmiyliligi, tizimliligi, aloqasi, ta’lim maqsadlari va vazifalarining ongliligi, osonligi, birligi, aniqlik va mavhumlikning aloqasi, bilimlarning puxtaligiga asoslaniladi. Loyihalashtirilgan uslubiy tizim ushbu tamoyillardan tashqari, ushbu tizimga xos bo‘lgan normativ-metrologik xabardorlikning tarkibiy qismlarini ishlab chiqish imkonini beradigan maxsus tamoyillarga ham tayanadi.

Bo‘lajak muhandisda normativ-metrologik xabardorlikning shakllanish jarayonini tahlil qilish asosida normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirishning metodik tizimini loyihalashda hisobga olingan qonuniyatlar aniqlandi va ularga tegishli tamoyillar shakllantiriladi. Bo‘lajak muhandisda normativ-metrologik xabardorlikning shakllanishini muvaffaqiyatli ishlab chiqarish jarayonini standartlashtirish, aniqligini meyorlashtirish va metrologik ta’minlash hamda bo‘lajak muhandisning normativ-metrologik xabardorligini shakllantirish bo‘yicha o‘quv-kasbiy vazifalar shartlarining mazmuniga bog‘liqdir.

Normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bilim, mahorat va ko‘nikmalar majmui talaba tomonidan o‘quv rejasi fanlarini o‘rganish jarayonida to‘planadi. Oliy ta’lim muassasasining o‘qish jarayonida o‘zlashtiriladigan o‘quv fanlarining mazmuni tahlili talabalarni ishlab chiqarishni standartlashtirish va metrologik ta’minlash sohasida kasbiy faoliyatni tushunishda nazariy bilimlar bilan ta’minlaydigan bir qator fanlarni ajratish imkonini beradi. Bo‘lajak muhandisning normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirish maqsadida o‘quv-kasbiy faoliyatini tashkil etish uchun tadqiqot ishi muallifi ishlab chiqarish amaliyotining mazmunini ishlab chiqib, bunda umumiy kasbiy va maxsus fanlarni integratsiya qilish va farqlash nazarda tutiladi.

Uslubiy tizimning protsessual komponenti: talabalarning normativ-metrologik xabardorligini shakllantirish bo‘yicha o‘quv-kasbiy faoliyatini qanday tashkil etish kerak, degan savolga javob beradi. Ushbu komponent ta’limning protsessual mohiyatini aks ettiradi, o‘qituvchining faoliyatini, talabalarning faoliyatini va ularning o‘zaro aloqasini tartibga soladi.

Uslubiy tizimning nazorat-baholash komponenti normativ-metrologik xabardorlikning shakllanganlik darajasi bo‘yicha o‘qituvchining obyektiv bahosi, talabaning subyektiv bahosi va monitoringni amalga oshirish maqsadidagi diagnostik muolajalarni o‘z ichiga oladi. Nazorat-baholash komponenti normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirish metodik tizimining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, chunki uning yordamida talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyati monitoringi olib boriladi, uslubiy tizimning

samaradorligi baholanadi va bo‘lajak muhandisning ishlab chiqarish jarayonini standartlashtirish, aniqligini meyorlashtirish va metrologik ta’minoti masalalaridagi tayyorgarligi sifati muammosi hal etiladi. Shuning uchun nazoratni uchta: kirish, joriy va yakuniy qismlarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan holda, nazorat o‘quv, tarbiyaviy va rivojlanish funksiyalariga ega, ammo nazoratning asosiy funksiyasi diagnostika hisoblanadi. Shunga ko‘ra:

– kirish nazorati optimal metodik yordamni ishlab chiqish va qo‘llash maqsadida talabaning normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirish jarayoniga umumiy kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun zarur;

– joriy nazorat normativ-metrologik xabardorlikning shakllanish darajasini aniqlash va kerakli hollarda shakllantirish jarayonini tuzatish maqsadida talabaning o‘quv-kasbiy faoliyatini baholash uchun zarur;

– yakuniy nazorat raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash maqsadida normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirishning erishilgan darajasini qayd etish uchun zarur.

Bo‘lajak muhandisning normativ-metrologik xabardorligini shakllantirishning metodik tizimi tavsifining ko‘pligi turli modellarni yaratishni nazarda tutib, ularning har biri butun tizimning faqat bir jihatini, tizimning faqat bir tomonini tasvirlaydi. Uslubiy tizimning tavsifini funksiyalarni tahlil qilish orqali taqdim etamiz, chunki normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirish tizimi ko‘p funksionaldir:

– ijtimoiy tajribani o‘tkazish, umumiy va professional madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy funksiya;

– talabalarda professional muhim fazilatlarini rivojlantirish uchun ijobiy motivatsiyani yaratishni ta’minlaydigan psixologik funksiya;

– normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirish jarayonini zarur ilmiy va o‘quv-uslubiy qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi pedagogik funksiya;

– normativ-metrologik xabardorlikni shakllantirish uchun uzoq muddatga mo‘ljallangan o‘quv-kasbiy vazifalar va individual topshiriqlardan foydalanishni; o‘quv-kasbiy vazifalarni hal etishni bosqichma-bosqich tashkil etishni; oliy ta’lim muassasasi va sanoat korxonasining o‘zaro hamkorligi jarayoniga tegishli o‘zgarishlarni o‘z vaqtida kiritishni; talabaning standartlashtirish, meyorlashtirish va aniqlikni nazorat qilish faoliyatini tahlil qilish, hisobga olish va nazorat qilishni ta’minlovchi boshqaruv funksiyasi hisoblanadi.

Shunday qilib, bo‘lajak muhandisning normativ-metrologik xabardorligini shakllantirishning uslubiy tizimi barcha zarur tizimli xususiyatlarga javob berishini isbotlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Архангельский С.И. Лекции по теории обучения в высшей школе. – М.: Высшая школа, 1974.– С.380.

2. Кузьмина, Н. В. Формирование педагогических способостей [Текст] / Н.В. Кузьмина. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1961. – С.98.

3. Пидкасистый П.И. и др. Психолого-дидактический справочник преподавателя высшей школы. – М.: Педагогическое общество России, 1999. – С.354.

Nozima KARIMOVA,
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, "Personalni boshqarish" kafedrasi dotsenti

PROFESSIONAL TA'LIMDA KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar mazmun mohiyati hamda ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagoglarini kompetensiyalarni baholashda ko'p mezonli yondashuvni qo'llashning ahamiyati, baholash metodikalari, ularning o'ziga xosligi, shuningdek, kompetensiyalarni baholashda baholashning ko'p balli tizimini qo'llashning afzalliklari, differensial-integral yondashuvning mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Innovatsiya, kreativlik, motivatsiya, maxsus, kompetentlik, reyting, mezon, metod.

В статье освещена сущность содержания компетентностных подходов в образовании и важность использования многомерного подхода к оценке компетенций руководителями и преподавателями образовательных учреждений, методов оценивания, их специфика, а также преимущества использования многобалльной системы оценивания.

Ключевый слова. Инновация, креативность, мотивация, специальные компетентности, рейтинг, показатель, метод.

The article highlights the essence of the content of competency-based approaches in education and the importance of the usage multidimensional approach to the assessment of competencies by directors and teachers of educational institutions, assessment methods, their specificity, as well as the advantages of using a multi-point system of assessment.

Key words. Innovation, Creative, the motivation, special competence, a rating, an indicator, a method.

Ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi rahbar va pedagoglarni kompetentlik darajalarini baholash mezonlari, vositalari va metodikasi hamma vaqt bahs munozarali mavzu bo'lib kelgan. Chunki bu jarayonga turlicha yondashuvlar mavjud. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, pedagogning kasbiy kompetentlik darajasi ta'lim sifatini belgilabgina qolmay balki ularning mehnat bozorida o'z o'rnini topishiga imkon yaratadi. Kasbiy kompetentlik mezonlari o'qitiladigan har bir rahbar-pedagogning kasbiy vazifalaridan, bajarilishi lozim bo'lgan mehnat funksiyalari mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi.

Kvalimetriya – (lotincha quails-sifat, qadimiy yunoncha metros-o'lchov) degan ma'noni anglatib, obyekt, mahsulot, jarayonlar sifatini miqdoriy baholash metodlarini o'zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog'i. Kvalimetriya baholanishi lozim bo'lgan obyektning sifatini belgilovchi hajm, birlik, shkala, talablar yordamida mazkur obyektning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini aniqlashni belgilangan va qabul qilingan o'lchov jarayonini amalga oshirish nazariyasi asosida o'rganadi. Hozirgi zamon nuqtayi nazaridan kvalimetriyaning

sifat ko‘rsatkichlari ikkita yirik guruh: tabiiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlarga ajratib o‘rganiladi.

Tabiiy ko‘rsatkichlar o‘z navbatida, o‘rganilayotgan obyektning fizikaviy, kimyoviy va biologik miqdor ko‘rsatkichlariga ajratiladi.

Ijtimoiy ko‘rsatkichlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi voqea-hodisalar, ishlab chiqarish va iste'mol mahsulotlari, pedagogik jarayonlar, shaxsning ijtimoiy va mustaqil hayotdagi mavqei va o‘rni, savodxonligi, tarbiyalanganlik darajasi, shaxs kamolotiga qo‘llaniladi.

Kvalimetriya yuqorida qayd etilgan har bir guruhning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini yaxlitlikda o‘rganadi va baholashning umumiy tartibini ishlab chiqadi. Xalqaro tajribalar buyum, xizmatlar, jarayonlarning yuqori sifatli bo‘lishiga erishish uchun ularning sifatini aniqlaydigan ilmiy, texnik va tashkiliy mezonlar ishlab chiqilishi lozimligini ko‘rsatdi.

Muayyan obyekt yoki jarayon borishi, xizmatlar, jarayonlar sifati etalon sifatida qabul qilingan modelning mezonlari bo‘yicha o‘lchash va olingan natijalarni taqqoslash orqali baholash amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, kvalimetriya buyum, xizmatlar, jarayonlarning sifatini baholash masalalarini o‘rganadi. Bu jarayonda kvalimetriyaning asosiy metodlari: tahlil, sintez, qiyoslash va taqqoslash sanaladi.

Kvalimetriyaning amaliy tarmog‘i bo‘lgan pedagogik kvalimetriyada kadrlarni tayyorlashda malaka talablari va kasbiy standartlar etalon sifatida qabul qilingan bo‘lib, pedagogik kadrlarning kasb malakasi va pedagogik mahorati sifati taqqoslash orqali aniqlanadi.

Pedagog yoki ta’lim muassasasi rahbarini malakali mutaxassis sifatida tavsiflash uchun uning aniq xususiyatlarini ko‘rsatib berish zarur va natijada, obyekt haqida tegishlicha fikr yuritish imkoni yuzaga keladi. Masalan, pedagog uchun intizom, mehribonlik va o‘zi olib boradigan predmetga qiziqtira olishi kabi xususiyatlar kerak bo‘ladi. Agar pedagog yoki ta’lim muassasasi rahbarining malakasini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ko‘p qirrali, murakkab hususiyat hisoblanadi.

Obyektga uning alohida xususiyatlari baholarining yig‘indisi orqali, umumiy baho berish metodikasi, ko‘p mezonli yondashuv deb ataladi.

Kompetensiyalarni baholash bo‘yicha pedagogik tajribalarni o‘rganish natijasida, pedagoglar va ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy sifatlari va faoliyatlarini baholovchi metodikalarda ko‘p mezonli yondashuvdan foydalanilmaganligini qayd etishimiz mumkin.

Ko‘p mezonli yondashuvni qo‘llashning birinchi va asosiy sharti – rasmiy mezonlarning mavjudligi hisoblanadi. Mezon (kriterion yun.) – biror-bir narsaning belgisi bo‘lib, uning yordamida baholash, aniqlash yoki tahrirlash amalga oshiriladi. Mezon so‘zining sinonimi “merilo” atamasi hisoblanadi – ushbu atama ham biror-bir narsani taqqoslash, baholash yoki o‘lchash uchun ishlatiladi.

Zamonaviy pedagogikaning kvalimetriya sohasidaeng ko‘p tarqalgan mezonlar rasmiylashtirilgan mezonlar hisoblanadi, unda mutaxassisning egallab turgan lavozimi, ilmiy yoki fahriy unvoniga egaligi (ega emasligi), ilmiy darajasi, tematik maqolalarining soni, ish tajribasi va boshqalar inobatga olinadi.

Bundan tashqari, baholash mezonlari haqida ma'lumot berish natijasida, baholanuvchilar mezonlar bo‘yicha o‘z ko‘rsatkichlarini yaxshilashga intiladilar. Fikrimizcha, baholash natijalarining obyektivligini oshirish uchun ekspertlarni ma’lum bir mutaxassislarni baholashlari uchun emas, balki ma’lum bir toifaga tegishli bo‘lgan xodimlar uchun malakali xususiyatlar va baholash mezonlarini ishlab chiqishga taklif qilishimiz zarur.

Bunday yondashuv yordamida, ekspertlar komissiyasi faqatgina baholash jarayoniga tayyorlash bosqichini amalga oshirishda kerak bo‘ladi, bu esa iqtisodiy jihatdan ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, aniq bir shaklga ega baholash

mezonlarining mavjudligi ko‘p mezonli yondashuv metodikasini qo‘llash uchun asosiy shart hisoblanadi.

Ikkinchi shart – pedagoglar va ta’lim muassasalari rahbarlari faoliyatlariga aniq bir obyektiv baho berish imkonini beruvchi baholash yechimlarini qabul qilishning aniq bir uslubidan foydalanish sanaladi. Baholash yechimlarini qabul qilish uchun mezonlarning nisbiy muhimligi inobatga olgan holda mezonlar bo‘yicha baholar yig‘indisidan foydalaniladi. Foydalanish uchun qulayligi va ishonchliligi kabi afzalliklariga qaramay, bunday yondashuv o‘ziga yarasha muhim kamchiliklarga ham ega, ulardan yashirin ko‘rsatkich sifatida “bir mezon bo‘yicha past baholash boshqa mezonga yuqori baho berish orqali o‘rni to‘ldirilishi mumkin” ko‘rsatib o‘tish hamda qaror qabul qiluvchi insonning bir o‘lchov gradatsiyasidan ikkinchisiga o‘tishi bir xilda kechishini to‘g‘ri degan fikrni yuritilishi amaliyotda doim ham to‘g‘ri bo‘lavermaydi.

Pedagoglar va ta’lim muassasalari rahbarlari kasbiy faoliyatlari hamda kasbiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlarini baholovchi metodikalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy jihatdan ijobiy natijalarga erishish va baholashning obyektivligini yanada oshirish mumkin bo‘ladi.

Mezonlar tizimini ishlab chiqishda differensial-integral yondashuv. G.A.Bokareva va M.Y.Bokarev tomonidan taklif etilgan differensial-integral yondashuvdan foydalangan holda pedagoglar va ta’lim muassasalari rahbarlarining ko‘plab xususiyatlari va ularni baholovchi mezonlarni ko‘rib chiqamiz. Har bir mezon o‘qituvchi va ta’lim muassasasi rahbarining qandaydir xususiyatini (faoliyat turi) baholash uchun qo‘llaniladi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan metodikalar shundan dalolat beradiki, baholanadigan xususiyatlar bir turdagi guruhlar ko‘rinishida birlashadi.

“Differensial-integral yondashuv faqatgina ichki bog‘liqliklarning farqlangan qismini emas, balki ushbu bog‘liqliklarni umumiy tahlilga kiritishi lozim (o‘rganilayotgan hodisa), bundan tashqari – u yangi qo‘shimcha bog‘liqliklarni ixtiro qilish imkoniyati bilan ham ta’minlaydi”. Pedagog va ta’lim muassasasi rahbarining faoliyati va kasbiy sifatlarining integral xususiyatlarining ierarxik modelini ishlab chiqish imkonini yaratuvchi o‘qituvchi va ta’lim muassasasi rahbarining kasbiy xususiyatlarini namoyon qiluvchi uslubni topish kerak bo‘ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy g‘oyasi “barcha bilimlarga ega bo‘lish shart emasligi, aksincha, kerakli bilimlarni ma’lum bir shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lgan holda zarur vaziyatlarda inson o‘z xotirasidan kerakli bilimlarni topa olishi va uni to‘g‘ri tatbiq eta olishidan iborat”.

So‘nggi yillarda pedagogika sohalarida olib borilayotgan ilmiy ishlarning tahlili natijalariga ko‘ra, aytish mumkinki, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarda kompetensiyaning shakllanish muammosi hozirgi vaqtda chuqur o‘rganilayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Ammo o‘quvchilar, talabalar, pedagoglar va ta’lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetensiyalarini baholash muammosi o‘rganilmayapti.

Baholash metodikasi baholash tizimining komponenti sifatida o‘zida bosqich ko‘rsatmalarini qamrab olgan pedagoglarning (ta’lim muassasalari rahbarlari) kompetensiyalarini taklif etilayotgan instrumentlar yordamida ko‘plab baholar asosida qanday qilib baholash mumkin. Shuningdek, hozirda kompetensiyalarni baholashning o‘nlab metodikalari mavjud.

Biz maqolada e’tiborimizni kompetensiyani baholashning “SMART metodi” mazmunini o‘rganishga qaratdik (ingl. the Simple Multi-Attribute Rating Technique). Bu metod V.Edvards tomonidan taklif etilgan bo‘lib, matematika nazariyasiga asoslangan evristik metod hisoblanadi.

SMART metodi amaliy jihatdan qo‘llash uchun qulay sanaladi va ushbu xususiyat uning muhim afzalliklaridan biridir. Ammo ushbu metod mezonlarning o‘zaro bog‘liqlik imkoniyatining mavjudligi yoki ularning additivligini inobatga olmaydi va bu uning kamchiligidir. Undan tashqari yakuniy baholash o‘lchangan yig‘indi metodi yordamida aniqlanadi. Muqobilliklarni baholash uchun o‘lchangan yig‘indidan asossiz foydalanish ko‘pgina sabablarga ko‘ra noto‘g‘ri sanaladi. Jumladan, ushbu metod doirasida shunday tasavvur mavjudki, qaror qabul qiluvchi shaxs uchun afzalliklarni belgilashda shkalaning bir o‘lchamidan boshqa o‘lchamiga o‘tishi bir tekisda ko‘tariladi, bu esa amaliyotda doimo ham to‘g‘ri emas.

Metodni quyidagi bosqichlarni ifodalash mumkin:

1. Mezonlar ahamiyati bo‘yicha tartiblanadi.

2. Muhim ahamiyatga ega mezon 100 ball bahosi bilan baholanadi. Mezonlarning ahamiyati bo‘yicha juftlik munosabatidan kelib chiqqan holda, har bir mezon uchun baho ballarda belgilanadi.

3. Barcha olingan ballar o‘zaro qo‘shiladi. Natijada, mezonlarning qiymatini normallashtirish berilgan ballarni qiymatlar yig‘indisiga bo‘lish orqali amalga oshiriladi.

4. Har bir mezon bo‘yicha har bir muqobillikning ahamiyati 0 dan 100 ballgacha bo‘lgan shkala yordamida belgilanadi.

Kasbiy kompetensiyalarni baholashda ko‘p mezonli yondashuvdan foydalanish orqali amalga oshiriladigan metodikaning asosi qarorlarini qabul qilish nazariyasi metodikasidan foydalaniladigan baholash algoritmi sanaladi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, qarorlarni qabul qilish nazariyasi metodikalarning barchasini ham ko‘p mezonli yondashuv doirasida qo‘llab bo‘lmaydi (masalan, guruh bilan birgalikda qaror qabul qilish metodikalaridan foydalanish mumkin emas – Delfi uslubi, miya bo‘roni, sintetika uslubi va boshqalar. Chunki ular, ko‘p mezonli yondashuv va uning shartlaridan foydalanishdan farqli ravishda – ekspertlar guruhini tayyorlash, rasmiylashtirilmagan mezonlar va boshqalarni talab etadilar). Shunga qaramay, baholash uchun qarorlarni qabul qilish bo‘yicha ko‘p mezonli metodikalarning xilma-xilligi ulardan birini afzalligi yoki kamchiliklarini hamda hal qilinayotgan vazifaning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda tanlash zaruriyati yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Hozirgi vaqtda ko‘p mezonli baholash qaror qabul qilish nazariyasining jadal rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ko‘p mezonli baholash – bir vaqtning o‘zida bir nechta mezonlar bo‘yicha optimal qaror qabul qilishning matematik modeli bo‘lib, ushbu mezonlar qaror qabul qilinayotgan obyektlar bo‘yicha obyektni turli sifatlarining (jarayonning) bahosini ifoda etishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жуков А.А. Оценка руководителей как инструмент кадрового менеджмента промышленного предприятия: автореф. дис. на соиск. учен. степ,канд. экон. наук. – Кострома, 2004. – С.18.

2. Гатен Ю.В. Формирование психолого-педагогической компетенции преподавателя высшей технической школы в системе повышения квалификации: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. пед. наук. Елец, 2010. – С. 23.

3. Салтыков С.А. Экспериментальное сопоставление методов взвешенной суммы, теории полезности и теории важности критериев для решения многокритериальных задач с балльными критериями // Управление большими системами. Выпуск 29. –М.: ИЛУ РАН. 2010. – С. 16-41.

Farrux ABDULLAYEV,
A.Avloniy nomidagi Xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

TABIIY FAN (SCIENCE) BO‘YICHA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI BAHOLASH YONDASHUVLARI

Annotatsiya

Maqolada baholash, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiiy fanlar bo‘yicha baholash yondashuvlari, baholash topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish, mezon asosida o‘quvchilarni baholash masalalari yoritilgan, namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Baholash, summativ baholash, formativ baholash, mezonga asoslangan baholash, baholash topshirishlari, baholash mezonlari, baholash usullari va yondashuvlari.

В статье освещаются вопросы оценивания, подходы к оцениванию младших школьников по естественным наукам, разработка оценочных заданий и критериев оценивания, оценка знаний учащихся на основе критериев, приводятся примеры (образцы).

Ключевые слова. Оценивание, суммативное оценивание, формативное оценивание, критериальное оценивание, задачи оценивания, критерии оценивания, методы и подходы к оценке.

The issues of assessment, approaches to assessment of primary school students in natural sciences, development of assessment tasks and assessment criteria, assessment of students on the basis of criteria, examples are given in this article.

Key words. Assessment, summative assessment, formative assessment, criteria-based assessment, assessment assignments, assessment criteria, assessment methods and approaches.

Xalq ta’limi tizimida Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi asosida 2021/22-o‘quv yilidan boshlab tabiiy fanlar 1-6-sinflarda (dastlab 1-2-sinflarda) “Tabiiy fan” (SCIENCE) dasturi asosida o‘qitiladi. “Tabiiy fanlar” blok-moduli o‘z ichiga biologiya, geografiya, fizika, kimyo o‘quv fanlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ta’minlaydi. Blok-modul tarkibiga kiradigan o‘quv fanlari o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy, texnik, ekologik va iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish hamda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiatda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyati, sabablari va o‘zaro bog‘liqligi, tabiatning rivojlanish bosqichlari, jumladan, tirik organizmlarning evolyutsiyasi, zamonaviy texnika va texnologiyaning tabiiy-ilmiy asoslari, tabiat va jamiyatning o‘zaro aloqadorligi va ta’siri, tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishning ilmiy asoslari, sog‘lom turmush tarzining mohiyati va ahamiyati haqida nazariy hamda amaliy bilimlar tizimini tarkib toptirish tabiiy fanlar blok-modulining asosiy vazifalarini belgilab beradi.

Fanlarning o‘zaro integratsiyasi o‘quvchilar tomonidan tabiatni bir butun borliq sifatida anglanishi, ularning tafakkurida olamning yagona tabiiy-ilmiy manzarasi vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, fanlararo integratsiya o‘quvchilarda zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotning imkoniyat va muammolari, ekologik muammolarning mohiyati, tabiatdan oqilona foydalanish yo‘llari, sog‘lom turmush tarziga amal qilish tamoyillari hamda kundalik hayotda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga

qaratilgan. Mazkur fan o‘quvchilarni tabiiy fanlarni o‘rganishga rag‘batlantirish, ularda tabiat haqida yaxlit tasavvur paydo qilishga yordam beradi.

Bu fandan o‘quvchilarning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash ham juda muhim hisoblanadi. O‘quvchilarni tabiiy fanlar bo‘yicha baholash o‘ziga xos yondashuvlarni talab qiladi.

Baholash – ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida o‘quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o‘lchash, natijalarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Formativ (shakllantiruvchi, joriy) baholash – ta’lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta’lim jarayoni samarasini tezkor aniqlab borish, o‘quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi qaytar aloqani ta’minlash maqsadida o‘tkaziladigan baholash jarayonidir. Shakl jihatdan u ham kirish (o‘rganilayotgan mavzuning boshida), ham kundalik (o‘quv jarayonida) bo‘lishi mumkin.

Summativ (umumlashtiruvchi, jamlovchi) baholash – ta’lim jarayonining ma’lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki chorak, o‘quv yili oxiri, ta’limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishdan oldin) ta’lim oluvchining ta’limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini o‘lchash jarayoni sanaladi. Baholash mazmunli bo‘lishi uchun mazkur jarayon parametrlar, mezon va ko‘rsatkichlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Parametr nimani baholash kerakligini ko‘rsatadi. Mezon natijani baholovchi xususiyatini aks ettiradi. Ko‘rsatkich – bu uning mazmunini ochib beradigan xususiy mezon.

O‘quvchilarni tabiiy fanlar bo‘yicha summativ baholash jarayonlarida asosan, mezonga asoslangan baholashga tayanilishi lozim.

Mezonga asoslangan baholash – baholanuvchining ta’lim jarayonida qo‘lga kiritgan natijalarini, bilim, ko‘nikma va malakalarini oldindan belgilangan o‘quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko‘ra taqqoslash va o‘lchashdan iborat bo‘lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi ta’lim maqsadlari bo‘yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri va xolis baholanadi, shuningdek, o‘quvchining kuchli va kuchsiz tomonlarini yaxshiroq farqlash imkonini beradi.

Mezonga asoslangan baholash ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o‘lchanadi.

Mezonga asoslangan baholashning bir qator afzalliklari mavjud:

– o‘quv maqsadlariga muvofiq baholash;

– o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini obyektiv baholash;

– baholash o‘zining aniq ko‘rsatkichlariga ega bo‘lishi;

– o‘quvchi olgan bahosidan yo‘l qo‘ygan xatolarini yaqqol ko‘rishi;

– o‘quvchini ta’lim olishga yo‘naltirishi;

– o‘quvchining kuchli va kuchsiz jihatlarini xolisona aniqlab berishi, ulaning o‘z bilimi va malakalariga bo‘lgan ishonchini oshirishi;

– hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarining o‘rnatilishi;

– o‘quvchilarning o‘z faoliyati natijalariga bo‘lgan mas’uliyatini oshirishi.

Mezonga asoslangan baholashning ham ba’zi kamchiliklari mavjud:

– mezonlarni ishlab chiqish ko‘p vaqt talab qilishi;

– mezonlarning obyektivligi, haqqoniyligini aniqlashga nisbatan har bir sinfda o‘quvchilar sonining ko‘pligi;

Tabiiy fanlardan o‘quvchilarning bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash uchun tuziladigan topshiriqlar tabiiy fanlar bo‘yicha o‘quvchilarga qo‘yiladigan talablarni baholay olishi lozim bo‘ladi. Buning uchun standart test topshiriqlaridan tashqari nostandart topshiriqlardan ham foydalanish kerak.

Quyida 2-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan topshiriqlardan namunalar va ularni baholash mezonlari keltirilgan.


1-topshiriq. Rasmlarda suvning qanday holatlari tasvirlangan? Katakchalar ichiga tegishli raqamlarni yozing. 1) suyuq; 2) bug‘; 3) qattiq (3 ball).



2-topshiriq. O‘simliklar haqidagi to‘g‘ri ma’lumotlarga “HA”, noto‘g‘ri ma’lumotlarga “YO‘Q” deb javob yozing (3 ball).

O‘simliklar haqida ma’lumotlar	HA/ YO‘Q
O‘simliklarning oziqlanishi uchun yorug‘lik zarur	
O‘simlik barglari suv va mineral tuzlarni shimib oladi	
O‘simliklar oziqlanganda havoga kislorod ajratadi	

3-topshiriq. Qaysi rasmda bolalarning tabiatga salbiy ta’siri aks etgan? Rasmlar ostidagi katakchalarni bo‘yang (3 ball).




4-topshiriq. Oziq zanjirini to‘ldiring. Chigirtka o‘simlik bilan oziqlanadi. Kalxat ilon bilan oziqlanadi. Chigirtka bilan oziqlanadigan hayvonni aniqlang va tegishli raqamni bo‘sh katakchaga yozing (2 ball).






5-topshiriq. Rasmdan hasharotlar, qushlar, sudralib yuruvchilar va sut emizuvchilarni aniqlang. Tegishli raqamlarni katakchalarga yozing (6 ball).



Javoblar					
Hasharotlar					
Baliqlar					
Qushlar					


6-topshiriq. Qaysi rasmda Quyosh, Yer, Oy holati to‘g‘ri ko‘rsatilgan? To‘g‘ri javob ostidagi doirachani bo‘yang (3 ball)



Topshiriqlar uchun qiyinchilik darajasiga ko‘ra turlicha ballar ajratilgan. Buning sababi o‘quvchidan ba’zi topshiriqlarni bajarishda boshqa topshiriqni bajarishga nisbatan ko‘proq bilim, fikrlash va vaqt talab etiladi. O‘qituvchi o‘quvchining bajargan ishini quyidagi mezonlar asosida baholaydi.

Baholash mezonlari

Top-shiriq raqami	Baholash mezoni	Deskriptor O‘quvchi	To‘g‘ri javob	Ball	Maksi-mal ball
1	Suvning qanday holatlarini farqlaydi	Suvning qattiq holatini aniq-laydi		1	3
		Suvning suyuq holatini aniq-laydi		1	
		Suvning bug‘ holatini aniq-laydi		1	
2	O‘simlik-larning oziqlani-shi bilan bog‘liq jihatlarni farqlaydi	O‘simliklarning oziqlanishi uchun yorug‘lik zarur	HA	1	3
		O‘simlik barglari suv va mineral tuzlarni shimib oladi	YO‘Q	1	
		O‘simliklar oziqlanganda havoga kislorod ajratadi	HA	1	

3	Bolalarning tabiatga oqilona va salbiy ta’sirini farqlaydi	Bolalarning tabiatga salbiy ta’sirini aniqlaydi		1	3
				1	
				1	
4	Oziq zanjiri tuzadi	Oziq zanjiridagi hayvonni aniqlaydi		2	2
5	Hasharotlar, qushlar, sudralib yuruvchilar va sut emizuvchilarni farqlaydi	Hasharotlarni aniqlaydi	1 va 5 Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball	2	6
		Baliqlarni aniqlaydi	3 va 4 Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball	2	
		Qushlarni aniqlaydi	2 va 6 Har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball	2	
6	Quyosh, yer, oy holatini farqlaydi	Quyosh, yer, oy holatini aniqlaydi		3	3
Jami:				20	20

Yuqoridagi topshiriqlar yordamida ta’lim jarayoni samarasini tezkor aniqlab borish, o‘quv jarayonini muvofiqlashtirish va ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi qaytar aloqani ta’minlash imkoniyatini beruvchi formativ baholash tashkil etiladi.

Mazkur topshiriqlar o‘quvchilar bilimini aniq mezonlar asosida baholash va har bir o‘quvchining tabiiy fanlar bo‘yicha kuchli hamda zaif jihatlarini bilish hamda mashg‘ulotlarni shu asosida tashkil etish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalq ta’limi Vazirining 2020-yil 9-dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 2020-2021-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 297-son buyrug‘i.

2. “Maktablarda SCIENCE fani joriy etiladi. O‘qituvchilarni qiziqtirayotgan savollarga javoblar”, https://kun.uz/uz/04448528

3. Нурмагамбетова Ж.С., Баяндина З.К. Критериальное оценивание учебных достижений учащихся и развитие профессиональной компетентности учителя // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2014. – № 8-4. – С. 136-137.

4. “Grade 1 Science Worksheets”. https://www.k5learning.com/science-worksheets/first-grade-1.

5. Tracy Bellaire. Life Science Grade 1. On The Mark Press 2017.

6. Tracy Bellaire. Physical Science Grade 1. On The Mark Press 2012.

Feruza BERDIBEKOVA,
Andijon davlat universiteti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIGA “TARBIYA” DARSINI TASHKIL ETISHNI O‘RGATISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Tarbiya va tarbiyaviy ishlar har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan xalq yoki mamlakat inqirozga yuz tutadi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma’naviy boyliklarni ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi zarur. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimi bo‘lishini taqozo etadi.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, tarbiya tushunchasi, tarbiyaning mazmun-mohiyati, tarbiya funksiyasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi, tarbiya metodlari, tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati, tarbiyaviy munosabat.

Воспитание и воспитательная работа – важнейшая профессия в жизни любого общества, и любая страна, недостаточно занятые воспитанием подрастающего поколения, переживают кризис. Так как для развития любой страны производство материальных и духовных богатств должно постоянно увеличиваться. Требует, чтобы у подрастающего поколения была система воспитательной работы, которая постоянно работает над формированием таких материальных и духовных способностей.

Ключевые слова. Воспитание, понятие воспитания, содержание и суть воспитания, функции воспитания, методика воспитательной работы, методы воспитания, социальная важность воспитания, воспитательное отношение.

Upbringing and educational work are crucial in the life of any society and any country, and a nation or a country that is not sufficiently engaged in the upbringing of the younger generation will face a crisis. Because for the devolement of any country, the production of material and spiritual wealth must be constantly increasing. It requires a system of educators who are constantly working to develop such material and spiritual abilities in the younger generation.

Key words. Education, the concept of education, the essence of the content of education, the function of education, methods of educational work, methods of education, the social significance of education, educational attitude.

Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqildi. Birgina “Ta’lim

to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dastur”ning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo‘naltirilganligini keltirish kifoya.Tarbiya – yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, insonning jamiyatda yashashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.Tarbiyaviy ishlar jarayonida ko‘zga tashlanadigan o‘zaro muhim bog‘liqliklar bir tizimga solingan holda amalga oshirilganda o‘zining natijalarini beradi. Bugungi kun talabasi ertangi kunda tarbiyaviy jarayonning faol a’zosiga aylanishi uchun ular tarbiyaviy ishlardagi tizim bilan yaqindan tanishgan bo‘lishi kerak.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

– maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;

– faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;

– bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o‘qituvchi, ota-ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta’minlash muhimdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko‘p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog‘liq. Ular quyidagi omillarni qo‘llash asosida vujudga keladi:

– tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqealari jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondashuv kabilardir;

– tarbiyaviy ishlarning maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart-sharoitlarni oldindan aniqlab qo‘yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

– tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqot va munosabatda bo‘lishlari, ruhiy shart-sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.

– O‘quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o‘quvchi yoshlarning faolligi ko‘p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog‘liq;

– Tarbiyaviy ishlar ta’lim jarayonida olgan bilimlariga uyg‘un bo‘lishi. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integratsiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar metodikasi yosh avlodni har tomonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g‘oyani singdirishda har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning ilm olishi, o‘z qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish ta’kidlanadi. Ta’lim to‘g‘risida qabul qilingan qonunda maktabning, unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaning mazmuni amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tarbiyaning vazifalari belgilab berildi. Ma’lumki yosh avlodga tarbiya berish jarayonida maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga tarbiya berish, ularga ta’lim berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o‘z vazifasi, mazmuni, amalga oshirish usul va vositalari mavjud. O‘qish va tarbiya jarayonining uzviyligi ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilgan eng muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Har bir fanning predmeti, o‘rganish obyekti, amalga oshirishi lozim vazifalari mavjud

bo‘lganidek, tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining ham predmeti, o‘rganish obyekti va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalari bor.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish sinfda va maktabda, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil qilish, har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashning eng zamonaviy va eng qulay yo‘nalishlarini belgilash, vositalarini izlab topishdan iboratdir. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining predmeti bo‘lajak o‘qituvchi-tarbiyachilarga kelajak avlodni ma’naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san’atining qirralari, shakl va yo‘llari hamda bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish obyektini esa ta’lim muassalaridagi uzluksiz ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etadi.Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Uning maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchi va tarbiyachilarning tarbiyaviy ish va tadbirlarning mazmunli bo‘lishini ta’minlashda boy milliy va umuminsoniy qadriyat va urf-odatlardan keng foydalanishga, tarbiyaviy ta’sirga ega bo‘lgan manbalarni ajrata bilishga qaratilganlidir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

– o‘quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganib, unga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lish;

– tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo‘lgan metodlarni tanlab, ko‘zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko‘ra bilish;

– ilg‘or tajribalarni tahlil qilish va uni o‘z faoliyatida ijodiy foydalanish;

– tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

– tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

Tarbiya metodlari. Yosh avlodni tarbiyalashda turli xil metod va vositalardan, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi. Metod (lotincha-metodos – yo‘l so‘zidan olingan bo‘lib) tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot deb tarjima qilingan. Metodika (yunoncha-metodika) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi yoki o‘qitish tarbiyalash usullari va vositalari degan tushunchalarni anglatadi. Tarbiya metodlari – pedagog-o‘qituvchilarning o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo‘llaridir.

Tarbiya metodlari tarbiyaviy ishlar metodikasi fani ishlarini to‘g‘ri tashkil etishda muhim vosita bo‘lib, bola shaxsining har tomonlama kamol topishi bilan belgilanadi va tarbiyaviy ishlar jarayoniga taaluqli bo‘lgan ko‘pgina tarbiyaviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta’lim muassalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, tashkilotchi, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vazifasini o‘ziga yuklaydi.

Tarbiya metodlari o‘qituvchi va jamoa tomonidan tarbiyalanuvchilarning g‘oyaviy va ma’naviy e’tiqodlarini, ma’naviy his-tuyg‘u va odatlarini tarkib toptirish maqsadida qo‘llanadigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini anglatadi. Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borganda turli xil usul va vositalarni qo‘llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga

ajratish, ta’sir qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun tarbiyaviy ishlar metodikasi fanida ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib quyidagi turlarga ajratish mumkin.

1. Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar.
2. Odatlantirish va faoliyatga mashqlantirish metodlari.
3. Tarbiyada rag‘batlantirish va jazolash metodlari.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o‘quvchilarning ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari to‘g‘risida qoida va meyorlarini hosil qilishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu metod shaxsning e’tiqodi va ishonchiga aylanib boradi. Ikkinchi guruh metodlari yordamida o‘quvchilarda ma’naviy mazmuniga oid odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi. Faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy munosabat, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo‘lib sanaladi.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq–atvor va odatlarni rag‘batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg‘ulari va maqsadlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishda foydalaniladi.

Tarbiyaviy ishlar tizimi va tarbiya jarayoni har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a’zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlikka yuz tutadi va oqibatda, inqirozi mahkam bo‘ladi. Negaki, har qanday jamiyatning o‘sib, rivojlanishi uchun moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni, ajdodlardan yaxshiroq darajaga ko‘tara bilishi kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlar shakllantirishi uchun jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy institutlar tizimiga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonining ijtimoiy ahamiyati. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning yaratilishi ta’limni tubdan halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi. Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo‘lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o‘rganilmoqda.

Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta’lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo‘lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o‘zlashtiradigan, ma’lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o‘rganadi. Shaxsga kasb-hunar o‘rgatish, kishining ma’naviy va g‘oyaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya o‘quvchilar ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib

toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Ijtimoiy tarbiya jarayonida inson va jamiyat hayotiga oid axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalar bolalar ongiga singdirib boriladi. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan barcha ta'sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi va bunda shaxs xohlagan soha bo'yicha ta'lim-tarbiya ko'rib, istagan kasbni egallashi mumkin. Dunyo tarbiyashunosligi ijtimoiy tarbiyaning mohiyatini asoslab berdi.

Tarbiya va tarbiyaviy ishlar har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kab etadi. Yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan xalq yoki mamlakat inqirozga yuz tutadi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi zarur. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimi bo'lishini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar tizimi jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil izohlandi. Shuning uchun ham turli sinf va ijtimoiy tabaqalarning tarbiyasi o'zgacha bo'ladi va bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash hukmronlik qilgan. Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyaning sinfiy xarakterga ega emasligi isbotlanadi. Chunki chindan ham bunyodkorlik va vayronkorlikning mohiyati har qanday ijtimoiy sinf vakili uchun ham bir xildadir. Ijtimoiy tarbiya maxsus muassasalar tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Xalqning o'zi yaratgan tarbiyachilik san'atiga va boy merosiga asoslanishi ijobiy ahamiyatni kasb etadi. Tarbiya jarayonida ijtimoiy tarbiya bilan birgalikda oila tarbiyasining uzviyligi va ustuvorligi muhim hisoblanadi.

Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar jarayonining samaradorlik darajasi ko'p jihatdan tarbiyaviy ishlar tizimining tashkil etilishiga bog'liq. Tarbiyaviy ishlar tizimi mazmunan boy bo'lishi, umumiy maqsad va o'quvchilar imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak.Tarbiyaviy ishlar bevosita mamlakat hayoti, xalq tarbiya tizimi bilan mustahkam bog'langandir. Tarbiya jarayoni va tarbiya ishlarini olib borish murakkab bo'lgan bir butun jarayondir, binobarin, bola shaxsining har tomonlama rivojlanib borishida turli xil sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassasalarining vazifasi tarbiyaviy ishlar tizimini to'g'ri tashkil etib va ba'zi sharoitlarning rolini faollashtirib bola shaxsini kamol topishini ta'minlashdir.

Har qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'quvchilarning gigiyenik qoidalariga asosan tashkil etishda yaratilgan shart-sharoitlar muhim rol o'ynaydi. Ko'rinib turibdiki, tarbiyaviy ishlar metodikasi fani gigiyena fani bilan ham bog'langan.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning axloqiy sifatlari tarkib toptirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Axloq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish zarur. Axloq normalari va axloqshunoslik bilan etika fani shug'ullanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. –T.: Istiqlol, 2003.

2. Hasanboyev J., To'raqulov X., Alqarov I., Usmanov N. Pedagogika. T.. Fan va texnologiya, 2010.

3.Tarbiya ensiklopediya. Tuzuvchi: Aminov M.N. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

4. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. Часть 3. Процесс воспитания. – М.: ВЛАДОС.2002.

Zarnigor BOYMURODOVA,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

OILADA BOLALARNI TARBIYALASHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif tomonidan oilada yoshlarni ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirish yo‘llari, ma’naviy meros va milliy qadriyatlardan o‘zaro uyg‘unlikda foydalanishning ahamiyati, bu sohada ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish, talabalarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishning pedagogik omillari hamda ta’lim jarayonida uni amalga oshirishning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Qadriyat, vijdon, burch, axloqiy madaniyat, axloqiy me’yorlar, boshqaruv.

В статье раскрываются пути развития духовного мировоззрения молодёжи в семье, значение использования взаимной совместимости духовного наследия и национальных ценностей, использование зарубежного передового опыта в данной сфере, педагогических факторов развивающих духовное мировоззрение студентов, а также аспекты их реализации в образовательном процессе.

Ключевые слова. Ценность, совесть, долг, духовная культура, этические нормы, управление.

The article describes the ways of developing the spiritual worldview of young people in the family, the importance of the harmonious use of spiritual heritage and national values, the use of advanced foreign experience in this area, pedagogical factors in the formation of the spiritual worldview of students and its implementation.

Key words. Values, conscience, duty, ethical culture, ethical standards, management.

O‘zbekiston xalqining insonparvarlik va mehr-oqibatga yo‘g‘rilgan shunday qadriyatlari borki, bu qadriyatlar bugun millat doirasidan chiqib, umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarilib borayotganiga dunyo guvoh bo‘lmoqda. Ayni vaqtda informatsion tahdidlarni bartaraf etishda xalqimizga xos bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchi-yoshlar tomonidan o‘zlashtirilishi, bu qadriyatlarga amal qilinishining ta’sir kuchi yuqori bo‘ladi.

Sharq xalqlari uchun esa ahl, murosada yashash bosh qadriyatdir. Inson sha’ni, obro‘-e’tibori, nafsoniyati, oriyati, vijdoni ushbu tarixiy-madaniy g‘oyalar asosiga qurilgan. Ma’naviy talablar esa o‘z-o‘zidan qadriyatlar qatorini to‘ldirishni, mantiqiy ravishda birining ketidan ikkinchisini qo‘yishni taqozo etadi. Ota-onaga ehtirom, aka-ukaning o‘zaro hurmati, qavmu-qarindoshlar totuvligi, qo‘ni-qo‘shnilar ahlligi axloqiy qadriyat sifatida muayyan ketma-ketlikda, qadrlanish darajasiga ko‘ra, muayyan shaklda o‘rin olgan.

Jamiyatimizda yaxshilikka intilib, yomonlikdan tiyilish qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. O‘quvchilarga yaxshilikning asosini tashkil etuvchi “mehr-oqibat”, “mehr-shafqat”, “qadr-qimmat” tushunchalarini singdirish orqali o‘zgaga yaxshilik qilish, oqibatli, shafqatli bo‘lish, har bir narsaning qadr-qimmatiga yetish kabilar shakllantirilishi lozim. Shuningdek, yaxshilik yoki yomonlikni farqlash tuyg‘usining shakllanishi jamiyatda mo‘tadil ma’naviy hamkorlik ruhiyatini tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Xalqimizning ma’naviy merosida vijdonli bo‘lish qadriyat darajasiga ko‘tarilganini

ko‘ramiz. Xusayn Voiz Koshifiyning “Axloqiy Muxsiniy” asarida vijdon, diyonat, nomus iymonning inson axloqining posboni yaxshilik va yomonlikni ajratuvchi mezoni sifatida ta’riflaydi.

Jumladan, Koshifiy yozadi: “Vijdoni, nomusi, diyonati bo‘lmagan kishi dunyoda bo‘lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir. Yomonlik qilmagan, ya’ni yaxshi odam vijdonlidir”. Shunday ekan, bolalar ongiga vijdon, diyonat kabi tushunchalarni buyuk allomalarimizning fikr-g‘oyalaridan o‘quv mashg‘ulotlari mazmuniga mos tarzda foydalanish orqali singdirish lozim. Vijdonli, diyonatli, insofli, nomusli inson hech qachon xalqiga, oilasiga, millatiga xiyonat qilmaydi.

Sharq mutafakkirlari ilmiy merosini o‘rganganimizda adolat, burch, or-nomusli bo‘lish kabi tushunchalarni qadriyat sifatida ko‘ramiz. Adolatning qudrati o‘zganing manfaatini ro‘yobga chiqarish, oy singari zulmatni yoritish, johillikka barham berish va daryo misoli yerni yashnatish, har bir ishga adolat ko‘zi bilan qarash bir so‘z bilan aytganda, haqni qaror toptirishdir.

Burch – shaxs faoliyatini ifodalovchi mas’uliyat, onglilik, vijdon kabi fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘quvchi yoshlarning asosiy burchi o‘z vataniga sodiq farzand bo‘lib voyaga yetishi, kelajakda yetuk shaxs bo‘lib el-yurt ravnaqiga hissa qo‘shishi kabilar hisoblanadi. Burch bolada o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, u tarbiya jarayonida kamol topadi. Burchni tarbiyalash jarayonida o‘z-o‘ziga talabchanlik rivojlanadi. Natijada, har bir kishida o‘z ishiga, bilimiga, kuch-quvvatiga ishonch qaror topadi. Inson o‘z burchini to‘la anglab yetsagina axloqiy yetuk shaxs sanaladi.

Oriyati baland, nomusli inson o‘z sha’ni, g‘ururi va qadr-qimmatini himoya qiladi. Bu tushuncha zamirida mardlik, lafz, vafo, latofat, hayo, sha’n, iffat, andisha kabi axloqiy me’yorlar mujassamlashgan. O‘quvchiga or-nomus tushunchalarini singdirish orqali nafsni tiyish, yomonlikni tark etish, behayolardan o‘zini olib qochish va ularga qarshi kurashish, uyalish, nomus, sha’nini saqlash, oqilalik va e’tiqodlilik, sharm-hayo, qat’iylik, mehr-muruvvatlilik, insof, diyonat kabilarni shakllantiramiz. Natijada esa bunday o‘quvchi turli yot g‘oya va informatsion tahdidlar ta’siriga o‘zini berib qo‘maydi va atrofidagilarni ham yomon yo‘l va illatlardan qaytarishga o‘zida kuch topa oladi.

Ta’kidlash lozimki, yuqorida tilga olingan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchi-yoshlar ongiga ularning yoshligida boshlab uzluksiz shakllantirib borishimiz zarur. Va bunda muvaffaqiyatga erishishning eng samarali yo‘li oila-maktab-mahalla hamkorligi, birgalikda ishlab olib borishi hisoblanadi. Milliy qadriyatlar o‘quvchi-yoshlar ongiga chuqur singib borsa, o‘rnashsa, har qanday informatsion tahdidlar ta’siridan yiroq bo‘ladi.

Jamiyatning, ayrim shaxslarning ma’naviy madaniyati darajasi uning aqliy kamoloti bilan belgilanadi. Aqliy madaniyat jamiyat va tabiat qonun-qoidalari, hodisalar, bu hodisalarning bir-birlari bilan bog‘liqligi asosida, shuningdek, insoniyat hayoti, turmush tarzi, jamiyat taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarni, ilmiy-nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish yaxlit idrok etish, takrorlash, tassavvur va tafakkur qilish kabi ruhiy holatlar jarayonida shakllanadi.

Ilmiy bilimlar asosida kishilarning kundalik turmushida namoyon bo‘ladigan va bo‘lishi qat’iy ma’naviy fazilatlarning mohiyati chuqur anglab yetiladi va ularga ongli ravishda amal qilinadi. Chuqur bilim, malaka, ko‘nikma ma’naviy madaniyatning barcha qirralari uchun g‘oyaviy asos hisoblanadi. Yoshlarning faol bilish faoliyati ma’naviy ong va faoliyatning shakllanishida asos bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy-nazariy bilim asosida yoshlarda yuksak axloqiy fazilatlar, nafosat, dunyoqarash, e’tiqod, mehnatga ijobiy

munosabat, din va bid’atni biri-biridan farqlash, tabiatga muhabbat, burch va huquqiy anglash kabilar shakllanib boradi.

Har – bir jamiyat avvalo, o‘zi yaratgan, qabul qilgan qonun va huquqiy normalarga asoslanadi. Bu qonun va huquqiy normalarning mavjudligi har bir huquqiy davlatning turmush tarziga kiradi.

Lekin, jamiyatda kishilarning turmushi, munosabatlari, urf-odatlari, rasm-rusumlarining hammasini qonun sifatida rasmiylashtirib bo‘lmaydi. Ularning ko‘pchilik qismi umumiy axloq tushunchasi bilan qamrab olinadi. Demak, axloq kishilar xatti-harakatlari, xulq-atvor normalariga qo‘yilgan umumiy talablarning yozma ravishda qonunlashtirilgan majmuasidir.

Axloq inson hayotining, jamiyat faoliyatini batamom qamrab oladi va u har qadamda kishilarning yashashidan maqsadi nima, baxt nima, huquq, haqiqat, adolat va adolatsizlik, nohaqlik, vazifa va burch nima degan yuzlab savollarga javob berishga harakat qiladi. Axloqqa zamin bo‘lib xizmat qiladigan asosiy vositalardan biri umuminsoniy va milliy qadriyatlarni bilish va ularning boyishiga xizmat qilishdan iboratdir.

Har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum o‘z axloq normalarini joriy etadi, bu normalarni shaxs ongi va xulqida shakllantirishga intiladi. Jamiyatdagi axloqiy jarayon shu jamiyatda shaxsning har tomonlama rivojlanganligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, u ayni vaqtda, madaniy taraqqiyot o‘lchovini ham bildiradi. Axloqiy madaniyat jamiyatning madaniy ehtiyojlari asosida rivojlanadi va shakllanib boradi.

Har bir tarixiy davrning o‘ziga xos axloq normalari bo‘lib, bir davr uchun zarur bo‘lgan axloq normalari ikkinchi bir davrning ma’naviy talabini qondirishga to‘liq xizmat qila olmaydi. Jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy bosqichida ijtimoiy-siyosiy, ijobiy-salbiy, progressiv-reaksion, obyektiv-subyektiv, ichki-tashqi, kerakli va keraksiz axloq belgilari mavjud bo‘lib, ular jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishiga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shunigdek, jamiyatning moddiy va ma’naviy taraqqiyoti ham o‘quvchi axloqining rivojlanishi va shakllanishiga bevosita ta’sir etadi.

Zamonaviy huquqiy davlat uchun kurashar ekanmiz, uning axloq qoidalarini aniqlash eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu narsa, birinchi navbatda, kelajak egalari bo‘lgan yoshlarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish masalalariga tegishlidir.

Axloqiy madaniyat axloqiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalar, axloqiy ishonch, axloqiy ong va faoliyat normalari, axloq qoidalari yordamida yoshlarning xulq–atvori, xatti-harakatlari o‘zaro mulaqatini boshqara bilish tizimidir. Axloqiy madaniyat yoshlarning butun faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi. Axloqiy ong bir tomondan atrofdagi axloq madaniyati ko‘rinishlarini tanqidiy qabul qilib olib sekin-asta ana shu qabul qilib olingan tarkibiy qismlardan axloqiy madaniyat tuzimi va tizimini yarata boshlaydi. Ikkinchi tomondan, bu kuzatuv va qiyoslash natijasida qabul qilib olingan ayrim, bo‘lak-bo‘lak axloqqa tegishli tomonlar o‘z axloqiy madaniyati uchun oddiy qurilish materiali bo‘lib xizmat qilish bilan cheklanmaydi. Balki yoshlarni borliqqa axloqiy qoidalar, normalar nuqtayi nazaridan boqishga majbur etadi. Qiyoslash natijasida yasalgan xulosa atrof borliqni axloqiy mezonlar nuqtayi nazaridan baholashda yangi qadam hisoblanib, bu yangi xulosa oldingi xulosalardan nima bilandir aniqroq, boyiroq va to‘laroq bo‘ladi.

Axloqiy madaniyat hech qachon yolg‘iz o‘zi yoshlar ongi va faoliyatida shakllantirilmaydi balki ma’naviy madaniyatning boshqa qirralari bilan birgalikda, munosabatlarda o‘zligini yaxlit ravishda namoyon qiladi.

Axloqiy madaniyatning ko‘rinishlari, uning qirralari va namoyon bo‘lish shak-

llari mazmunan xilma-xil. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, faollik, ijodkorlik, haqiqatgo‘ylik, mas’uliyatlilik saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida aqliy, siyosiy nafosat, badiiy va boshqa madaniyat qirralari bilan hamkorlikda yoshlar ongi va xulqiga ta’sir etadi. Masalaning murakkab va o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, bu ijobiy xislatlarning har biri yoshlar ongi va faoliyatida o‘zicha, yo yorqinroq, yo kengroq, yo kamtarona va yuzakiroq namoyon bo‘lishi mumkin. Bu jihatdan hamma yoshlarga bir xilda ma’lumot beriladi. Lekin, bu xislatlar har bir yoshda o‘ziga xos ravishda shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarning o‘ziga xos shaxsiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ma’naviy manbalarning ta’sir doirasiga e’tibor berish zarur.

Shunday qilib, axloqiy belgilarning har biri yoshlarda turlicha shakllanganligi axloqiy tarbiyaning har xilligi, ruhiy jismoniy xususiyatlarning har bir yoshda o‘ziga xosligi bir biridan farq qiladigan axloqiy, ma’naviy shakllanganlik darajasini belgilaydi. Shu bois, har bir yoshning axloqiy xulq-atvori xatti-harakati, do‘stlari, jamoasi, oila va jamoatchilik o‘rtasida qay darajadaligi o‘z faoliyatini milliy, umuminsoniy axloq normalariga mos ravishda tashkil etishi ijtimoiy, guruhiy, shaxsiy, axloqiy madaniy muloqoti, ahloqiy ta’sir doirasi bilan o‘lchanadi. Yoshlar faoliyatinig bu qirralari esa u o‘zlashtirgan bilimlarning amaliyotga tadqiq eta bilishida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida yana ko‘zda tutilishi lozim bo‘lgan masalalardan biri axloqiy jarayonni boshqarish muammosidir. Jamiyatning turli sohalari – siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy jihatdan boshqarilishi bilan bir qatorda, ijtimoiy aspektda ham boshqariladi, nazorat etiladi. Insonparvarlik ruhidagi munosabatlarni, ijtimoiy turmush tarzini shakllantirishning muhim omili axloqiy jarayonni boshqarishdan iboratdir. Axloq insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun da’vat etilgan. U katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlarning o‘zaro munosabatlari, o‘zaro ta’sirlari orqali ularning axloqiy rivojlanishi, boyishi, qobiliyatlarining nomoyon bo‘lishi, amaliy faoliyatlarini kuchaytirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailova Z., Ruzimurot Choriyev and Aynisa Musurmanova, Mahfuza Aripjanova. “Methods of training of teachers of university on advanced training courses”. Journal of Critical Reviews 7.5 (2020): 413-416.

2. Narbayeva T.K, Musurmanova A. “Priority areas of spiritual, moral and physical education of youth in the family”. Annals of the Romanian Society for Ceff Biology 25.1 (2021): 6485-6496

3. Ismailova Z.K, Musurmanova. A, Shomurotova. N.N, Kholiqova. N.A “Methods of training of teachers of technical university on advanced training courses”. Annals of the Romanian Society for Ceff Biology 25.2 (2021): 2959-2970

4. Karabayevna Z., Xamroyevich R., Musurmanova A. Improving the competence of future vocational education teachers based on modular-rating education //International Journal of Engineering and Advanced Technology. – 2019. – T. 9. – №. 1. – P. 6903-6906.

Maqsud MAHMUDOV,
Buxoro davlat universiteti, “Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi o‘qituvchisi

AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARI PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini shakllantirishga akmeologik yondashuv hamda ushbu yondashuvning ijodiy xarakteri mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Akmeologiya, yondashuv, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik mahorat, ijod, maqsad, natija.

В данной статье показанны пути совершенствование педагогического мастерства будущих учителей физического воспитания на основе акмеологического подхода и его творческий характер.

Ключевые слова. Аксиология, подход, будущий учитель, педагогическое мастерство, творчество, цель, результат.

This article shows the ways of improving the pedagogical skills of future physical education teachers based on the acmeological approach and its creative nature.

Key words. Axiology, approach, future teacher, pedagogical skills, creativity, goal, result.

Yangilanayotgan O‘zbekiston hamda xalqimiz ongi, tafakkurida farovon va baxtli hayotga ishonch shakllanayotgan sharoitda respublikamizning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy-madaniy va ma’naviy hayotida ro‘y berayotgan hodisalar, uni jahon hamjihatligiga tezkor kirishini, hamda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida olib borayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda.

Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri-mamlakat mehnatkashlarining, xususan, yoshlar ta’lim – tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilarning kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug‘dirdi. Zero, bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko‘payishi, rivojlanishi, ilmiy – texnikaviy taraqqiyotning jadallashuviga, mavjud pedagogik – psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma’lum darajada “eskirishi”ga olib keldi va bu o‘z navbatida pedagogik mehnat bilan shug‘ullanuvchilarning kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e’tiborni yanada ko‘proq qaratish lozimligini taqozo etdi.

Bu e’tibor va talabni amalga oshirishning muhim omillaridan biri, kasbiy mahoratni takomillashtirish texnologiyasini joriy etishdan iboratdir. Shu maqsadda, ta’lim yo‘nalishlari, jumladan jismoniy madaniyat va sport sohasidagi mutaxassislarning pedagogik mahoratini oshirish, ularning kasbiy pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

O‘zbekistonda ijtimoiy, madaniy vaziyatning o‘zgarishi pedagogika fanida insonparvarlikka asoslangan g‘oyalar va maqsadlarning ustuvor o‘rin egallashini jadallashtirdi. Ta’lim paradigmasining o‘zgarishi murakkab pedagogik jarayonlarni vujudga keltirdi. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimi, ayniqsa, oliy pedagogik ta’lim mazmunini akmeologik yon-

dashuv asosida modernizatsiyalashni taqozo etmoqda. Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim mazmunini modernizatsiyalash asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyatini insonparvarlik tamoyil asosida tashkil etishga erishish maqsadida akmeologik yondashuvdan keng foydalanish talab etiladi.

Akmeologik yondashuv doirasida oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash va o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishda bir qator yondashuvlarga tayanish zaruriyati mavjud. Ular: oliy pedagogik ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish, ushbu tizimning faoliyat ko'rsatishiga xizmat qiladigan asosiy metodologik yondashuvlarni aniqlash, oliy pedagogik ta'lim mazmunini tanlashda tizimli yondashuv, faoliyatli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, falsafiy-antropologik yondashuv, sinergetik yondashuv tamoyillaridan iborat.

Pedagogik ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda, birinchi navbatda, mutaxassislarning e'tiborini akmeologik yondashuvga qaratish talab etiladi.

Akmeologiya (yunoncha akme – yetuklik, cho'qqi, kamolot, yuksalish, logos – ta'limot) – Shaxsning kasb-hunarni egallashda yuksak cho'qqiga erishishi bilan bog'liq masalalarini o'rganuvchi fan[1].

Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining pedagogik mahoratini rivojlantirish deganda – bo'lajak o'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha fundamental bilimlarni chuqur egallashi, kasb-hunarning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini ushbu burch va mas'uliyatni ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga intilish jihatlarini o'rganishi lozimligi tushuniladi.

Pedagogik-psixologik yondashuvlarga asoslangan holda qaralganda o'qituvchining ijodiy faoliyati shunday faoliyatki uning natijasida yangi innovatsion pedagogik harakatlar amalga oshirilib samarali yutuqlarga erishiladi. O'qituvchining ijodiy faoliyati pedagogik jarayonda aniq o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Buning natijasida, o'quvchi aql-idroki va his-tuyg'ulari tarkibida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Ijodiy xarakterdagi pedagogik jarayonlar o'quvchilarning muayyan bir yangilikni his etishlariga ko'maklashadi. Mazkur nuqtayi nazar ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda yanada rivojlantirilishi kerak. Biroq, har qanday pedagogik faoliyat ham ijodiy xarakter kasb etavermaydi.

Aksariyat mutaxassislar (J.G'.Yo'ldoshev, M.Ochilov, R.G'.Safarova, F.Yuzlikayev, Sh.S.Sharipov, B.B.Ma'murov, B.Q.Xodjayev, Q.F.Abdullayev) pedagogik xarakterdagi ijodkorlikning kasbiy ijodiy tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydilar. Bunday ijodiy tafakkurning asosiy belgisi ijodiy xarakterdagi pedagogik faoliyat natijasi ekanligi shak-shubhasizdir. Ushbu xarakterdagi ijodiy yutuqlar o'quv-biluv faoliyati natijasida qo'lga kiritiladi.

Ijodiy xarakterdagi pedagogik qadriyatlar uchta katta guruhga bo'linadi: 1) pedagogik ijodga oid qadriyatlar; 2) pedagogik kechinmalarga oid qadriyatlar; 3) pedagogik munosabatlarga oid qadriyatlar.

Bularning asosini esa ijod tushunchasi tashkil etadi. Ma'lumki, ijodiy faoliyat natijasida, moddiy hamda ma'naviy qadriyatlar yaratiladi. Barcha madaniy-tarixiy hodisalar orasida ijodkorlik o'zining muayyan millat ruhiyati va mentalitetiga bog'liq yo'nalishlariga egaligi bilan ajralib turadi. Bu yo'nalishlar ijodning muayyan shaxs va jarayonga aloqadorligi

[1] Pedagogika: ensiklopediya / tuzuvchilar: jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 45-46-betlar

bilan izohlanadi. Ijod har bir shaxsdan layoqatlar, mayllar, bilim va ko‘nikmalarni talab qiladi. Chunki xuddi mana shu layoqatlar, mayllar, bilim va ko‘nikmalar yordamidagina ijodiy faoliyat mahsuli bo‘lgan betakror yangiliklar vujudga keladi.

Ijod tushunchasi pedagogik atamalar doirasida alohida ustuvorlikka ega bo‘lib, shu bilan bir qatorda, u bilan yaqin ma’noga ega bo‘lgan, mantiqiy jihatdan o‘ziga xos ma’nolar tashuvchi evristik va kreativlik atamalari ham mavjud.

Evristika – grek tilidan olingan so‘z bo‘lib, izlayman, topaman ma’nolarini ifodalaydi[2]. Mazkur metod doirasida ijodiy faoliyat usullari o‘rganilib ushbu usullardan yangiliklarni kashf etish va o‘quv jarayonini loyihalashda keng foydalaniladi. Pedagogik evristikaning asosiy mohiyatini yangi kasbiy vazifalarni yechish jarayonini ifodalovchi model tashkil etadi. Evristika tushunchasi betakrorlikni anglatadi. Bu betakrorlik pedagogik voqeiylikda mavjud bo‘lgan holatlardan tubdan farq qiladi.

O‘qituvchining ijodiy mahsuldorligi – pedagogik g‘oyalar, hukmlar, loyihalar, kasbiy faoliyat natijasida vujudga kelgan xulosalar bilan belgilanadi. O‘qituvchi dunyoqarashining chuqurligi evristik faoliyati natijasining mantiqiy asosini tashkil etadi. O‘qituvchi ijodiy tafakkurining kengligi va moslashuvchanligi unga o‘z-o‘zini hamda ijodiy xarakterdagi pedagogik yondashuvlarni namoyon qilish imkonini beradi. O‘qituvchining o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash sohasining kengligi hamda shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish layoqati unga pedagogik jarayonlarni nazariy-amaliy jihatdan tahlil qilish va maqsadga muvofiq tarzda loyihalashtirish imkonini beradi.

Kreativlik esa lotinchadan olingan so‘z bo‘lib, ijod qilish, yaratish degan ma’nolarni ifodalaydi. Bu o‘qituvchining noodatiy g‘oyalarni vujudga keltirish layoqatidir. Bunday layoqatga ega bo‘lgan o‘qituvchilar muammoli vaziyatlarga tezkorlik bilan yechim topib an’anaviy o‘qitish usullaridan voz kechgan bo‘ladilar.

O‘qituvchining kreativ quvvati – uning shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini maqsadga muvofiq tarzda loyihalashga layoqatliligini anglatadi. Bunday o‘qituvchilar pedagogik faoliyatlari jarayonida o‘z-o‘zlarini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu imkoniyat ular egallagan kasbiy bilimlari doirasida o‘z ifodasini topadi.


Shaxsning ijodiy imkoniyatlari, ijodkorlik, evristik qobiliyati, ijodni kengaytirishning ta’limiy modelini vujudga keltirish asosida rivojlantiriladi.

Shu o‘rinda, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini ijodkorlikka o‘rgatish mumkinmi, degan haqli savol tug‘iladi. Bunday savolga ilmiy manbalarda turlicha javoblar mavjud. Mutaxassislar shaxsni ijodkorlikka o‘rgatish, unda ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish, buning natijasida uni har tomonlama rivojlantirish imkoniyati mavjudmi degan savolni qo‘yadilar. Bu savol uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida mutaxassislar oldiga ko‘ndalang bo‘lib turadi. Bu savolga beriladigan javoblar ham turli-tumandir. Chunki ijodkorlik inson bilish faoliyatining o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liq. Shuning uchun ham u insonning o‘ziga xos betakror xususiyati hisoblanadi.

Ijodkor shaxsni shakllantirish mumkin emas, unga faqatgina ta’limiy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish orqali ijodiy faoliyat ko‘nikmalari tarkib toptiriladi. Akmeologik yondashuv har doim ta’lim oluvchilarning rivojlanishi, yaratuvchilik va ijodkorlik ko‘nikmalarini egallashlari uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Akmeologik yondashuv asosidagi ta’lim jarayonida ijod shaxs erkinligi va rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omildir.

Shu nuqtayi nazardan yondashganda ta’lim oluvchilarni ijodkorlikka undash, ularda ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim jarayonining birinchi darajali vazifasiga aylanishi kerak. Bunda quyidagicha yo‘l tutish maqsadga muvofiqdir:

[2] Pedagogik atamalar lug‘ati. // tuzuvchilar: jamoa. – T.: Fan nashriyoti, 2008-yil. 144-b.



1) bo‘lajak o‘qituvchilar ijodiy quvvatlarining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmaslik, ularda yaratuvchilik imkoniyatlarining vujudga kelishi uchun mustaqillikni ta’minlash;

2) bo‘lajak mutaxassislarni ijodiy faoliyat ko‘rsatishga muntazam undash, bu holatni ularning ma’naviy-axloqiy sifatlariga aylantirish, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan vaziyatlarni vujudga keltirishdan iborat. Buning uchun o‘qituvchilar pedagogik jarayonlarni maqsadga muvofiq tarzda yo‘naltirish, o‘quv jarayonining o‘quvchilarni ijodkorlikka undash darajasini muntazam oshirishga intilishlariga yo‘naltirilgan faoliyat bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni qurollantirishlari kerak. Shu maqsadda, ta’lim oluvchilarda ijod qilishga intilish, moyillik, aniq maqsad, xohish-istak, mehnatsevarlik, muntazam mustaqil bilim olish, izlanish, o‘zining madaniy darajasini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish talab etiladi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayoni subyektlarida akmeologik yondashuv asosida pedagogik tafakkurni muvaffaqiyatli rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda quyidagilarni hisobga olish talab etiladi: oliy pedagogik ta’lim jarayoni subyektlarining real o‘quv imkoniyatlarini aniqlash maqsadida akmeologik

xarakterdagi tashxislash tadbirlarini o‘tkazish, shu asosda ularning o‘quv imkoniyatlari, kasbiy mayllari, qiziqishlari, qadriyatlari, istiqboldagi pedagogik faoliyatlarida qo‘llaniladigan bilimlar ko‘lamini aniqlash; o‘quv jarayonida pedagogik tafakkurning samarali rivojlanishiga imkon beradigan qulay pedagogik vositalarni tanlash; o‘qitishning interfaol metodlari va tashkiliy shakllariga keng o‘rin ajratish asosida oliy pedagogik ta’lim jarayoni subyektlarining shaxsiy-kasbiy mavqelarini mustahkamlash uchun qulay o‘quv vaziyatlarini tashkil etishni nazarda tutish; pedagogik tafakkurning rivojlanishida oliy pedagogik ta’lim jarayoni subyektlarining topshiriqlarning turli shakllari, manbalar hamda ma'ruza matnlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilar ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli loyihalashtirish va tashkil etish tajribasiga ega bo‘lishlari uchun birinchi navbatda, ta’lim oldida turgan ijtimoiy buyurtma: uning umumiy va xususiy maqsadlari, fan-texnika yutuqlari, jamiyat ehtiyoji, shaxs taraqqiyoti qonuniyatlarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishlari lozim. Buning uchun ularda kreativlik, tahliliy tafakkur, o‘qituvchilik kasbiga moyillik, insonparvarlik, hamkorlik muhitini vujudga keltira olish, jamoaviy fikrni hurmat qilish kabi sifatlar barqaror rivojlangan bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim jarayonini loyihalashtirishga tayyorlashning ilmiy pedagogik asoslarini yaratish uchun bir qator muammolarni yechish talab qilinmoqda: shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishning didaktik xususiyatlarini aniqlash; o‘quv-biluv jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘quvchilarga nisbatan qadriyat darajasidagi munosabatda bo‘lish tajribasini qaror toptirish; bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ko‘p yo‘nalishli o‘quv-biluv jarayonini loyihalashga tayyorlash; bo‘lajak o‘qituvchilarni ta'lim jarayonining konseptual asoslari va shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim texnologiyalari bilan qurollantirish kabilar.

Xulosa qilib aytganda, amaliy kuzatishlarimiz, pedagogik va ijtimoiy madaniy tajribalarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, bo‘lajak mutaxassislarda ijodiy layoqatlarni rivojlantirish asosida ularni ijodkorlikka o‘rgatish mumkin. Buning uchun o‘quv jarayoni mustaqil bilim olish, rivojlanish, ijodiy kamol topish jarayoniga aylanishi lozim. Shuning uchun ham, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining mustaqil ijodiy rivojlanishini oliy ta’lim jarayonining dastlabki bosqichidanoq boshlash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. –М.: Изд-во МПСИ; Воронеж: НПО МОДЭК, 2004. – С.752.

2. Костихина Н.М. Акмеология физической культуры и спорта: учеб. пособие. – Омск: Изд-во СибГУФК, 2005. – С.180.

3. Ma’murov B.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish tizimi. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017, 128-b.

4. Pedagogik atamalar lug‘ati. // tuzuvchilar: jamoa. – T.: Fan nashriyoti, 2008 yil. –144-b.

5. Pedagogika: ensiklopediya / tuzuvchilar: jamoa. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 45-46-betlar.

Sherzod ABDURAXMANOV,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

TALABA-YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada talaba-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qildik. Vatanparvarlikni hissiy idrok etish mohiyatini ochib berish va madaniy globallashuv sharoitida vatanparvarlikning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Talaba-yoshlar, harbiy vatanparvarlik, vatanparvarlik ta’lim, tarbiya, tarixiy tajribalar, Konstitutsiya, milliy armiya, mardlik, botirlik, jonkuyarlik.

В данной статье мы проанализировали особенности патриотического воспитания школьников. Раскрывает сущность эмоционального восприятия патриотизма и дает информацию об особенностях патриотизма в условиях культурной глобализации.

Ключевые слова. Студенческая молодежь, военный патриотизм, патриотическое воспитание, воспитание, исторический опыт, Конституция, национальная армия, храбрость, взлом, бодрость.

In this article, we have analyzed the peculiarities of patriotic education of students. It reveals the essence of emotional perception of patriotism and provides information about the peculiarities of patriotism in the context of cultural globalization.

Key words. Student youth, military patriotism, patriotic education, education, historical experience, Constitution, national army, courage, hacking, cheerfulness.

Bugungi kunda mamlakatimizda o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslarini takomillashtirish natijasida xalqimizning boy madaniy-ma’naviy merosini yoshlar ko‘z o‘ngida gavdalantirish, uning hayotbaxsh jihatlaridan foydalangan holda ta’lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, uslubiy ta’minotini kengaytirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash,...” kabi yo‘nalishlar belgilangan bo‘lib, bu o‘z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lgan pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqish zaruratini izohlaydi.

Zamonaviy ilm-fan sohasida adabiyotlarda, vatanparvarlik va millatchilik o‘rtasidagi munosabatlar masalalari tez-tez turli, ko‘pincha qarama-qarshi kelgan hisoblanadi, shu munosabat bilan, vatanparvarlikning etnik va fuqarolik millatchiligi bilan o‘zaro bog‘liqligini tushunish. Tahlil ko‘rsatdi; savollar: vatanparvarlik va millatchilik munosabatlari; bir asrdan ko‘proq vaqt davomida mutafakkir va tadqiqotchilarni xavotirga solmoqda. Ba’zi mualliflar ushbu hodisalarni aniqlaydilar, boshqalari ularga qarshi. Ko‘p jihatdan, bu qaysi nazariy yondashuv muallifga bog‘liq – primordializm, instrumentalizm yoki konstruktivizm. Ayni paytda etnik va fuqarolik millatchiligiga urg‘u berish an’anaviy bo‘lib qoldi. Etnik millatparvarlik qadriyatlarga e’tibor qaratib, ma’lum bir etnik jamoani

mahkamlaydi, aksincha, fuqarolik millatchiligi butun jamiyatni (millatni) birlashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Natijada, fuqarolik millatchiligi o‘z mazmuni jihatidan milliy vatanparvarligiga o‘xshaydi va polikultural etnikdan ko‘ra maqbuldir. Shu bilan birga, o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar davomida talaba yoshlar ongida an’anaviy ma’noda salbiy qarash bilan ishlatiladigan millatchilik qarashlari davom etayotganligi aniqlandi.

Qadriyatlarni shakllantirish jarayoni, shu jumladan, vatanparvarlik, polietnik muhitning qiyin sharoitida sodir bo‘ladi. Bu, ayniqsa, turli xil o‘zgarishlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan yosh avlodga tegishli. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar vatanparvarlikning talabalar qadriyat tizimidagi o‘rnini aniqlash va uning namoyon bo‘lishini tushunish va dinamikasini hamda shakllanishining asosiy yo‘llarini ochib berish imkoniyatini yaratdi.

O‘tkazgan sotsiologik tadqiqotlarimiz va olingan natijalarni taklif qilingan qiymat yo‘nalishlari orasida vatanparvarlik ustun mavqeni egallamaydi. Talabalar uchun sog‘liq bilan birga oila ham ustuvor ahamiyatga ega. Oraliq pozitsiyada erkinlik, bilim va xotirjamlik mavjud. Shuningdek, so‘ralgan talabalar iqtisodiy mustaqillikning muhimligini past baholashlari bilan ajralib turadi. Umuman olganda, javoblarning taqsimlanishiga jinsi, millati va yosh farqi ta’sir qilmasligi qayd etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, vatanparvarlikni an’anaviy tushunish tendensiyasi davom etmoqda. Talaba ongida respondentlar tug‘ilgan mamlakat bilan bog‘liq bo‘lgan “katta” Vatan obrazi ustun turadi. Bu jihatdan talabalar o‘zlarini fuqarolar sifatida fuqarolik identifikatsiyasi bilan ajralib turishi ajablanarli emas. Vatanparvar talabalar soni vatanparvar bo‘lmaganlar ulushidan sezilarli darajada oshadi. Natijada, aksariyat hollarda talaba yoshlar mamlakatni tark etishni istamasliklarini bildiradilar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, talabalar vatanparvar shaxsning xulq-atvor komponentini ajratib turishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, vatanparvar insonning etnik madaniy komponenti talabaning ongida aks yetishi ta’kidlandi.

Zamonaviy vatanparvarlikning asosiy funksiyalari haqida gapirganda, respondentlar faoliyat funksiyasini alohida ta’kidlashadi, hozirgi bosqichidagi eng dolzarb vazifalaridan biri – konsolidatsiya qiluvchi narsa – so‘ralgan talabalar tomonidan deyarli aytilmagan.

Talabalar vatanparvarlikni rivojlantirishga ta’sir qiluvchi asosiy omil sifatida ijtimoiy omilni qayd etdilar. Shu bilan birga, talaba yoshlarning muhim qismi ekstremal holatlar kabi tashqi omillarning ta’sir darajasini inkor etib, vatanparvarlik tuyg‘ularining namoyon bo‘lishining tabiiy xususiyatini ta’kidladilar. Vatanparvarlikni shakllantirishda urf-odatlar va urf-odatlarning o‘rni respondentlarning ongida yomon ifodalangan.

Umuman olganda, olingan ma’lumotlar talabalar orasida vatanparvarlik namoyon bo‘lishining ijobiy dinamikasini ko‘rsatadi.

So‘ralgan talabalarning aksariyati umummilliy vatanparvarlik g‘oyasini shakllantirishga ijobiy munosabatda bo‘lishdi. Ushbu muammoni hal qilishda ustuvorlik, talabalarining fikriga ko‘ra, davlatga beriladi. Kerakli sharoitlarning yaratilishi va iqtisodiy muammolarning hal yetilishi milliy vatanparvarlikni shakllantirish bo‘yicha ishlarni sezilarli darajada tezlashtiradi. Yosh avlodni vatanparvarlik tarbiyasi sohasida aniq davlat siyosatini olib borish zarurligi masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Biroq, talabalarning fikriga ko‘ra, shaxsning vatanparvarlik ruhida rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan asosiy ijtimoiy institut bu oila.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, talaba yoshlar Respublikada vatanparvarlik tarbiyasi

muammosidan xabardor.

Bundan tashqari, respublika talaba yoshlarining fikriga ko‘ra, bu muammo azaldan mavjud bo‘lib, ommaviy axborot vositalari uni to‘liq yoritmayapti.

Shunday qilib, ko‘p millatli mintaqada vatanparvarlikni shakllantirishning asosiy usuli bu vatanparvarlik ta’limi sohasidagi maqsadga muvofiq, moslashtirilgan va tizimli ish bo‘lib, bu jarayonda shaxs va jamiyatni vatanparvar qilish uchun mas’ul bo‘lgan barcha davlat muassasalari jalb qilinadi.

O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlarni yakunlar ekanmiz, tadqiqot gipotezasi tasdiqlanganligini ta’kidlaymiz. Respublikasida vatanparvarlik rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati quyidagi qarama-qarshilikdir: talabalar tomonidan vatanparvarlikning namoyon bo‘lish dinamikasi odatda, ijobiy bo‘lishiga qaramay, vatanparvarlik muhim ahamiyatga ega emas.

Tadqiqot natijalari asosida ba’zi amaliy tavsiyalar taklif qilindi.

Demak, tadqiqotlar vatanparvarlikni talaba yoshlarning qadriyat ko‘rsatmasi deb hisoblashga va uning ko‘p millatli mintaqada shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga imkon berdi.

XXI asr boshlarida vatanparvarlikni falsafiy o‘rganishning dolzarbligi milliy o‘ziga xoslik va vatanparvarlik haqidagi g‘oyalarni uning qadriyat asosiga aylantirgan madaniy globallashuv jarayonlarining noaniqligi bilan bog‘liq. Globallashuv sharoitida ko‘p yo‘nalishli jarayonlar kuzatilmoqda – vatanparvarlikni eskirgan va eskirgan qadriyat sifatida kosmopolitizm bilan almashtirish zarurligiga bo‘lgan ishonchning tarqalishidan, vatanparvarlikni mutlaqlashtirish va uni ksenofobiya, milliy murosasizlik va begona narsalarga nafrat bilan qarash. Ushbu murakkab va noaniq jarayonlar ijtimoiy-falsafiy tushunishni talab qiladi.

Globallashuv jarayonining oqibatlaridan biri bu madaniy xilma-xillik uchun xavf tug‘diradigan madaniyatni standartlashtirish, g‘arbiylashtirishdir. Vatanparvarlikning yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarigina ommaviy madaniyatning kengayishiga qarshi tura oladilar, yangi sharoitda o‘zlarining milliy va madaniy xususiyatlarini saqlab qoladilar. Ammo muammo shundaki, globallashuv sharoitida vatanparvarlik tushunchasining mazmuni o‘zgaradi, u ko‘p qirrali va noaniq bo‘lib qoladi va uning amalda shakllanishi ko‘p jihatdan falsafiy tushunchaga bog‘liqdir.

Globallashuv sharoitida vatanparvarlikni mutanosib ravishda falsafiy tahlil qilish zarurati, shuningdek, bir tomondan, so‘zlarning faol ishlatilishiga kirishgan va hamma uchun intuitiv ravishda tushunarli bo‘lgan, ikkinchi tomondan, haddan tashqari mafkuralashgan va siyosiylashtirilgan. “Vatanparvarlik” tushunchasini talqin qilishning ko‘p qirraliligi, uni o‘xshash, ma’no jihatidan o‘xshashlari bilan almashtirish ushbu toifani konsepsiyalash jarayoni tugallanmaganligidan dalolat beradi. Faqat siyosiylashtirishdan, vatanparvarlikni hissiy idrok etishdan uzoqlashibgina konsepsiyaning mohiyatini ochib berish va madaniy globallashuv sharoitida vatanparvarlikning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Bundan tashqari, har birida; taraqqiyotning tarixiy bosqichlaridan boshlab davlatchilik o‘zgargan nafaqat: vatanparvarlik obyekti; vatanparvarlikning mazmunining o‘zi ham o‘zgargan; va unga munosabat. XXI asrning boshlarida, avvalgidek, dunyoda yetakchi o‘rinlarni yuqori darajadagi davlatlar egallab turibdi; rivojlanish; vatanparvarlik. Dunyo miqyosidagi o‘yinchilar boshqa xalqlarga kosmopolit identifikatorni taklif qilib, katta mablag‘ sarflamoqda; vatanparvarlikni shakllantirishda; o‘z aholisidan; Muhimligini anglab! vatanparvarlik; odamlarni yagona millatga birlashtiradigan

va fuqarolarini vatanparvarlik tarbiyasi, mamlakat siyosiy rahbariyati vatanparvarlikni an’anaviy yo‘nalishda ko‘rib chiqmoqda. Madaniy globallashuv jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan vatanparvarlik tarkibidagi o‘zgarish tendensiyalari; amalda aksini topmadi; muhim! davlat dasturlari. Biroq, yangi sharoitlarda vatanparvarlikni shakllantirish bo‘yicha an’anaviy yondashuvlar samarasiz. Vatanparvarlik nafaqat fuqarolar orasida “tarbiyalangan” bo‘lishi, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kuchidan foydalangan holda ishlab chiqilishi kerak.

Globallashuv sharoitida sodir bo‘layotgan Vatan qiyofasini vatanparvarlik obyekti sifatida o‘zgartirish ham batafsil o‘rganishni talab qiladi. Vatan endi shunchaki berilgan narsa sifatida qabul qilinmaydi, uning qiyofasi doimo o‘zini eslatib turuvchi, ijobiy histuyg‘ular va jonli vizual tasvirlar bilan bog‘liq brend sifatida joylasha boshlaydi. Globallashuv sharoitida vatanparvarlik milliy yakkalanish va o‘zini-o‘zi ta’minlashga qaratilgan emas, u zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda millatning madaniy yutuqlarini dunyoga namoyish etishga qaratilgan. Shu tarzda tushunilgan vatanparvarlikgina kosmopolitlashtirish va g‘arbiylashtirishning qarshi muvozanati va milliy hamjamiyatni muvaffaqiyatli rivojlanish shartiga aylanishi mumkin. Madaniy globallashuv sharoitida vatanparvarlik tarkibidagi ko‘rsatilgan o‘zgarishlar chuqur falsafiy tushunishni talab qiladi. Nazariy dolzarblikdan tashqari, vatanparvarlik haqidagi nutqni siyosiydan ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishga tarjima qilish jamiyatdagi qarama-qarshiliklarni kamaytirishga va millatlarni birlashtirishga yordam beradi.

Vatanparvarlik muammosini falsafiy tahlil qilish azaliy tadqiqot an’analariga ega bo‘lib, uning boshlanishi antik davrdan – vatanparvarlik fuqarolik jamiyati a’zolarining eng muhim axloqiy majburiyati deb hisoblangan davrdan boshlanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi ‘‘O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida’’gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017-yil, 6-son, 70-modda.

2. Samarov R., Qodirov U., Fazliyev F. Vatanparvarlik tarbiyasining ayrim jihatlari. – T., 2006.

3. Волковицкий Г.А. Мотивация военно-профессионального самосовершенствования. – М., 1994. – С.73.

Zokir RAXIMOV,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti professori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING SAMARALI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Talabalarning ta’lim jarayonida motivatsiyasini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta’lim shakllari hamda dars mashg‘ulotlarini izchil, maqsadli, tizimli o‘zlashtirishda zarur bo‘ladigan bir qator ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari talqin qilingan.

Kalit so‘zlar. Talaba, ta’lim, jarayon, natija, motivatsiya, sifat, maqsad, yangilik, shakllanish.

В целях повышения мотивации студентов в учебном процессе, повышения качества и эффективности обучения обсуждаются инновационные формы обучения и использование ряда образовательных технологий, необходимых для последовательного, целенаправленного, систематического усвоения уроков.

Ключевые слова. Студент, обучение, процесс, результат, мотивация, качество, цель, нововведение, образование.

In order to motivate students in the learning process, improve the quality and effectiveness of teaching, the use of innovative forms of education and a number of educational technologies necessary for the consistent, targeted, systematic mastering of lessons is interpreted.

Key words. Student, learning, process, result, motivation, quality, purpose, innovation, formation.

Talabalarning motivatsiyasini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu holat rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasida ham kuzatilgan va uni oldini olish, ta’lim oluvchilarda hayotiy va kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur ma’lumotlarni izchil, uzluksiz, maqsadli, tizimli o‘zlashtirish, ularning bilimli bo‘lib shakllantirilishiga erishish yo‘lida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu izlanishlarning samarasi sifatida bir qator ta’lim texnologiyalari yaratilgan va ular umumiy tarzda “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari” deb nomlanmoqda.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari bo‘lib, ularning o‘ziga xos jihati ta’lim oluvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridan muammoli, loyiha, hamkorlik, interfaol kabi ta’lim texnologiyalari o‘quvchi-talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda talabalar o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishni ta’minlashda quyidagilarni samarali ta’lim texnologiyalari sifatida e’tirof etish mumkin:

1. Muammoli ta’lim texnologiyalari.
2. Interfaol ta’lim texnologiyalari.
3. Hamkorlik ta’limi texnologiyalari.
4. Loyiha ta’limi texnologiyalari.

Ayni o‘rinda ta’limning mazkur texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv mashg‘ulotlarining talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishdagi ahamiyati katta hisoblanadi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi takomillashgan texnologiya hisoblanib, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida undan samarali foydalanilmoqda. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli ta’lim ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

O‘z mohiyati va didaktik imkoniyatlariga ko‘ra muammoli ta’lim texnologiyasi – talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Muammoli ta’limning quyidagi turlari mavjud:

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish (muammoli ma’ruza).
2. Muammoli topshiriqlarni hal qilish (muammoli amaliy mashg‘ulot).
3. Kichik ilmiy tadqiqotlarni olib borish (muammoli tajriba).

Interfaol ta’lim texnologiyasi ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li sifatida e’tirof etilayotgan ta’lim texnologiyasi sanaladi. O‘z mohiyatiga ko‘ra “interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug‘aviy nuqtayi nazardan “inter” – o‘zaro, ikki taraflama, “act” – harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma’nolarni anglatsa, interfaollik ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini ifodalaydi.

Interfaol ta’lim texnologiyasi talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanadi.

Ta’lim jarayonidagi interfaollik talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi. Mantiqiy nuqtayi nazardan esa interfaollik, eng, avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatni olib borishlarini ifodalaydi.

Interfaol ta’lim o‘qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, talaba va talabalar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda talabalarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi – talaba – talabalar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo‘llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo‘lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi.

Interfaol ta’lim texnologiyalari mohiyatiga ko‘ra suhbatning “talaba – axborot-kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini anglatadi.

O‘qituvchi interfaol ta’lim texnologiyasi yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi. Eng muhimi, interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘qituvchi talabalarning aniq ta’limiy maqsadga erishish yo‘lida o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo‘naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Interfaol ta’lim texnologiyalarini qo‘llash jarayonida talabalar quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘ladi:

– guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;

– tengdoshlari orasida o‘z g‘oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hyech qanday ruhiy to‘siqlarsiz namoyish etish;

– muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;

– guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;

– o‘z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to‘liq namoyon qila olish;

– fikrlash, fikrlarni umumlashtirish, eng muhimlarini saralash;

– o‘z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;

– o‘z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;

– turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish.

Talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishda ularni o‘quv, ilmiy va ijodiy loyihalarni tayyorlashga jalb qilish ham kutilayotgan samarali natijalarni kafolatlay oladi. Loyihalar bilan ishlash oliy ta’lim tizimida alohida o‘rin tutib, talabaga an’anaviy o‘qitish metodlari ta’minlay olmaydigan bilimlarni egallash imkonini yaratadi.

Samarali loyiha:

– amaliy qiymatga ega bo‘lishi;

– talabalarga mustaqil tadqiqot olib borish imkoniyatini yaratishi;

– ish jarayonining o‘zi kabi u bilan ishlashda ham, uni yakunlashda ham birdek avvaldan taxmin qilish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi zarur;

– keng spektrdagi vazifalarni hal qilishda talaalarning iqtidorini namoyon bo‘lishini ta’minlay olishi lozim;

– talabalar o‘rtasida hamkorlikni o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Loyihalarning samarali bo‘lishiga salbiy ta’sir etuvchi omillar ham mavjud. Bu o‘rinda quyidagi omillar ko‘rsatiladi:

1. Shaxs omili: pedagog tomonidan loyihalarning tayyorlanishiga iliq munosabat bildirilmasligi; pedagog va talaba o‘rtasida muloqot jarayonida yosh tafovutlari tufayli ziddiyatlarning kelib chiqishi; ishga turlicha yondashish.

2. Kasbiy omil: pedagoglar tadqiq etiladigan muammo bo‘yicha bilim sohasini zarur darajada bilmasliklari.

3. Tashkiliy omil: loyiha rahbarlariga ko‘p sonli talabalarning biriktirilishi; ko‘p vaqtning tashkiliy masalalarni yechishga qaratilishi; ta’lim jarayonida talabaning “yakka holda ajratib qo‘yilishi” (o‘z holiga tashlab qo‘yilishi); o‘qitish jarayonining texnik, texnologik jihozlar bilan yetarlicha ta’minlanmaganligi.

Loyihalarni tayyorlashda talabalar metodik ko‘rsatmalar bilan to‘la qurollantirilishi zarur. Talabalarni loyihalarni tayyorlashga yo‘naltirishda ularni metodik ko‘rsatmalar bilan qurollantirish bu kabi ishlarning sifatli, amaliy qiymatga ega bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, talabalarning o‘quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o‘qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta’lim texnologiyalaridan foydalanish zarur ahamiyatga ega hisoblanadi. Muammoli ta’lim, interfaol ta’lim, hamkorlik ta’limi, loyiha ta’limi texnologiyalari talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi. Shu sababli ulardan faol foydalanish zarurligi ta’kidlanmoqda. So‘nggi yillarda bosqichma-bosqich, biroq, izchil rivojlanib kelayotgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari bevosita ta’lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, yuqori intellektga ega, ruhiy jihatdan barqaror, raqobatga bardoshli mutaxassislar bilan ta’minlash maqsadlariga xizmat qilmoqda. Mohiyatiga ko‘ra, muammoli, interfaol, hamkorlik, loyiha texnologiyalari ta’lim tizimida o‘qitish jarayonining bir xil, zerikarli bo‘lishining oldini olish, aksincha, uning qiziqarli, faol, jo‘shqin bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo‘yicha o‘quv-metodik majmua /Tuzuvchilar: Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. – 62-63-b.

2. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / – T.: Sano-standart nashriyoti, 2015. – 150-b.

3. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jayev A.A., Qodirov H.Sh. Ta’lim texnologiyalari. Darslik. –T. Voris nashriyoti – 2019. 568-b.

4. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Hamidov J.A. Kasb ta’limi metodikasi. Darslik. –T “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. 282-b.

5. Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013. – 4-b.

Husen SAFOYEV,
Buxoro davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti mustaqil izlanuvchisi

TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada Vatanparvarlik tushunchasi harbiy vatanparvarlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi – ularda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti, xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish bo'yicha ustuvor vazifalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Talaba-yoshlar, harbiy vatanparvarlik, Vatanparvarlik ta'lim, tarbiya, tarixiy tajribalar, konstitutsiya, milliy armiya, mardlik, botirlik, jonkuyarlik.

В статье понятие патриотизма тесно связано с военным патриотизмом, целью воспитания молодежи в военно-патриотическом духе является проявление активности в различных сферах жизни общества, особенно в видах государственной службы, связанных с военной сферой. В то же время были проанализированы приоритетные задачи по формированию таких важных качеств, как верность Конституции и воинскому долгу в мирных и военных условиях, высокая ответственность и ответственность за судьбу своей страны и народа.

Ключевые слова. Студенческая молодежь, военный патриотизм, патриотическое воспитание, воспитание, исторический опыт, Конституция, национальная армия, храбрость, хакерство, бодрость.

In the article the concept of patriotism is closely related to military patriotism, the purpose of educating young people in the military-patriotic spirit is to show activity in various branches of society, especially in the types of civil service associated with the military sphere. At the same time, priority tasks on the formation of such important features as loyalty to the Constitution and military duty in the peaceful and military conditions, high responsibility and responsibility for the fate of their country and people were analyzed.

Key words. Student-youth, military patriotism, patriotic education, upbringing, historical experiences, constitution, national army, bravery, hacking, vivacity.

Ma'lumki, Vatan, uning himoyasi, vatanparvarlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasida: "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir", deb belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarida talabalariga ushbu haqiqatni muntazam tushuntirishimiz, ta'kidlashimiz, shu tariqa Vatanga sadoqat va vatanparvarlik tuyg'usini ularning ongi va qalbida mustahkam qaror toptirish lozim.

Vatan hissi – bu o‘z ona yurti, xalqini sevish, hurmat qilish, qadriga yetish demakdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deb ta’kidlagan.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish talab etiladi:

• talaba-yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga o‘zining ona yurti himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish;

• xalqimizning milliy madaniyati, qadriyatlari, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish;

• yoshlarda O‘zbekiston Respublikasi Milliy armiyasining qudrati, kuchi va salohiyatiga bo‘lgan ishonch hissini kuchaytirish;

• yoshlarni milliy armiyamiz sha’ni va g‘ururini himoya qilishga o‘rgatish;

yoshlar ongiga vatanimizni turli yot oqimlar, g‘oyalar, terroristik tashkilotlar xurujidan himoya qilish zarurligini uqtirish, buning uchun juda katta jonbozlik ko‘rsatish, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

yoshlarda mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilish, chegaradosh mamlakatlar va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini shakllantirish;

yoshlarda murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika va axborot kommunikatsion vositalardan samarali foydalanish malakasini qaror toptirish.

• 2002-yil 12-dekabrdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash” nomli 2-bobi 12-moddasida chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash va bunda quyidagilarni amalga oshirish belgilab berilgan.

Jumladan:

• chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik;

• chaqiriluvchilarning harbiy-texnika mutaxassisliklari bo‘yicha tayyorgarligi;

• oliy harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishga tayyorgarlik;

• jismoniy tayyorgarlik, davolash-sog‘lomlashtirish ishlari;

• umumta’lim tayyorgarligi;

• vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yuqorida ta’kidlanganidek, ularni avvalambor, oliy harbiy ta’lim muassasalariga qamrab olish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-3898-son qarori 1-ilovasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi” tasdiqlandi.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi mustaqil, keng dunyoqarash va fikrlashga ega,

iymon-e’tiqodi va irodasi mustahkam, ma’naviyatli va fidoyi, ajdodlarimizning bebaho merosiga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – Vatan himoyachilarini tarbiyalash, ularning dunyoqarashlarini, mantiqiy, ijodiy va tahliliy fikrlash doirasini kengaytirish, ona Vatan taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu konsepsiyada bir qator vazifalar ham belgilab berilgan, ularni o‘z vaqtida tizimli tarzda hal etish zarur. Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida yo‘l xaritalari ishlab chiqilishi, unda bu sohadagi barcha muammolar va ularni hal etish yo‘llari, usullari ko‘rsatilish lozim.

Yuqorida ta’kidlanganidek, talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ushbu konsepsiyasining ahamiyati muhimdir. Konsepsiyada mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari va tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, hozirgi murakkab globallashuv davrida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bog‘liq dolzarb vazifalar va ularni hal etish yo‘llari, davlat va nodavlat tashkilotlar, oila, mahalla, ta’lim-tarbiya institutlarining bu boradagi o‘rni va ahamiyati, o‘zaro hamkorligini milliy va xalqaro huquqiy me’yorlarni hisobga olgan holda belgilab berilgan. Konsepsiyada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga ma’nan va jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashga oid yaxlit ta’lim-tarbiya tizimining uzviy va ajralmas bir qismi sifatida qaralib, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari asosida milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, bugungi O‘zbekiston hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda takomillashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu Konsepsiyaning amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasi yoshlarida harbiy vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish, Vatanga fidoyilik va sodiqlik bilan xizmat qilishga bo‘lgan mas’uliyatini oshirish, milliy armiya saflarini zamonaviy bilim va professional malaka, mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3907-son qarori 1-ilovasi bilan “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” ishlab chiqilgan.

Ushbu dasturda yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bosqichlari, amalga oshirish yo‘llari, usullari belgilab berilgan.

• Eng asosiysi, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning ma’naviy merosi, xalqimiz tomonidan yaratilgan ulkan qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Ularni har tomonlama o‘rganib, tahlil qilib, talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda unumli foydalanish zarur.

Jumladan:

ajdodlar ma’naviy merosi va xalqimiz tomonidan yaratilgan ulkan qadriyatlarning mazmun-mohiyatini zamonaviy pedagogik va AKT vositalari yordamida talabalar ongi va qalbiga yetkazish;

mardlik, botirlik, jonkuyarlik va jasorat kabi insoniy sifatlar ulug‘langan asarlarni targ‘ib qilish maqsadida talaba-yoshlar orasida kitobxonlik kechalarini tashkil etish;

“Bu buyuk Vatan barchamizniki”, “Vatanparvarlik – buyuk fazilat” “Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni” kabi mavzularda ko‘rik-tanlovlar uyushtirish;

“Buyuk ma’rifatparvarlar vatanparvarlik haqida”, “Ajdodlar merosi – avlodlar tarbiyasida”, “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiya – davr talabi”, “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va oila” mavzularida referatlar tayyorlash;

“Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mahalla-ta’lim muassasasi va oila hamkorligi” rukni ostida muntazam ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish;

“Vatanimiz O‘zbekiston”, “Vatanparvarlik tarbiyasi”, “Vatanga muhabbat tuyg‘usi”, “Men nechun sevaman, O‘zbekistonni?” mavzularida badiiy kechalar, bahs-munozaralar o‘tkazish;

II jahon urushi va Afg‘onistonda bo‘lib o‘tgan jangu-jadallarda ishtirok etgan urush qatnashchilari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari uyushtirish.

Yuqorida tashkil etilishi sanab o‘tilgan turli ko‘rik-tanlovlar va tadbirlar g‘oliblarini moddiy va ma’naviy jihatdan rag‘batlantirish zarur. Ularni rag‘batlantirishda shaffoflik, haqqoniylik tamoyillariga amal qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi –T., O‘zbekiston, 1992-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. https://uza.uz/oz/documents/o‘zbekiston-respublikasi-oliy-ta’lim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019.

3. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. –488-b.

4. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining qarori. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.02.2018-y., 09/18/140/0816-son)

Farxod TO‘RABEKOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, ‘‘Innovatsion ta’lim’’ kafedrasi dotsenti

“TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISH METODIKASI” FANI BO‘YICHA MULTIMEDIALI ELEKTRON DARSLIK YARATISH METODIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi fanidan multimediali elektron darslik yaratish metodikasi to‘g‘risida fikr bildirilgan. Multimediali elektron darslik mazmunining eng ahamiyatli jihati virtual topshiriqlarni bajarishda ma’lum qiymatlarni tanlaganda yuza g‘adir-budirligining kattalashtirilgan tasvirda ko‘rinishi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Texnologiya, o‘qitish, metodika, multimedia, elektron, darslik, mazmun, axborot texnologiyalar.

В статье рассматривается методика создания мультимедийного электронного учебника по теме методики обучения технологиям. Важнейшим аспектом содержания мультимедийного электронного учебника является появление шероховатости поверхности на увеличенном изображении при выборе определенных значений при выполнении виртуальных задач.

Ключевые слова. Технология, обучение, методика, мультимедиа, электронная, учебная, контент, информационные технологии.

The article discusses the methodology for creating a multimedia electronic textbook on the topic of technology teaching methods. The most important aspect of the content of a multimedia electronic textbook is the appearance of surface roughness in an enlarged image when certain values are selected when performing virtual tasks.

Key words. Technology, training, methodology, multimedia, electronic, educational, content, information technology.

Axborot texnologiyasi – bu turli masalalar yechimini topish maqsadida axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, ifodalash, taqsimlash, uzatish va uni iste’molchiga yetkazib berish jarayonlarini kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiradigan, tartibga solingan va tashkillashtirilgan tizimli va amaliy dasturlar majmuidir.

Zamonaviy tushunishda esa axborot texnologiyasi – bu axborot bilan ishlash uchun maxsus usullar, dasturiy va texnik vositalar foydalaniladigan pedagogik texnologiya.

Axborot texnologiyalaridan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv rejalarida ko‘zda tutilgan fanlarni o‘qitish jarayonida foydalanish bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshirish uchun ulkan imkoniyatlarni taqdim etadi.

Axborot texnologiyasidan ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan o‘quv jarayonida o‘rganish fanni, obyekti, xuddi shuningdek, o‘qitish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Axborot texnologiyasi o‘qitish vositasi sifatida talabalar bilish faolligini oshirishning

muhim omili hisoblanadi va ularga o‘zlarini qiziqtirgan savollar bo‘yicha qo‘shimcha bilimlar olishiga imkoniyat yaratadi hamda ularda axborotni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi va takomillashtiradi.

Ta’limga axborot texnologiyalarining joriy etilishi axborotni qayta ishlash va uzatishning elektron vositalariga asoslangan yangi o‘qitish texnologiyasi va o‘qitish shakli foyda bo‘lishiga olib keladi. Kuchli multimedia tizimi va interaktiv o‘qitish vositalarining paydo bo‘lishi esa o‘qitishning jadal rivojining asosi bo‘lib xizmat qila boshladi. Ammo, o‘quv jarayonida foydalanilayotgan texnik vositalarning xilma – xilligiga qaramasdan shuni ta’kidlash lozimki, o‘qitish sifati eng, avvalo, o‘quv materiali mazmuniga uni o‘rganuvchiga taqdim etish shakliga va o‘quv jarayonining tashkil etilishiga bog‘liq.

Shuning uchun ham hatto o‘qitishning an’anaviy sxemasida yangi axborot oqimining keskin o‘sishi, bilimlar tizimi murakkablashuvi, illyustrativ materiallar mavjud emasligi bilan bog‘liq ko‘plab muammolar vujudga keladi. Multimedia texnologiyasi va vositasining paydo bo‘lishi esa bu muammolarni yechishga imkon yaratdi. Chunki, kompyuterni o‘quv jarayoniga joriy etish matn, grafika, animatsiya, tovushli va video elementli, uch o‘lchovli model ko‘rinishidagi illyustrativ materiallar yaratishga imkon beradi. Interaktiv kompyuter dasturlar esa talabaning nutqli, fikriy, jismoniy va perseptivli faoliyatini faollashtiradi. Kompyuterli trenajyorlar esa amaliy ko‘nikmalarni egallashga imkon beradi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quv jarayoniga multimedia texnologiyasi va vositalarini qo‘llash, o‘quv jarayonini tashkil etishning an’anaviy va kompyuterli shaklining ongli ravishda birlashish natijasida, bilimlar tizimi sifatli uzatiladigan va o‘zlashtriladigan o‘qitish sxemasini qurishga imkon beradi.

Samarali kompyuterli o‘qitish vositalarini yaratish – bu yetarli darajada murakkab va qiyin ish. Bu ayniqsa, multimedia dasturlariga bevosita ta’lluqli. Birinchidan, multimedia dasturlarini yaratishda talabalarning multimedia texnologiyasiga va umuman kompyuterga individual munosabati e’tiborga olinishi lozim; ikkinchidan, multimedia dasturini yaratuvchi o‘qituvchidan nafaqat kasbiy bilim, balki undan kompyuter texnologiyasi sohasidagi bilimlar, dizayn va boshqa ko‘pgina bilim va malakalar talab etiladi; uchinchidan, multimedia dasturlarini yaratish uchun zamonaviy uskunaviy va dasturiy vositalar zarur.

Multimediali elektron darslik yangi avlodining tuzilishi juda murakkab bo‘lib, asosiy matn bilan bir qatorda qo‘shimcha axborotlarni berishga yo‘naltiriluvchi “yordamchi” elementlarning turli shakllari ushbu manbaning tashkil etuvchilari hisoblanadi. Mazkur tashkil etuvchilarining kitob (yoki ekran maydoni) dagi matnga nisbatan joylashuvi matn lavhalari bilan uzviy bog‘liqlikda bo‘lishni taqozo etadi, natijada, matn bayonining mantiqiy ketma-ketligi ta’minlanadi. Matnning kommunikativlik xususiyati talabada mustaqil holda mantiqiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Multimediali elektron darslik:

1) o‘quv dasturi va o‘quv-metodik ishlarni nashr etilishiga nisbatan qo‘yiluvchi talablarga javob bera olishi va muayyan soha yo‘nalishi bo‘yicha birinchi bor taqdim etilayotgan yoki avval nashr etilgan metodik qo‘llanmaning elektron versiyasi sifatida tayyorlangan bo‘lishi;

2) ma’lum o‘quv fani (yoki uning bir qismi) ning mazmunini ochib berish hamda o‘quv-metodik maqsadlarga erishishga imkon yaratadigan darajadagi hajmga ega bo‘lishi;

3) o‘quv-metodik maqsadlarga erishishga yordam beruvchi ko‘rgazmali elementlar (ya’ni, maksimal darajada kompyuterning multimediali imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyati) ga ega bo‘lishi;

4) materialni monitor ekranidan ko‘rish va tarmoq bo‘ylab joylashtirish xususiyatini inobatga olishi;

5) matnda murojaat qilishlarning mavjudligi bilan birga, zarur hollarda WEB manbalari va boshqa axborot resurslarining ko‘rsatilishi;

6) materialni o‘zlashtirish darajasining talaba tomonidan mustaqil baholanishiga imkon beruvchi nazorat savollarining mavjud bo‘lishi kabi talablarga javob berishi kerak.

Multimediali elektron darslikning asosiy mazmuni qo‘yidagilar asosida shakllantiriladi:

– tayanch konspekt;

– ma’ruzalar matni;

– detallashtirilgan kurs;

– kursning chuqurlashtirilgan alohida bo‘limlari.

Multimediali elektron darslik va uning har bir bo‘limida asosiy material bayonidan avval albatta kirish qism mavjud bo‘lishi kerak. Unda fanning umumiy tarkibi, qismlari hamda ular o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘la aks ettirilgan bo‘lishi kerak.

Kirish qismida:

– fanning davlat ta’lim standartiga mos keluvchi dasturi, asosiy masalalar ro‘yxati, ularning mohiyati, shuningdek, ularni hal etishning dolzarbligi va ahamiyati;

– bo‘lim yoki birorta mavzuning asoslarini puxta o‘zlashtirish imkon beruvchi fanlar;

– fanning asoslarining puxta o‘zlashtirilishi, mazkur fan mazmunini yoritishda boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorlik;

– fanning tuzilishi, bo‘limlari o‘rtasidagi funksional va mantiqiy bog‘liqliklar;

– fanni o‘rganish tartibi bo‘yicha (qaysi bo‘limlarni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatining mavjudligi borasidagi) umumiy tavsiyalar;

– fan o‘quv dasturi doirasidan tashqarida bo‘lgan masalalarni o‘rganishga imkon beruvchi omillar hamda mutaxassislarning alohida guruhlari uchun fanning muayyan bo‘limlarini o‘rganish borasidagi ko‘rsatma va sharhlar, shuningdek, adabiyotlarga ilovalar aks ettirilishi zarur.

Har bir mavzu misol va masalalar yordamida ochib berilishi zarur, ya’ni:

– ko‘rsatmalarning (to‘laqonli yechimlar bilan) bayon etilishi;

– javoblari ko‘rsatilgan holda mustaqil yechish uchun topshiriqlarning berilishi;

– nazorat yechimlarining (fanning o‘rganilgan bo‘limlarini qayta o‘rganish zarurligini ko‘rsatish) berilishi;

– fanning o‘rganilgan bo‘limlarini bog‘lovchi nazorat savollarining tavsiya etilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To‘rabekov F. S. Bo‘lajak mehnat ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash metodikasi: Ped. fan. nom.… diss //T.: TDPU. – 2011. – T., 177-b.

2. Турабеков Ф. С. Основные подходы к созданию электронного учебника по методике трудового обучения //Вестник Университета Российской академии образования. – 2010. – №. 4.

3. To‘rabekov F.S. “Axborot texnologiyalari texnologik ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish vositasi sifatida”. Архив научных исследований, т. 1, вып. 44, феврал 2021 г.

Sayyora RUZMETOVA,
Toshkent davlat texnika universiteti doktoranti

TALABALAR BILIMI TRANSFORMATSIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalarning o‘rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif “bilim transformatsiyasi” atamasi ta’rifini shakllantirib bergan.

Kalit so‘zlar. Bilim transformatsiyasi, raqamli texnologiya va kommunikatsiya, munosabat, integratsiyalashuv, axborot.

В статье рассматривается роль цифровых технологий в трансформации знаний студентов. Также автор сформулировал определение термина “трансформация знаний”.

Ключевые слова. Трансформация знаний, цифровая технология и коммуникация, отношение, интеграция, информация.

The article gives an idea of the role of digital technologies in the transformation of student knowledge. Also, the author beogan formulated the definition of the term “knowledge transformation”.

Key words. Knowledge transformation, digital theology and communication, attitude, integration, information.

Texnika oliy ta’lim muassasalarining ta’lim tizimiga innovatsion g‘oyalarni tatbiq etish, mexanizm va texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish eng dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Globallashuv davrida davlatlar o‘rtasidagi madaniy, ta’limiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi natijasida yetuk mutaxassislarni tayyorlash va shu asnoda jahon miqyosida uzatilayotgan axborotlardan xabardor bo‘lish ta’lim islohotlari jarayonida belgilangan barcha ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Bo‘lajak mutaxassislar axborot resurslaridan keng foydalanish ularning kasbiy faoliyat kompetensiyalari imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Raqamli qurilmalar va tezkor ma’lumotlarni uzatish texnologiyalarining jadal rivojlanishiga sabab bo‘layotgan global o‘zgarishlar dunyo ta’lim sohasida keskin o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Jahon ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi tahsil oluvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilmoqda.

Mamlakatimizda bo‘lajak kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or metodlarini joriy qilish orqali yetuk mutaxassislarni tayyorlashga zamin yaratilmoqda. Ta’lim jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilishi ushbu sohaning qonunchilik asoslarini ham mustahkamlanishiga olib keldi. Prezidentimizning 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ana shunday shiddatli davr talabiga hamohang ravishda o‘z vaqtida qabul qilingan hujjat ekani bilan g‘oyat ahamiyatlidir. Hozirda ta’limga axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tatbiq etish, davlat–ta’lim-tarbiya–jamiyat shaklidagi uzluksiz ta’lim boshqaruvi samaradorligini oshirish, e-Governance tizimi

institutlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasini o‘rganishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini tadqiq qilishga ehtiyoj oshmoqda. Bunda, oliy ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak kadrlar, bugungi kun talabalari bilimini transformatsiyalash orqali ta’lim sifatini yangi pog‘onaga ko‘tarish, pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son, 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5763-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4851 sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish o‘ta muhimdir.

Aynan shu jihatdan, talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Ma’lumki, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yilning 16-iyun kuni oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida oliy ta’lim sohasidagi 4 ta ustuvor vazifa ko‘rsatib o‘tildi (Rasm):



Ushbu vazifalar oliy ta’lim muassasalari boshqaruv kengashlarining rolini oshirish va kafedralar vakolatlarini kengaytirish; o‘quv jarayonini bozor talablariga moslashtirib, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta’minlash va talabaning o‘z ustida ishlashi uchun muhit yaratish; oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish; sohani raqamlashtirish orqali byurokratiya va korrupsiyani keskin qisqartirish.

Raqamli texnologiyalar talabalarning bilim o‘zlashtirishlarida o‘quv materialini reproduksiyalash, konstruktorlik vazifalarini bajarish, ijodiy topshiriqlarni bajarish, vaziyatli

muammolarni hal etish, e’tiqodni shakllantirish, o‘zini-o‘zi o‘qitish, analitik tavsifdagi topshiriqlarni bajarishda katta samara beradi.

Biz ilmiy ishlanmalar, manbalarni tahlil qilib, bilim transformatsiyasi atamasiga kamdan-kam ta’rif berilganligining guvohi bo‘ldik. Barcha manbalarni tahlil qilib, “bilim transformatsiyasi” atamasida mualliflik ta’rifini shakllantirdik.

Bilim transformatsiyasi – bu ma’lumotni o‘zgartirish, ya’ni rasmiylashtirilgan va norasmiy bilimlarning ijtimoiy jihatlari orqali bilimlarni tarqatish jarayonidir. Bilim transformatsiyasida bilimlar shaxslar o‘rtasida sodir bo‘lgan ijtimoiy jarayonni anglatadi.

G‘arb an’analariga ko‘ra, rasmiy bilimlarni egallash odatiy holdir. Shunga qaramay, ikkala turdagi bilimlarning ikkalasi alohida deb hisoblanishi kerak. Shuni ta’kidlash kerakki, shaxsda emas, balki shaxslar o‘rtasidagi ijtimoiy jarayonning o‘zgarishiga bilim transformatsiyasi deyiladi.

Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalar bilim transformatsiyasining asosiy g‘oyasi mazkur jarayon tadqiqiy va tahliliy yo‘nalishga ega bo‘lishi; o‘qituvchilar bilan tinglovchilarning o‘zaro ijodiy hamkorligini ta’minlovchi refleksiv ta’limiy muhitni vujudga keltirish; ta’lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy imkoniyatlarini takomillashtirish uchun zaruriy psixologik muhitni vujudga keltirish;

Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalar bilimi transformatsiyasida dasturiy vositalar: Moodle, Wordpress, PHP, Turbo Site, Bandicam, Audisity, Movavi Video, Editor Plus, AutoPley, Media Studio 8, Macromedia Flashdan elektron axborot resurslarini yaratish va ta’lim sifatini oshirish jarayonida samarali metodik manba sifatida foydalanish mumkin.

Raqamli texnologiyalar talabalarda bilimlarni o‘zlashtirish transformatsiyasini tashkil etar ekan, ular orqali:

1. Professor-o‘qituvchilarda axborot texnologiyalari, bu sohadagi ilg‘or xorij tajribalari haqida tasavvur hosil qilish va ulardan amaliyotda foydalana olish kompetensiyalarini rivojlantirish;

2. Tahsil oluvchilarda esa ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, bilim olishni faollashtirishga imkoniyat yaratish hamda kelgusidagi kasbiy kompetentliligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, o‘qitish jarayonida ular asosida onlayn va oflayn seminar-treninglar, maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish va amaliyotga tatbiq etishga imkoniyat yaratiladi;

4. Talabalarda bo‘lajak mutaxassislikka yo‘naltirilgan kompetensiyalarni axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘rganish hamda uni joriy etish orqali takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish masalalari rivojlangan xorijiy davlatlarning ilmiy ishlanmalarida o‘rganilmoqda. Shu yo‘nalishda biz adabiyotlar, monografiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tahlil qildik.

Rus olimlari N.N. Zvereva, A.A. Kasyanlar tomonidan tayyorlangan “Методологическое знание в содержании образования” nomli risolasida: (Pedagogika. – 2019. №1. –S. 9-11) “Ta’lim oluvchilar rivojlanishining yuqori darajasiga faqat rivojlantiruvchi ta’lim orqali erishish mumkin, bunda ta’lim oluvchilar bilimlarnigina o‘zlashtirib qolmay, balki bilim olish usullarini ham o‘zlashtiradi. Bilim olish usuli bu – subyektiv bilish vositalari bo‘lib, ularsiz ta’lim oluvchilarning ijodiy faoliyati amalga oshmaydi” – degan fikrni ilgari surishadi. Darhaqiqat, rivojlantiruvchi tizimda bilimlar ta’lim oluvchilarning faol mustaqil bilish faoliyati jarayonida olinadi, o‘qituvchining asosiy vazifasi, ta’lim oluvchilarga ularning bu bilimlarga bo‘lgan ehtiyoji va faolliklariga bog‘liq bo‘lmagan holda tayyor

bilimlarni uzatishdan iborat bo‘lgan an’anaviy tizimdan farqli, ta’lim oluvchi faoliyatini boshqarishdan iborat bo‘ladi.

A.A.Abduqodirov o‘zining “Теория и практика интенсификатсии подготовки учителей физико-математических диссиплин” (–T., Fan, 1991) asarida ta’kidlashicha: “O‘qituvchining o‘quv vaqtining ko‘p qismi axborot berishga qaratilgan bo‘lib, kam qismi o‘quv materialini o‘zlashtirilish darajasini aniqlashga qaratilgan”. Demak, teskari aloqaning o‘rnatilmaganligi o‘qituvchining o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etishiga salbiy ta’sir etadi. S.I.Arxangelskiyning “Некоторые новые задачи высшей школы и требования к педагогичекому мастерству” (Oliy muassasaning ayrim yangi vazifalari va pedagogik mahoratga quyiladigan talablar”) kitobida (–M., “Знание”, 2011) ta’limning faol vosita, shakl va metodlaridan foydalanib, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish-o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki masalani: ta’lim sifatini oshirish va shu bilan bir vaqtda vaqt sarfini kamaytirishdan iborat” degan fikrni ilgari suradi.

Tahlillar natijasidan aniqlanishicha, talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishda asosan quyidagi kamchiliklar uchraydi:

– auditoriya mashg‘uloti elementlari o‘rtasida vaqtni taqsimlash yuzasidan darsni noto‘g‘ri rejalashtirish;

– yangi materialni o‘tish uchun haddan tashqari oz vaqt ajratish va buning natijasida, talabalarning ta’limiy ehtiyojlarini inobatga olmaslik, yetarli darajada faollashtirishga vaqt ajratmaslik;

– qisqa vaqtga bo‘lsa ham talabalarni o‘z holiga maqsadsiz tashlab qo‘yish, doskadagi taqdimot javobini kutib o‘tirish, uy vazifalarni tekshirishda qolgan talabalarning nazoratsiz qolishi v.h.;

– mavzu yuzasidan qoidalar, xulosalarni chiqarmay turib, o‘yga vazifa berish;

– yangi materialni talabalarga tez sur’atlar bilan (tushunish, qisqacha yozib borishga imkon bermay) yoki aksincha juda sekinlik bilan o‘tish va boshqalar.

Ta’lim jarayonida ta’lim sifatini oshirish, qo‘yilgan maqsadga olib boruvchi jarayonni rejalashtirish, eng muhimi kutilgan natijani ta’minlashda raqamli texnologiyalardan ham unumli foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947-sonli Farmoni,

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5763-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

Abdujalil TOLAMETOV,
O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsent v.b.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA JISMONIY TARBIYA FANIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Annotatsiya

Umumta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya fani pedagoglar nigohida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot, axborot texnologiyalar, axborot kommunikatsion texnologiyalar, kompyuter dasturlar.

В статье освещены актуальные проблемы использования современных информационно-коммуникационных технологий в общеобразовательных учреждениях.

Ключевые слова. Информационные, информационные технологии, информационно-коммуникационные технологии, компьютерные программы.

The science of physical education in secondary schools through the eyes of educators highlighted the actual problems of the use of modern information and communication technologies.

Key words. Information, information technology, information communication technology, computer applications.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari joylarda ularning ijrosi bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi, PF-5789-sonli “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi Farmonida “...Rahbar va pedagog kadrlarda Internet jahon axborot tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holda, ilg‘or pedagogika, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni egallash va ularni o‘quv jarayoniga faol tatbiq etish ko‘nikmalarini rivojlantirish”- ta’kidlab o‘tilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli Qarorida raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri bu, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo‘lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta’lim infratuzilmasini takomillashtirish vazifalari qo‘yilgan, shuningdek, “Besh tashabbus” loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikaning barcha hududlarida raqamli bilimlarga o‘qitish markazlarini ochish belgilangan.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga binoan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasida hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalari biriktirilgan hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o'qitiladi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilishi, sport ta'lim muassasalaridagi shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni o'sib borishi sport ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda muhim muammolarni bartaraf etishga qaratilgan talablardan birdir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hozirgi zamon talabiga aylangan. Umumta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini zamonaviy kompyuter texnologiyalari hamda qurilmalaridan foydalanish bo'yicha bilim, malakalari asosida ta'lim jarayonlar samaradorligiga aniqlash va faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlaridagi mavjud vaziyatlarni, ehtiyoji va qiziqishini o'rganish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ishning maqsadi – umumta'lim muassasalari jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi muammolarni aniqlashtirish hamda mazkur masalaning amaliy ahamiyatini tahlil qilish.

Tadqiqot usullari – respublikamizdagi umumta'lim maktablarda faoliyat olib borayotgan jismoniy tarbiya fani pedagog o'qituvchilari bilan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolarini bo'yicha anketa-so'rovi o'tkazish orqali o'rganish va tahlil qilish.

Umumta'lim maktablarda jismoniy tarbiya faninig o'quv jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan mobil telefonlar, kompyuterlar, planshetlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan axborot resurslarini yaratish bugungi kunning talabiga aylangan. Bu, ta'limning yangi shakl va usullaridan foydalanish, an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi ta'lim shakli – axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari bo'yicha sharoitlarni yaratilishiga omil bo'ldi.

Zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalarini jadal ommalashuvi natijasida, ular jahon media maydoni sahnasida katta mavqega ega bo'lmoqda. Shunday ommaviy muloqot vositalaridan biri – ijtimoiy tarmoqlardir. Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani bo'yicha mustaqil o'zlashtirishda ijtimoiy tarmoqlarni targ'ibotchi sifatida e'tirof etish mumkin. Uni e'tiborli jihati shundaki, yoshlarimizni jipslashtirayotgan ijtimoiy tarmoqda jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat, sog'lamlashtirish hamda sportga oid ommabop guruhlar orqali yoshlarni sport yo'naltirishda bevosita xizmat qilmoqda. Buni tasdiqini respondentlarni "Asosan qaysi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanasiz?" degan savolga bergan javoblaridan ham ko'rish mumkin. Ularning 86,4 foiz – Telegram, 10,6 foizi – WhatsApp, 15,2 foizi – Instagram, 16,3 foizi – Facebook, 25,4 foizi – boshqa ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlarini bildirganlar, 3,2 foizi esa, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmasligini bildirgan.

"Kasbiy faoliyatingiz uchun yangiliklarni internetning qaysi manbalaridan olasiz?"

degan savolga 20,2 foizi – ziyonet ta’lim portalidan, 50,7 foizi – youtebedan, 52,3 foizi – Telegram messenjirda, 15,5 foizi – Instagramdan, 13,6 foizi – Facebookdan, 41,6 foiz. – turli internet sahifalaridan olishlarini bildirganlar. Ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari sportga oid asosiy yangiliklarni Telegram messenjiri va youtebedan olishadi. Eng muhimi, bugungi davrda ijtimoiy tarmoqlar an’anaviy ommaviy axborot vositalari bilan chambarchas bog‘lanib, birgalikda rivojlanib borar ekan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ulardan kengroq va samaraliroq foydalanish mumkin. Ana shu tarmoqlardagi axborot oqimlarini to‘g‘ri yo‘lga solish, jahon tajribasi asosida xabarlar va yangiliklarni kuzatib borish va ularni tartibga keltirish, zarur holatlarda boshqarib borishni yo‘lga qo‘yish, yuzaga kelayotgan yangi imkoniyatlarni tadqiq etish va mustahkamlash orqali samaradorlikni oshirish zarurdir. Bu esa, respublikamizda shu ijtimoiy tarmoqlarni o‘rnini egallay oladigan milliy ijtimoiy tarmoq yoki saytlarni ko‘paytirish hozirgi zamon talabidir.

Zamonaviy kompyuterning amaliy dasturlari paketida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik holatini nazorat va tahlil qilishga mo‘ljallangan. Bunday amaliy dasturlar yordamida o‘quvchilarning jismoniy holatini nazorat qilish va tahlili orqali dars jarayoni uchun eng maqbul dasturni tanlash va dars rejasini tuzish imkoniyatini beradi. Jumladan, so‘rovnomadagi o‘quv mashg‘ulot jarayonidagi o‘lchash natijalarini kompyuter dasturalari yordamida tahlil qilasizmi?” degan savolga 49,6 foizi ijobiy javob bergan, 3 foiz buni keraksiz deb hisoblashini bildirgan va 47,4 foizi foydalanmasligini ta’kidlagan.

Agar umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari zamonaviy kompyuter dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish haqidagi ma’lumotlari olish va olingan ma’lumotlar asosida batafsil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu texnologiyalar tufayli qisqa vaqt ichida jismoniy tarbiya fani samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

Hozirgi vaqtda jismoniy tarbiya jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida sport-ta’limidagi pedagoglar, trener-o‘qituvchilar, sport yo‘riqchilari va sport uslubchilari yuqori samarali kasbiy yo‘naltirilgan tayyorgarlik imkonini beradigan kompyuter dasturlarini diagnostika tizimlarida qo‘llashi zamon talabidir. Respondetlarning orasida “Jismoniy tarbiya va sportda multimediali dasturiy vositalardan foydalanish orqali shaxsiy qiziqishni shakllantirish, o‘z sog‘ligiga qiziqishni, qobiliyatini kuchaytirish va ularni yanada rivojlantirish imkoniyatlarini namoyish qilishi mumkinmi” degan savolga 93,5 foizi – mumkin, 3,2 foizi – buni keraksiz va 3,3 foizi – foydali emas deb javob berishgan.

Umumta’lim maktablari uchun jismoniy tarbiya o‘quv-mashq mashg‘ulotlarini sifati va samaradorligini oshirishda zamon talablariga javob beradigan yangi elektron o‘quv qo‘llanmalardan foydalanishni talab etmoqda. So‘nggi yillarda kompyuterlar uchun mo‘ljallangan o‘quv dasturlaridan foydalanishga katta qiziqish mavjudligiga qaramasdan, ularni yaratish va amalga oshirish masalalari muammoligicha qolmoqda.

Bu, bir tomondan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi holati bilan va ikkinchi tomondan, ta’lim tizimini shu jumladan, jismoniy tarbiya bo‘yicha zamon talablariga moslashtirishi bilan bog‘liqdir.

So‘rovnomada ishtirok etganlar orasida jismoniy tarbiyada axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha darslik, o‘quv-qo‘llanma va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yetarli deb hisoblaysizmi?” degan savolga 27,8 foizi – yetarli, 72,2 foizi – yetarli emas deb javob berganlar.

Jismoniy tarbiyada fani bo‘yicha kompyuter uchun yaratilgan dasturiy vositalaridan biri elektron darslik hisoblanadi. Elektron darsliklar jismoniy tarbiya bilan mustaqil

shug‘ullanuvchilarga juda qo‘l keladi. “Sport turlari bo‘yicha o‘rgatuvchi multimediali elektron darslik mavjudmi?” degan savolga respondentlarning 44,2 foizi – mavjudligini, 36,1 foizi – mavjud emasligini va 19,7 foizi – javob bera olmasligini ta’kidlashgan.

Shuningdek, o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini kompyuter texnologiyalari yordamida yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va aniqlash mumkin.

Jismoniy tarbiya va sportga oid darsliklar, o‘quv-qo‘llanmalar, o‘quv uslubiy tavsiyalarning elektron manbalarini O‘zbekiston saytlarida yetarli ekanligini 49,1 foizi respondentlar, yetarli emasligini – 30,9 foiz va javob berishga qiynalishlarini – 19,3 foiz respondentlar ta’kidlashgan.

Xulosa qilib aytganda, sifatida umumta’lim maktabida faoliyat olib borayotgan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari uchun malaka oshirish tizimida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilishi o‘quv jarayonini samarali boshqarish, ularning jismoniy hamda sport ko‘rsatkichlarini tizimli obyektiv baholashda, axborotni taqdim etish, tahliliy qayta ishlash, saqlash hamda amaliyotda qo‘llashning eng maqbul yo‘llarini ishlab chiqishni alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlash mumkin. Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fanida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish usullari qanday bo‘lishidan qat’i nazar samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli Qarori. https://lex.uz/docs/4800657
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-sonli Farmoni. https://www.lex.uz/docs/3564970
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 658-sonli Qarori.
5. Гурев С. В. “Современные информатционные технологии в физической культуре и спорте”/ Монография, Российский государственный профессионально-педагогический университет, Екатеринбург, 2014.
6. Tolametov A.A. “Sport metrologiyasi” /o‘quv-qo‘llanma –T.: Yangi asr avlodi, 2009.
7. Tolametov A.A. Jismoniy tarbiya va sport ta’limida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari. // “Jismoniy tarbiya va sport” jurnal № 10, 2019. 8-9-betlar.

Zulfizar YULCHIYEVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

O‘QITISHNING DIDAKTIK VOSITALARI VA ULARNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘qitishning didaktik vositalari va ularning ijtimoiy pedagogik psixologik ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif pedagogika nazariyasi ularni bajaradigan ish funksiyasi, tuzilishi, ko‘rinishi va qulay xususiyatlariga qarab tasniflashni zarurligini aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Didaktik vositalar, o‘qitishning didaktik vositalar majmui, diapozitivlar, epidioskoplar, diafilmlar, transparantlar, videoproyektorlar.

В статье рассмотрены дидактические средства обучения и их социально-педагогическое психологическое значение. Автор также указал на необходимость классификации педагогических теорий в зависимости от выполняемой ими трудовой функции, структуры, внешнего вида и благоприятных особенностей.

Ключевые слова. Дидактические средства, комплекс дидактических средств обучения, диапозитивы, эпидиоскопы, диафильмы, транспаранты, видеопроект.

The article considers didactic teaching tools and their socio-pedagogical psychological significance. The author also pointed out the need to classify pedagogical theories depending on their labor function, structure, appearance and favorable features.

Key words. Didactic tools, a set of didactic teaching tools, slides, epidiascopes, filmstrips, transparencies, video project.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar va istiqboldagi dolzarb vazifalar aks ettirilgan. Zero, insoniyatning eng buyuk g‘oyalaridan biri – shaxsning erkinligi va uning intellektual salohiyatli bo‘lish g‘oyasi hisoblanadi. Yangi avlod ta’lim-tarbiyasi tizimida o‘qitishning turli vositalaridan keng foydalanish davr talabidir.

Didaktik vositalarining majmui tushunchasi ashyoviy buyumlar ma’nosini anglatib, ta’lim va tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan auditoriya taxtasi va bo‘rdan tortib, elektron hisoblash mashinalarigacha bo‘lsin, talabalarga ma’lumotlarni chuqur anglashga yordam berishga yo‘naltirilgan materiallarni anglatadi. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

Ko‘rib turganimizdek, bu materiallar turlicha bo‘lib, avvalo, ularning o‘ziga xos xususiyati, ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni bo‘yicha farqlash lozim. O‘qitishning didaktik vositalari yangi ma’lumotlarni o‘qituvchi tomonidan bayon qilish, o‘quvchilar tomonidan esa o‘zlashtirishning eng qulay manbai sanaladi.

Didaktik vositalarning turli-tumanligi ma’lum darajada undan foydalanuvchilar ishini qiyinlashtirishi mumkin. Shu ma’noda pedagogika nazariyasi ularni bajaradigan ish funksiyasi, tuzilishi, ko‘rinishi va qulay xususiyatlariga qarab tasniflashni zarur deb biladi. Shunga ko‘ra pedagogika darsligida qayd etilishicha o‘qitishning didaktik vositalari:

a) tarqatma didaktik materiallarga;

b) subyekt faoliyatiga ko‘ra o‘qitish vositalari va o‘qish vositalariga;

v) muloqot vositasiga;

g) o‘qitishning texnika vositalariga bo‘linadi.

G.V.Karpov va V.A.Romaninlar didaktik vositalarni:

a) o‘qitishning didaktik vositalari (fotografiya, diopozitiv va diafilmlar)ga;

b) o‘qitishning statik ekran vositalari (kinofilmlar, o‘quv televideniyasi)ga ajratdilar. Bu didaktik vositalar pedagogika va xususiy metodika bilan uzviy bog‘liq holda ta’lim muassasalarida o‘qitladigan ayrim predmetlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib didaktikaning asosiy tamoyillari va texnika vositalarini qo‘llash qoidalariga muayyanlashtiriladi.

Didaktika fanida o‘qitish metodlari va o‘qitish vositalarining o‘zaro bog‘ligi, biri birisiz mavjud emasligi va ko‘zlangan maqsadga erishishning qiyin bo‘lishi qayd etib o‘tiladi. Chunki, o‘qitish metodlari, talaba-yoshlar erishmoqchi bo‘lgan fan cho‘qqisiga ko‘tarilishining yo‘li bo‘lsa, o‘qitish vositalari mana shu yo‘lda o‘quvchi va o‘qituvchiga suyanchiq bo‘ladigan, yo‘lni shamchiroq singari yoritadigan “kompas”, “xarita” sifatida ishtirok etadigan qurol hisoblanadi.

Mabodo shu qurol bo‘lmasa, yoki o‘tmas, ishga yaroqsiz bo‘lib qolgan bo‘lsa, unda muddaoga erishish qiyin kechadi. Shuning uchun ta’lim va tarbiyada o‘qitish vositalari aniq maqsadga yo‘naltirilgan hodisadir. Ma’lumki, tabiat hodisalari jamiyatda ro‘y beradigan voqealar inson ongi orqali o‘zlashtirilganda odam va tabiat jamiyat o‘rtasida qandaydir aloqa o‘rnatiladi. Mana shu aloqa rolini ta’limda o‘qitishning didaktik vositalari bajaradi. Shunga asosan o‘qish, o‘qitish jarayonini “inson-o‘qitish vositalari – muhit” konteksida izohlash pedagogikada qabul qilingan. O‘quv-tarbiya jarayonida bu vositalaridan keng foydalanish o‘qitishning mukammalgini, ishonchliligini kuchaytirib, o‘rganuvchilarning obyekt voqealarini tushunib yetishini oshiradi va bilim sifatini yaxshilaydi.

Ta’kidlab o‘tilganidek, o‘qitishning subyektlar tomonidan anglab yetish ishlarini bajarishga yo‘naltirilgan didaktik vositalari o‘z xususiyati, faoliyat subyekti, bilim sifatiga ta’siri nuqtayi nazaridan tasniflanib turli tiplardan iborat ekanligi ko‘rsatilgan. Didaktik vositalar o‘z tarkibiga ko‘ra, material va ideal o‘qitish vositalardan iborat bo‘ladi. Material didaktik vositalarga – darsliklar, o‘quv-qo‘llanmalar, ko‘rgazmali didaktik qurollar, jadvallar, maketlar va boshqalar kirib ular o‘quv tarbiya jarayonining didaktik – ko‘rgazmali ta’limotini amalga oshiradi. O‘qitishning ideal vositalarini yangi ma’lumotlarini bayon etishdan oldin o‘zlashtirgan bilimlar, ko‘nikmalardan foydalanish tashkil etadi. Chunki oldingi madaniy meros, yangi qimmatli madaniy masalalarni aniq anglash uchun ham ular o‘qitishning ideal vositalari deb ataladi. O‘quv-tarbiya jarayonida ulardan o‘rinli foydalanish, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan didaktik vositalarining xilma-xilligini tasniflash va ularni qo‘llashda o‘quv jarayonining, shart-sharoitlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamonda ta’lim va tarbiya imkoniyatlarini oshirishga yordam beradigan va ko‘p qo‘llaniladigan didaktik vositalar majmuining eng ko‘p tarqalgan turi – bu o‘qitishning texnika vositalaridir. O‘TV garchi ilmiy asosda qat’iy tavsiflangan texnika vositalari mavjud bo‘lmasada, ammo ularni tasniflashda pedagogikada turli yondashuvlar mavjud. O‘qitishning texnika vositalarining bunday guruhlanishi, avvalo, ularning sezgi organlariga, xotiraga, diqqatga ta’sirni va bajaradigan ish turini hamda ishlash tamoyilining inobatga olinganligidadir. Bunda, O‘TVning avtomatlashtirilganlik darajasi o‘qituvchilar tarkibi, texnika vositalarining tuzilishi, o‘quv jarayonida ularni qo‘llash imkoniyatlari e’tiborga olinmog‘i darkor. O‘qitishning texnika vositalari talaba-

yoshlarning sezgi organlariga, diqqat va xotiraga ta’sirini inobatga olib hamda O‘TV qo‘llash jarayonida o‘qitishning oddiydan murakkabga va ularni o‘rganishda ham shu ketma-ketlikka rioya qilish muhim didaktik hodisa deb tavsiflanadi.

Bu o‘quv – texnika vositalari o‘qitishning didaktik vositalar majmui orasida eng birinchilardan biri hisoblanadi va o‘quv jarayonida ham eng ko‘p qo‘llaniladi. Chunki ular oddiy bo‘lib foydalanish uchun eng qulay va ko‘p tarqalgan vositalardir. Bunday texnika vositalariga diapozitivlar, epidioskoplar, diafilmlar, transparantlar, videoproyektorlar kiradi.

Ularning ishlash texnologiyasi deyarli bir xil bo‘lib, ular shisha shaffof plyonkalarda yozilgan ma’lumotlar va axborotlarni ekranda proyeksiyalab beradi. Fikrlar aniq, lo‘nda qilib bayon etilgan, ammo tovushsiz. Tovushli eshittirish orqali ma’lumotlarni idrok etish zamonaviy o‘quv radiosi, potefon yozuvi, magnit lentasidagi yozuv va tovushni kuchaytirib beruvchi apparaturalar orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, audiovizual vositalar eshitish va ko‘rish yordamida ma’lumotlarni idrok etish audiovizual vositalar yordamida amalga oshadi. Bularga kinofilmlar, teleko‘rsatuvlar, videoyozuvlar, diafilmlar, videomagnitafonlar taalluqli bo‘lib, ular videoproyektorlar yordamida video axborotlarni proyeksiyalab beradi. Bugungi kunda videomagnitafonlar, kinofilmlar, televideniye o‘quv jarayonida keng qo‘llaniladigan didaktik vositalar sirasiga kirib qoldi.

Shuni ta’kidlash joizki, o‘quv ma’lumotlarini texnik qurilmalar emas, balki ulardagi axborot tashuvchilar beradi. Shu ma’noda axborotlarni texnika vositalari yordamida uzatishda texnik qurilmalarga nisbatan axborot tashuvchilar ahamiyatlidir. Shuning uchun axborot tashuvchilardan xabardorlik ham texnika vositalaridan o‘quv jarayonida samarali foydalanishni qulaylashtiradi. Agar audioaxborotlar magnit lentalarda saqlansa, vizual axborotlar slaydlarida, saqlanishini bilmoq darkor. Hozirgi zamonda keng qo‘llaniladigan elektron axborotlar magnitli va kompakt disklarda saqlanishini ta’minlashga erishish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 400-b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O‘zbekiston, 2020. – 400-b.

3. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda / O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari Yangi O‘zbekiston gazetasi / № 165 (421), 2021-yil 17-avgust.

4. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. “Pedogogika nazariyasi”. Darslik. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti. 2008-yil.

5. Shodmonova Sh. va boshqalar “Pedogogik texnologiyalar”. Darslik. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyoti. 20011-yil.

6. G‘oziyev E. “Umumiy psixologiya”. –T., 2010-yil.

Oynisa MUSURMANOVA,
Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutining Ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor
Gulnoza SOLIHOVA,
Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

NOGIRON BOLALARNI IJTIMOYILASHTIRISHNING HUQUQIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada nogironligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashtirishning huquqiy-nazariy asoslari tahlili keltirilgan. Shuningdek, mualliflar mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o'z fikr va mulohazalarini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Nogiron bola, ijtimoiylashtirish, ijtimoiy soha, huquqiy asos, insonparvarlik, nogironlarning huquqlarini himoya qilish.

В статье представлен анализ правовых и теоретических основ социализации детей с ограниченными возможностями здоровья. Авторы также высказали свои мнения и комментарии по поводу проводимой работы по развитию социальной сферы в нашей стране.

Ключевые слова. Ребенок-инвалид, социализация, социальная сфера, правовая основа, гуманитарная, защита прав инвалидов.

The article presents an analysis of the legal and theoretical foundations of socialization of children with disabilities. The authors also expressed their views and comments on the work carried out on the development of the social sphere in our country.

Key words. Disabled child, socialization, social sphere, legal basis, humanitarian, protection of the rights of disabled people.

Bugungi kunda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'lib, unda belgilangan vazifalar mamlakatimizda insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligi, millatimizga xos mehr-shafqatning muhim qadriyat ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash kabi vazifalar imkoniyati cheklangan bolalar ta'limi tizimini tubdan yaxshilashni, bu jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirishni taqozo etmoqda. Nogironligi bo'lgan bolalar va o'smirlarning ta'limi milliy va xalqaro asoslarga egadir. Jumladan, xalqaro hujjatlar: "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948-yil, Jeneva), Nogiron shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Deklaratsiya (1975-yil), "Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya", "Ta'lim barcha uchun" umumjahon Deklaratsiyasi" (1990-yil, Tay-

land), “Salamanka bayonoti” (1994-yil, Italiya), “Dakar deklaratsiyasi” (2000-yil, Dakar); milliy huquqiy me’yorlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (41-modda), “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (23-modda), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997-yil), Vazirlar Mahkamasining “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv Markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi 419-sonli Qarori (2004-yil), “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2008-yil), Vazirlar Mahkamasining “Aqliy va jismoniy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 256-sonli (2011-yil, 13-sentabr), “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 140-sonli (2017-yil 15-mart), “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli (2017-yil 6-aprel) qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrdagi PF-5270-sonli “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni va boshqa hujjatlarda imkoniyati cheklangan bolalarning ta’limi, reabilitatsiyasi, ijtimoiy munosabatlarda erkin, qulay va xavfsiz harakatlanishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy me’yorlar belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrdagi PF-5270-sonli Farmonida nogironlikning muayyan turlarini to‘liq yengib o‘tish imkonini beruvchi zamonaviy tibbiyot, ta'lim va ijtimoiy texnologiyalardan, shu jumladan rivoj-lanishdan ortda qolish, eshitish va ko‘rish qobiliyatining buzilishi, ijtimoiy-psixologik buzilishlarni erta aniqlash tizimidan foydalanishni kengaytirish vazifasi alohida belgilab qo‘yildi. Shuningdek, ushbu farmon ilovasi bilan tasdiqlangan “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”da “nogiron” so‘zi o‘rniga “nogironligi bo‘lgan shaxs” atamasidan foydalanish tartibi yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 29-moddasida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari bo‘yicha ta’lim muassasalarida o‘qish va tarbiyalanish hamda o‘z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo‘lgan ta’lim olish huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan.

Rivojlangan ijtimoiy soha ko‘rsatkichlaridan biri-bu yaxshi ishlab chiqilgan va samarali ishlaydigan me’yoriy-huquqiy bazadir. Ko‘plab xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega bo‘lgan deklaratsiyalar, qonunlar va qoidalar nogironlarning asosiy huquqlarini, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy choralarini, shuningdek, nogironlar uchun atrof-muhitning mavjudligini aniqlaydigan standartlarni belgilaydi. Har bir hujjatning o‘ziga xos tor yo‘nalishi borligiga qaramay, ularning umumiy maqsadi nogironlarning jamiyatimizning teng huquqli a’zolari bo‘lishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishdir. Keling, nogironlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi asosiy xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarni ko‘rib chiqaylik.

Birinchi marta nogironlarning huquqlari boshqa barcha qonunlar uchun muhim bo‘lgan hujjat – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilandi. Uning asosiy tamoyillariga muvofiq, nogironlar fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarning barcha turlaridan foydalanishlari, boshqa odamlar bilan teng sharoitda foydalanish huquqidan foydalanishlari mumkin. Bu qoida samarali ijtimoiy himoya tizimini qurishning asosiy tamoyilini – tenglik orqali erishish imkoniyatini belgilaydi.

1975-yil nogironlarning huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiyada kamsitishning har qanday shakliga yo‘l qo‘yilmasligi haqidagi qoidalar batafsilroq va to‘liqroq tuzilgan. Hujjatga ko‘ra, nogironlar har qanday istisnolar, farqlar va kamsitishlarsiz o‘z insoniy

qadr-qimmatini hurmat qilish, tibbiy, funksional, ruhiy davolanish, o‘z salomatligi va jamiyatdagi mavqeini tiklash huquqiga ega. Deklaratsiyaga muvofiq, aqli zaif odamlarga, nogironlarga har xil faoliyat sohalarida o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam berish va iloji boricha jamiyatning normal hayotiga qo‘shilishlariga yordam berish kafolatlangan.

Nogiron bolalarga nisbatan ularning muomala layoqati to‘g‘risidagi qoidalar yuqoridagi hujjatlar asosida tuzilgan. Avvalo, har qanday kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi haqida aytiladi. Shu bilan birga, bolalar umumiy qabul qilingan inson huquqlaridan tashqari, ularning tug‘ilishi, tarbiyalanishi va o‘qishi bilan bog‘liq o‘ziga xos huquqlarga ega. Masalan, Bola huquqlari deklaratsiyasiga muvofiq, qonun va boshqa yo‘llar bilan bolalarni alohida himoya bilan ta’minlash, ularga jismoniy, aqliy, axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga imkon beradigan imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratish kerak.

Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya – bu xalqaro hamjamiyatning nogironlarning asrlar davomida kamsitilishi, ijtimoiy yakkalab qo‘yilishi va ularga nisbatan insonparvarlikka xos bo‘lmagan harakatga nisbatan javobidir. Ushbu tarixiy hujjat ko‘p jihatlari bilan asriy ahamiyatga ega bo‘ladi, chunki, bugunga qadar xususan, inson huquqlari sohasida birorta xalqaro shartnoma shu qadar tez tuzilmagan edi, qolaversa, u XXI asrning birinchi hujjati hisoblanadi. Konvensiya fuqarolik jamiyati, hukumatlar, inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy muassasalar va xalqaro tashkilotlar ishtirok etgan uch yil davomidagi muzokaralar natijasidir. Uning qoidalariga ko‘ra, teng imkoniyatlar asosida bolaning ta’lim olish huquqini bosqichma-bosqich amalga oshirish uchun umumiy va kasb-hunar ta’limining har xil shakllarini rivojlantirishni rag‘batlantirish va uning hamma uchun ochiq bo‘lishini ta'minlash zarur. Bundan tashqari, bola tarbiyasi bolaning shaxsiyatini, iste’dodini, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilishi kerak. Shunday qilib, birinchi marta bolaning teng imkoniyatlar asosida ta’limning barcha shakllarini olish huquqini amalga oshirishi haqida aytildi.

Konvensiya faqatgina inson huquqlari sohasidagi mavjud xalqaro bitimlarni to‘ldiradi va nogironlarning qandaydir yangi huquqlarga ega bo‘lishini e’tirof etmaydi. U faqat nogironlarning barcha inson huquqlaridan foydalanishlarida tengligiga rioya etilishi va ta’minlanishida huquqiy nuqtayi nazardan davlatlarning majburiyatlari va vazifalariga aniqlik kiritadi. Konvensiya nogironlar o‘z huquqlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun o‘zgartirishlar talab qilinadigan sohalarni, shuningdek, muntazam buziladigan huquqlarni himoya qilishni kuchaytirish zarur bo‘lgan sohalarni belgilaydi. Bundan tashqari, u barchaga hamma joyda qo‘llanishi kerak bo‘lgan eng kam me’yorlarni belgilaydi va izchil harakatlar doiralarini o‘rnatadi.

Shunday qilib, yuqoridagilardan kelib chiqadiki, nogironlarning huquq layoqatining rivojlanishi bosqichma -bosqich amalga oshdi. Ta’kidlash joizki, qabul qilingan har bir akt ularga nisbatan har qanday kamsitishni taqiqlaydi va asosiy tamoyillar-tenglik va qadr-qimmatni mustahamlaydi.

Mamlakatimizda jamiyatning to‘laqonli a’zolari sifatida nogironligi bo‘lgan shaxslarning manzilli ijtimoiy muhofazasini kuchaytirishning huquqiy-me’yoriy asoslari ishlab chiqildi, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari asosida tashkil etiluvchi nogiron bolalar uchun oilada yakka tartibdagi, ixtisoslashtirilgan va inklyuziv ta’lim mazmuni zamon talablari hamda xalqaro miqyosdagi yondashuvlar asosida takomillashtirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’limning barcha bo‘g‘ini va turlari qatorida ixtisoslashtirilgan umumiy o‘rta ta’lim tizimini tubdan yaxshilash, bu jarayonga innovatsion texnologiyalarni olib kirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi. Natijada,

mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, zamon talablari asosida o‘qitish, tarbiyalash bo‘yicha ta’lim xizmatlarining optimallashuvi, pedagogik jarayonlarni tashkil etish mexanizmlarining yanada modernizatsiyalashuviga keng imkoniyatlar yaratildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 700 mingdan ortiq nogironligi bo‘lgan shaxslar, ulardan 100 mingdan ortig‘i 16 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolalardir. Qayd etilishicha, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonun xujjatlarning tahliliga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi qonun xujjatlarining tahlili qonun ijodkorligi faoliyatida ikki yo‘nalish – nogironlikning “ijtimoiy modeli” va “tibbiy modeli” tamoyillari mavjudligi haqida xulosa qilish imkonini beradi.

“Ijtimoiy model” nogironlikka nisbatan ijtimoiy yondashuvni mustahkamlab beradi va unga ko‘ra, inson sog‘lig‘i buzilishi sababli emas, balki, eng avvalo, u to‘qnash keladigan to‘siqlar tufayli nogironligi bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Ayni vaqtda “tibbiy model” nogironlikni kasallik va mehnatga layoqatsizlik sifatida baholaydi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, hozirgi zamon bolasi ekologik ong, gigiyenik malakalar, iqtisodiy ko‘nikmalar va huquqiy savodxonlikka ega bo‘lmasa, mustaqil hayotda emin-erkin xavfsiz harakatlanishi qiyin kechadi. Chunki tez rivojlanayotgan murakkab zamon shaxs oldiga qator talablarni qo‘ymoqdaki, bularsiz inson o‘z kelajagini, bu bilan bog‘liq ravishda oilasi farovonligini ta’minlashi oson kechmaydi. Shuning uchun ham nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’limi va tarbiyasi masalasi davlat siyosatining alohida muhim yo‘nalishi sifatida qaraladi. Demak, maxsus ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish uchun hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan tarbiya yo‘nalishlari va ularning mohiyati hamda maqsad va vazifalarini aniq anglamoq va amaliyotga zaruriy metodik tavsiyalar ishlab chiqmoq muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. –104-b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017.– 48-b.

3. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”. BMT. Bosh Assambleyasi 217 A (III) Rezolyutsiyasi, 1948, 10.12./ www.constitution.uz.

4. “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni(18.11.1991-y. 422-XII-son (Yangi tahriri))/ "O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami", 2008-yil, 29-30-son, 277-modda.

5. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya”/ BMT Bosh Assambleyasining 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-qarori; O‘zbekiston respublikasi oliy kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga qo‘shilish haqida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi “Adolat” huquqiy axborot markazi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 7-sentabrdagi 419-sonli “Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori./O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 36-son, 400-modda; 2006-y., 40-son, 396-modda; 2008-y., 52-son, 525-modda; 2009-y., 46-son, 498-modda; 2011-y., 24-son, 247-modda, 39-son, 399-modda; 2012-y., 26-27-son, 295-modda, 36-son, 412-modda; 2017-y., 25-son, 539-modda.

7. “Ijtimoiy himoya yili” davlat dasturi. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2007-yil, 4-6-sonlar, 39-modda.

Komila TODJIBAYEVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tekshirish instituti tayanch doktoranti

XALQ TA’LIMI TIZIMIDA INKLYUZIV TA’LIMNI AMALIYOTGA JORIY ETISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni amalyotga joriy etish borasida mavjud muammolar, ularning yechimi, inklyuziv ta’limda o‘qituvchi kasbiy mahorati va inklyuziv kompetentlik masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar. Inklyuziv ta’lim, o‘qituvchi mahorati, tyutor, inklyuziv kompetentlik.

В статье анализируются существующие проблемы внедрения инклюзивного образования в систему народного образования, их решения, профессионализм учителей в инклюзивном образовании и вопросы инклюзивной компетентности.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, педагогическое мастерство, тьютор, инклюзивная компетентность.

The article analyzes the existing problems of introducing inclusive education into the public education system, their solutions, the professionalism of teachers in inclusive education and the issues of inclusive competence.

Key words. Inclusive education, pedagogical skills, tutor, inclusive competence.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 22-fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar borligi haqida o‘ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz. Prezident nutqida ta’kidlanganidek: “2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni ko‘zda tutadigan “hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyili asosida amalga oshiriladi”.

Darhaqiqat, keyingi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizmining barcha bo‘g‘inlarida ulkan o‘zgarishlar, transformatsiya jarayonlari kuzatilmoqda. 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab xalq ta’limi tizmida tajriba-sinov tariqasida ochilgan inklyuziv va korreksion sinflarni ham ushbu o‘zgarishlar qatoriga kiritish mumkin. Shuningdek, 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan PQ-4860-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarorida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim shartlarida ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ulushini 2022-yilda 24 foizga, 2025-yil yakuniga kelib

esa 40 foizga yetkazish vazifasi belgilab berilgan.

Demak, inklyuziv ta’lim bugungi kunda xalq ta’limi tizimi oldida turgan va amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilishi kutilayotgan strategik maqsadlardan biridir. Biroq, ushbu ta’lim shakli muammolardan holi emas. Bugungi kunda inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etishda mavjud muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ayrim ta’lim muassasalarida ular uchun to‘siqsiz muhit va imkoniyatlar yaratilmagan;

– alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalari zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitishga mo‘ljallangan uskuna va jihozlar bilan to‘liq ta’minlanmagan;

– alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv ta’lim tizimining mazmun-mohiyati haqida jamoatchilik o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borish yo‘lga qo‘yilmagani natijasida, ota-onalar alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan farzandlarini umumta’lim muassasalarida o‘qitishi mumkinligi haqida yetarli ma’lumotga ega emas;

– alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni inklyuziv ta’limga jalb qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etish masalalariga mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan yetarli e’tibor qaratilmayapti;

– pedagogika yo‘nalishidagi OTMlar o‘quv dasturlariga inklyuziv ta’lim berish metodikasiga oid fanlar kiritilmagan;

– pedagogika va metodika fanlariga oid darsliklarda inklyuziv ta’lim dasturlari kiritilmagani, shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar jalb qilingan ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tamayotgani ularning kasbiy tayyorgarlik sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shunday vaziyatda 86 ta ixtisoslashtirilgan maktabda 21,2 mingdan ortiq, sanatoriy turdagi maktab-internatlarda 6,1 mingdan ortiq, uy sharoitida esa 13,3 ming nafar o‘quvchi uyda ta’lim oladi. 2020-yil statistikasiga ko‘ra, O‘zbekistonda 3,2 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 13 ming nafarga yaqin o‘quvchilar inklyuziv ta’lim bilan qamrab olingan. 2021-2022-o‘quv yilida Respublikamizning 42 ta maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilib ularga 76 nafar imkoniyati cheklangan bolalar qabul qilindi.

Muammo shundaki, ko‘pgina o‘qituvchilar uchun “inklyuziv ta’lim” tushunchasi noodatiy, G‘arb ta’limiga xos va milliy ta’lim tizmida amaliyotga joriy qilish noreal bo‘lgan hodisa sifatida baholanmoqda. Shuningdek, inklyuziv ta’lim nogironligi bor bolalarning sog‘lom bolalar bilan bir maktabda, bir sinfda o‘qishi, bir partada o‘tirishi deb tushunilyapti xolos. Aslida esa, inklyuziv ta’lim – ta’lim muassasasi, rahbariyati, o‘qituvchisi (shaxsiy va kasbiy sifatlari), moddiy-texnik ta’minoti, ta’lim jarayoni, mazmuni, ta’lim metodlariga alohida talablar qo‘yadiki, ularni muvaffaqiyatli hal etmay turib, inklyuziv ta’limdan samara kutib bo‘lmaydi.

Inklyuziv ta’limda o‘qituvchining maqsadi inklyuziv sinfda tahsil olayotgan har bir bolaning potensial qobiliyatlari va imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo‘lishi lozim. Ushbu maqsadga erishish uchun esa o‘qituvchi qator vazifalarni bajaradi. Ular quyidagilar:

1. Sinfda maxsus ta’lim sharoitlarini yaratish lozim bo‘lgan o‘quvchilar toifasni belgilab olish.

2. O‘quvchilarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holatda (inklyuziv sinflarda zaif eshituvchi, zaif ko‘ruvchi, tayanch harakatlanish tizimida muammolari bo‘lgan bolalar tahsil olishi mumkin) sinfni zaruriy inventor bilan ta’minlash. Masalan, nogironlik aravachasini harakatlanishi uchun joy qoldirish, maxsus moslamalar (ko‘tarish quril-

masi, pandus, tutqich va boshqalar) bilan ta'minlash, sinf xonasini yaxshi yoritish, kattalashtirib ko‘rsatuvchi qurilmalar bilan jihozlash lozim.

3. Bolalar jamoasida hamkorlikka va tolerantlikka asoslangan emotsional qulay muhitni yarata olish.

4. Ta'limning zamonaviy metodlari, usullari, shakllarini o‘zlashtirish va alohida ta'lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarga nisbatan ularni tatbiq eta olish.

5. O‘quv va didaktik materiallarni moslashtirish yoki yangilarini yarata olish (turli murakkablik darajasidagi topshiriqlarni tuza olish, mavzuni illyustratsiya qilish imkonini beruvchi katta shriftdagi ish daftarlari, plakat yoki taqdimotlarni tayyorlash).

6. Individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holatda o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari faoliyatlarini baholashning maqbul usullarini qo‘llash.

7. Ota-onalar bilan hamkorlik qilish va ular oldida mas'uliyatni his qila olish.

Yuqoridagi vazifalar ijrosi inklyuziv sinflarda dars beruvchi o‘qituvchilar qator kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lishlarini talab qiladi. Inklyuziv ta'limda o‘qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo, o‘qituvchi inklyuziv tafakkurga ega bo‘lishi va ta'lim sifati mas'uliyatini o‘z zimmasiga olishi shart. Bu kompetensiyalarni umumiy ravishda inklyuziv kompetensiya yoki inklyuziv kompetentlik deb atashimiz mumkin.

Inlyuziv kompetentlik eng birinchi navbatda, o‘qituvchining kasbiy qadriyatlari va faoliyatning individual uslubini o‘zgartirishda namoyon bo‘ladi.

Inklyuziv sinfda tahsil olayotgan o‘quvchilarning emotsional holati to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qituvchining axloqiy va qadriyatli tushunchalariga bog‘liq bo‘ladi. Imkoniyati cheklangan bolalar mavjud sinfda o‘qituvchi kasbiy faoliyatini ikki xil usulda yo‘lga qo‘yishi mumkin. Birinchi usul, an'anaviy, stereotiplarga asoslangan usul bo‘lib, bunda o‘qituvchi imkoniyati cheklangan bolalarni boshqa bolalarni ta'lim olishi yo‘lida “to‘siq” deb hisoblaydi. Ikkinchi usul – o‘zgarishlarni qabul qilish. Agar o‘qituvchi ikkinchi usulni tanlasa, o‘zining nafaqat kasbiy balki shaxsiy ustanovka va qadriyatlarini ham qayta ko‘rib chiqishi lozim.

Maktablarda o‘qituvchilar ko‘pincha, lider o‘quvchilar bilan ishlashga o‘rgangan. Ular o‘qituvchini tez ilg‘aydi, tushunadi va yaxshi natijalar ko‘rsata oladi. Sog‘lom bolalar bilan bir maktabga boradigan imkoniyati cheklangan bolaning esa lider bo‘la olish ehtimoli kam, sababi ular eshitishga, ko‘rishga va tushunishga boshqalardan ko‘ra ko‘proq kuch sarflashi kerak bo‘ladi. Shu narsalarni o‘qituvchilar to‘g‘ri qabul qila olishi va ular bilan yaxshi munosabatni yo‘lga qo‘ya olishi zarur. Buning uchun esa avvalo, ularning o‘zi tayyor bo‘lishi kerak. Agar umuman imkoniyati cheklangan bolaga dars o‘tmagan o‘qituvchining sinfiga shunday bolalar borsa, u dastlab bola tilini tushunmasligi, uning qiyin o‘zlashtirishini qabul qila olmasligi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchilarni imkoniyati cheklangan bolalar bilan ham ishlashga o‘rgatish zarur.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, shaxsiy va kasbiy sifatlarning moslashuvchanligi, chidamlilik, muammolarni hal etishga tayyorlik, o‘ziga va o‘z faoliyati natijalariga ijobiy munosabatda bo‘lish kabi sifatlarga ega o‘qituvchilar inklyuziv sinflarda ko‘proq natijalarga erishadilar.

Inklyuziv kompetentlikning asosiy mezonlaridan yana biri – o‘qituvchi o‘quvchilarning turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi lozim.

Yana bir sifat – hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Chunki o‘qituvchilar uchun hamkorlik va o‘zaro fikr almashish muhimdir. O‘qituvchi o‘z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va

muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruv malakalarini qo‘llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamrovli maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish kabi xislatlarga ega bo‘lish kerak.

Yuqoridagi fikr mulohazalarni inobatga olgan holda quyidagi tavsiyalar xalq ta’limi tizimida inklyuziv hizmat ko‘rsatish jarayonini yaxshilaydi deb hisoblaymiz:

1. Pedagogik ta’lim sohasidagi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining tegishli o‘quv dasturlariga inklyuziv ta’lim metodikasi bo‘yicha mavzular kiritilishi lozim.

2. Inklyuziv ta’limning metodik ta’minotini (dasturlar, rahbar, pedagog va mutaxassislarga metodik tavsiyalar va boshqalarni) ishlab chiqish hamda takomillashtirib borish.

3. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish.

4. O‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, jamoat tashkilotlari mutaxassislari, keng jamoatchilik uchun inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar va ommabop nashrlar yaratish.

5. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun qo‘shimcha pedagogik ta’lim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish (psixolog, surdopedagog, tiflopedagog, defektolog).

6. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlarining malakasini uzluksiz oshirib borish.

7. O‘qituvchilar uchun alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga nisbatan shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalada bo‘lish (bulling) ning oldini olishga qaratilgan trening va seminarlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, https://lex.uz/docs/-5013007

2. Самсонова Е. В., Дмитриева Т. П., Хотылева Т. Ю. Основные педагогические технологии инклюзивного образования //–М.: Педагогический университет Первое сентября. – 2013. – С. 36.

3. Алехина С. В. Современные тенденции развития инклюзивного образования в России //Развитие современного образования: теория, методика и практика. – 2015. – №. 3. – С. 10-15.

Saodat MAMATOVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri 8-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada innovatsion yondashuv asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif jamoada psixologik muhitni ijobiyligi, innovatsion faoliyatda o‘qituvchilarning samarali ishtirokini ta’minlovchi chora-tadbirlarni misollar orqali tushuntirib bergan.

Kalit so‘zlar. Innovatsion yondashuv, tushuncha, tadqiqot, innovatsion jarayon, tashabbuskorlik, kommunikativ.

В статье рассмотрена идея совершенствования организации и управления педагогическими процессами в общеобразовательных учреждениях на основе инновационного подхода. Также автор объяснил на примерах позитивность психологического климата в коллективе, меры, обеспечивающие эффективное участие педагогов в инновационной деятельности.

Ключевые слова. Инновационный подход, концепция, исследование, инновационный процесс, инициативность, коммуникативность.

The article considers the idea of improving the organization and management of pedagogical processes in educational institutions based on an innovative approach. The author also explained with examples the positivity of the psychological climate in the team, the measures that ensure the effective participation of teachers in innovative activities.

Key words. Innovative approach, concept, research, innovation process, initiative, communication.

Ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni samarali boshqarish barcha maktab rahbarlarida pedagogik qobiliyatlarning shakllanganlik zaruriyatini belgilaydi. Chunki, pedagogik qobiliyatlar ta’lim jarayoni ishtirokchilari bilan suhbatlarda, turli xil tushuntirish, ko‘rsatmalar berish, xodimlarning faolligini oshirishda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda munosabat bildirish va boshqarish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarlar faoliyatida tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijodiy, kommunikativ, boshqaruv hamda boshqa ko‘nikma va malakalar qatori pedagogik qobiliyat alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, barkomol shaxsni shakllantirish masalasi davlat siyosati doirasiga ko‘tarilgan bo‘lib, uni amalga oshirish jarayoni hisoblangan pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlash esa, umumiy o‘rta ta’lim muassasasi (UO‘TM) rahbarlari, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, pedagogik jarayon ishtirokchilari va boshqa mutaxassis xodimlarning (mahalla-ko‘y, ota-onalar va keng jamoatchilik faoliyati bilan integrativ bog‘liq holda) faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish mexanizmlarini yaratish, innovat-

sion yondashuv asosida boshqaruv faoliyatni samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilaydi.

Innovatsiya tushunchasi tadqiqotlarda “yangilik kiritish” tushunchasi sifatida talqin etiladi. “Innovatsion jarayon” tushunchasi esa yangilik yaratish va ularni o‘zlashtirish hamda ta’lim muassasasi amaliyotida samarali qo‘llashga yo‘naltirilgan faoliyat jarayoni sifatida ifodalanadi.

Demak, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda innovatsiya (yangilik kiritish) – maqsadga yo‘naltirilgan yangilik va o‘zgartirishlarni olib kirish deb qaralib, innovatsion yondashuv – pedagogik jarayonlarga yoki pedagogik faoliyatga o‘zgartirishlar (yangilik) kiritish jarayoni ekanligiga alohida to‘xtalib o‘tish lozimdir.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish ko‘zlangan natijalarga erishishda, eng avvalo, UO‘TMdagi mavjud muammolarni o‘rganish va ularni tahlil qilish, mavjud muammolarni bartaraf etishda bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalarni, aniqlash, maqsadni qo‘yish shuningdek, pedagogik jarayon ishtirokchilarining imkoniyati va ehtiyojlarini inobatga olish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning sifati va samaradorligi ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatiga qay darajada bog‘liq bo‘lsa, UO‘TM faoliyatida belgilangan maqsadlarga ko‘ra yuqori natijalarga erishish ularning innovatsion faoliyati hamda innovatsion yondashuvlar asosida mazkur jarayonlarni tashkil etishda rahbarlik kasbiy kompetentligiga va pedagogik qobiliyatiga bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘ladi.

UO‘TMda bugungi kunda o‘qituvchi uzluksiz innovatsion yondashuvda muntazam izlanishda bo‘lishi, innovatsion fikrlashi, o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirishi, shuningdek, o‘quvchilarda ham innovatik g‘oyalarni va yondashuvlarni shakllantirish asosida pedagogik faoliyat ko‘rsatishi muhim sanaladi. Shuning uchun pedagogik jarayon tashkilotchilari yangilik yaratish va ularni tatbiq etish, ixtirochilar salohiyatidan samarali foydalanish, ularning tajribasini targ‘ibot qilish, ommalashtirish, innovatsion yondashuv orqali boshqaruv faoliyatlarining natijalarini baholash bo‘yicha, ayniqsa, maktab va pedagogik jamoa darajasida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish bugungi kunning zaruriy jihati deb qaraladi.

UO‘TMda pedagogik jarayonlarni samrali tashkil etish va boshqarishda innovatsion yondashuvda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Jumladan, modernizatsiya, unifikatsiya, faoliyatni takomillashtirish, shaklan o‘zgartirish, rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan modifikatsion innovatsiyalar; oldindan ma’lum bo‘lgan metodlarning elementlarini yangi tizimga birikishini nazarda tutuvchi birikkan innovatsiyalar; o‘xshashlikka va umumiylikka ega bo‘lmagan radikal innovatsiyalar innovatsion yondashuvlarning asosiy jarayonlari sifatida belgilanishi mumkin.

Innovatsion yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlarini turli xil asoslar bilan turlicha tasniflash mumkin, ya’ni bugungi kunda yangilik kiritishning tugallangan tasnifi mavjud emas. Shu bilan birgalikda bizning tadqiqotlarimiz doirasida aniqlangan ma’lumotlarga ko‘ra, UO‘TM pedagogik jarayonlarini tashkil etishda va samaradorligini oshirishda eng avvalo, yangiliklarni ta’lim-tarbiya jarayonlarining qaysi bo‘g‘iniga tegishli ekanligini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda innovatsion yondashuvlarni ta’lim-tarbiya jarayonining tarkibiy komponentlarini harakatlanishi va maqsadga

yo‘naltirilgan ijodiy, sifatiy o‘zgarishlar jarayoni sifatida belgilash maqsadga muvofiq sanaladi. Shuningdek, innovatsion yondashuv eng avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonida eskilikni yangilik bilan o‘zaro o‘rin almashinishini tezkor jarayoni ekanligini belgilaydi.

Bizning fikrimizcha, mazkur ta’lim-tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar ushbu jarayonni samarali tashkil etish va takomillashtirish, yangiliklar kiritishni amalga oshirishda pedagogik innovatsiyalarni samaradorligining asosiy shartlari hisoblanadi. UO‘TM jamoasi uchun ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion yondashish va yangilik kiritishning dolzarbligini asoslash; mavjud muammolarning uzil-kesil hal qilish va pedagogik jarayon samaradorligini ta’minlashning asosiy omillari sifatida belgilanishi; tanlangan innovatsion vositalarni UO‘TMning imkoniyatlariga mos kelishi; innovatsiyalarning to‘la ilmiy asoslanganligi; innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimliligi; yangilik yaratuvchi va undan foydalanuvchilarning shaxsiy-professional xususiyatlarini hisobga olish va innovatsiyalarning ahamiyatini anglash har bir subyektning yuqori darajadagi mas’uliyati hamda javobgarligini ifodalashi; innovatsion jarayonlarda tavakkalchilikni minimal darajada bo‘lishi uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish, tavakkalchilikning darajasini tushunish va ularni asoslanganligining zaruriyati; ta’lim mazmunida, pedagogik loyihalarda o‘zgartirishlar hamda rivojlanish tamoyillarining o‘z ifodasini topishi.

UO‘TMda pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etishga obyektiv va subyektiv omillarning ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Obyektiv omillarga davlatning yangi ta’lim siyosati, ta’lim sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar, UO‘TMning innovatsion faoliyat yo‘nalishidagi tajribalarini kiritishimiz mumkin. Subyektiv omillarga ijtimoiy-hududiy ehtiyoj, UO‘TMning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatining rivojlanish jarayoni, pedagoglarning ilmiy-metodik bilim, ko‘nikma va malakalarini, ilmiy salohiyatini rivojlanishi.

UO‘TMda asosiy o‘zgarishlar va innovatsion yondashuvlar orqali ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish asosiy maqsadga erishishga yo‘naltirilgan bo‘ladi va o‘z navbatida, mazkur maqsadlarga erishishda qator vazifalarni bajarilishi zarur: jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos, bilimli va qobiliyatli bitiruvchilar modelini amalga oshirishga asoslanish (ta’lim mazmunini yangilash); yuqori sinf o‘quvchilarini kasbiy tayyorlash jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish (ta’lim dasturlarini yangilash); pedagogik jarayonlarni oldindan loyihalashtirish, raqobatni vujudga keltiruvchi ta’limiy muhitni shakllantirish; ta’lim standartlariga mos ravishda, harakatdagi dasturlarga yangi rivojlantiruvchi ayrim o‘zgartirishlarni kiritish; ko‘proq samarali hisoblangan o‘qitish vositalarini tanlash; o‘quv rejasining fakultativ va maktab ixtiyoridagi soatlar hisobiga yangi fanlarni kiritish.

Innovatsion yondashuv orqali ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izlash va tatbiq etish muammolarini vujudga keltiradi va bular subyekt-subyekt, o‘quvchi va o‘qituvchi munosabatlariga asoslanadi, bu munosabatlar shaxsning qiziqishlari, qobiliyatlari va sifatlarini anglashga yo‘naltirilgan umumiy rivojlanish shartlarini belgilovchi asoslar hisoblanadi.

Innovatsion yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va ularning natijaviyligini tekshirish hamda samaradorligini baholash masalalarini hal etish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularga quyidagilar misol bo‘ladi: Birinchidan, pedagogik jamoaning kasbiy mahoratini o‘sishi; ikkinchidan, jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning mustahkam va ijobiy xususiyatlari; uchinchidan, ta’lim va tarbiya jarayonini yangilashga jamoaning tayyorgarligi; to‘rtinchidan, jamoaning ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatini oshirishga moyillik; beshinchidan, pedagoglar o‘rtasida axborotlar almashinuvi sifatini ma

Nafisa ABDULLAYEVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti kafedra mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent

MAKTABGACHA TA'LIMGA KLASTERLI YONDASHUVNI TATBIQ ETISH ORQALI TA'LIM SIFATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga klaster tizimini joriy etish orqali ta'lim sifati samaradorligini oshirishga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif maktabgacha ta'lim faoliyatiga klaster tizimini joriy etish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Klaster tizimi, ta'lim klasteri, malaka oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, raqobatbardosh kadrlar, sifat va samaradorlik.

Статья посвящена повышению эффективности качества образования за счет внедрения кластерной системы в деятельность дошкольных образовательных организаций. Автор также высказал свои мысли и замечания по внедрению кластерной системы в дошкольную образовательную деятельность. Ключевые слова: кластерная система, образовательный кластер, повышение квалификации, дошкольные образовательные организации, конкурентоспособность персонала, качество и эффективность.

Ключевые слова. Кластерная система, кластер образования, квалификация, дошкольные организации, конкурентоспособные кадры, качество и эффективность.

The article is devoted to improving the effectiveness of the quality of education through the introduction of a cluster system in the activities of preschool educational organizations. The author also expressed his thoughts and comments on the implementation of the cluster system in preschool educational activities.

Key words. Cluster system, educational cluster, professional development, preschool educational organizations, staff competitiveness, quality and efficiency.

Jahon amaliyotida ta'limning barcha turlari va bosqichlarida samaradorlikni oshirish va takomillashtirishning yangi mexanizmi sifatida qaralayotgan klaster modelini yanada rivojlantirish natijasida ta'lim paradigmalarining yangi imkoniyatlarini topish, subyektlarning manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish orqali ularning istiqbol natijalarini kafolatlash, shaxsning sifatli ta'lim olishiga xizmat qiluvchi yangicha yondashuv va metodlarni ishlab chiqish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida "ta'lim mazmuni va sifatini oshirish, raqobatbardosh, yuqori bilim va ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli pedagoglar kadrlar tayyorlashda samarador bo'lgan pedagogik ta'lim innovatsion klasterlarini joriy qilish"[1] mexanizmlari yanada takomillashtirilmoqda. Bu esa, uzluksiz

[1] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 213-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 14.04.2021-y., 09/21/213/0330-son.

ta’limni asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarda klaster yondashuvi asosida ta’lim turlari va mazmuni integratsiyasini ta’minlash, bolalarning qobiliyati, iqtidori, kreativ kompetentligini shakllantirish hamda shu asosida kasbga yo‘naltirish samaradorligini oshirish muammosi chuqur o‘rganilishini taqozo etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Rivojlangan mamlakatlarda ta’limning to‘liq sikliga investitsiya kiritishga, ya’ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo‘lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e’tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko‘rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart”.

Rivojlangan mamlakatlar qatorida ta’limni berish sifatni takomillashtirish hozirgi kunda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda, “Ta’lim sifati” nima degan savolga javob berib o‘tsak. “Ta’lim sifati”– bu butun ta’lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchiga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, ta’lim muassasalari faoliyati ijtimoiy, iqtisodiy, uslubiy va texnologik muhitining o‘zgarishi bilan izohlanadi. Ta’lim sifati xususiyatlari yaxlitligi ta’lim oluvchi bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar kombinatsiyasidan iborat bo‘lib, samarali o‘quv jarayoni bilan amalga oshiriladigan, o‘qitish jarayonlarini o‘quvchilarda tayanch va umumfan kompetensiyalarini takomillashtirish, kreativligini shakllantirishga qaratilgan maxsus ijtimoiy-pedagogik-psixologik jarayon deb ta’kidlash mumkin. Sifatli ta’lim berishni uzluksiz ta’limning bosh bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’limdan boshlash ko‘zlangan natijaga erishishimizga zamin bo‘ladi.

Ayni paytda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi va yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish uchun unga zamonaviy usullarni tatbiq qilish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shunday innovatsion usullardan biri – klasterdir.

Klasterning amaliy ahamiyati mamlakatlar, tarmoqlar va korxonalar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirish va yuqori samaradorlikka erishishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida klaster tizimini tashkil etish va tarbiyalanuvchilarni maqsadli kasbga yo‘naltirish:

MTT yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini yanada to‘liqroq qondirish uchun maqsadli tayyorlash tashkillashtiriladi.

MTT talablariga muvofiq o‘quv-ishlab chiqarish majmualarining maqsadli o‘quv rejasi, o‘quv fanlari, maxsus kurslarini shakllantiradi.

oliy ta’lim muassasalari bitiruv imtihonlarda tashkil etilgan kengashlarida, attestatsiya komissiyalarida, bo‘sh ish o‘rinlari yarmarkalarida faol qatnashadi.

MTT o‘z sohalari bo‘yicha maxsus loyihalar, stipendiyalar hamda konkurslar tashkillashtiriladi.

Demak, maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatiga klaster tizimini joriy etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

MTT bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish;

– tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

oliy ta’lim muassasalarini bitirgan talabalarni ta’limning keyingi bosqichiga yoki MTT yo‘naltirishga ko‘maklashish;

– MTT huquq va majburiyatlarini belgilash;

zamonaviy variativ darsliklar, o‘quv-qo‘llanmalar, elektron vositalar yaratish;

– amaliy mashg‘ulotlar, MTT sifatini oshirish uchun mustahkam moddiy-texnik

bazani tashkil qilish;

xorijiy tajribalardan foydalanish;

– MTT sohasini jahon talablari darajasida takomillashtirish va uning sifat va samaradorligini ta’minlash;

– samarali moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;

– ta’lim muassasalari uchun sifat menejmenti tizimini yaratish;

– nogironligi bor bolalarga MTT ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash.

Klasterli tizimni maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish ijtimoiy sohadagi mehnat bozori va ta’lim xizmatlari bozori o‘rtasida dinamik muvozanatga erishishni talab etadi. Buning uchun:

– maktabgacha ta’lim tizimida istiqbolli mehnat bozorining ehtiyojlariga qaratilgan innovatsion tarmoq infratuzilmasini yaratish;

– maktabgacha ta’lim sifatini oshirish;

– yosh kadrlar oqimini ijtimoiy sohaga yo‘naltirish kerak.

Mazkur fikrlardan kelib chiqib aytish joizki, maktabgacha ta’lim tizimida klaster tizimini joriy etish quyidagi natijalarga olib keladi:

– MTT malakaviy xodimlarga, axborotlarga va ta’lim muassasalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanishlari sababli maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi;

– ta’lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalar yaratishi, ularni qisqa muddatda MTTdan tajriba-sinovdan o‘tkazishi, amaliyotga joriy etishi uchun shart-sharoitlar yuzaga keladi;

– maktabgacha ta’limga raqobatbardosh yosh kadrlar tayyorlanadi;

– MTT tayyor mahsulotlar va xizmatlar yetkazib beriladi.

Maktabgacha ta’lim tizimida klaster tizimini joriy etishning afzalliklari

Maqsad		Natija
1	Ta’lim-tarbiya jarayoni mazmunini takomillashtirish va yangilash	Ta’lim-tarbiya, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalarida yangi bilim va texnologiyalarni tarqatish tizimi yaratiladi, shuningdek, innovatsion faoliyat rag‘batlantiriladi, natijada, innovatsion mahsulotning alohida shakli yaratiladi
2	Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini takomillashtirish	O‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi va sifati oshadi
3	Ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarga hududning ehtiyoj va talablariga mos holda yo‘naltirish	Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga va mehnat bozorining talablariga moslashtirish ta'minlanadi
4	Ta’lim-tarbiya jarayonlarini davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligini ta’minlash	Pedagog-tarbiyalanuvchilar davlat-xususiy sektor hamkorligi tamoyillariga muvofiq ilmiy-tadqiqot muassasalari va MTT xodimlarining ta’lim, ilmiy va innovatsion jarayonlarida ishtirok etadi
5	Ta’lim-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida moddiy-texnik bazasini yaratish	Moddiy va axborot resurslaridan foydalanish samaradorligi oshiriladi
6	Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagog-tarbiyachilarning ilmiy salohiyatini yuksaltirish	Ta’lim-tarbiya, iqtisodiyot va ijtimoiy ahamiyatga molik keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratiladi, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyat faollashadi

7	Amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish faoliyatini takomillashtirish	Malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi
8	MTT imkoniyatlaridan foydalanish	Turli darajalardagi o‘quv-uslubiy va variativ dasturlarini tajriba-sinovdan o‘tkazish uchun tajriba maydonchalari shakllantiriladi
9	Pedagog-tarbiyachilarning o‘quv-tarbiya faoliyatini takomillashtirish, ularga sharoit yaratish	O‘quv-pedagogik kadrlarning ijodiy salohiyatini va uslubiy yutuqlarini to‘plash va jamlash, ularning ijodiy ishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi
10	Ta’lim-tarbiya jarayonni doimiy tarzda takomillashtirib borish	Kadrlar salohiyati doimiy ravishda takomillashib boradi, ilmiy va pedagogik faoliyati rivojlanadi, ilmiy va pedagogik an’analarning ko‘payishi ta’minlanadi
11	Tarbiyalanuvchilar uchun qulay ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish	Tarbiyalanuvchilar uchun qulay o‘quv sharoitlari shakllanib, ularning talab va istaklari bo‘yicha ta’limning optimal darajasi oshiriladi, ta’lim xizmatlari kengayadi va takomillashadi
12	Maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash	Maktabgacha ta’limni boshqaruv organlari bilan ijtimoiy hamkorlik tizimi yaratiladi

Maktabgacha ta’lim klasteri bu – uni tashkil etuvchi tashkilotlarning, ularning ijtimoiy sherikligini jadal rivojlantirishni ta’minlaydigan integratsion mexanizmdir.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim klasteri deb, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan ta’limiy, kasbiy, ilmiy, ijtimoiy, texnologik va ishlab chiqarish tashkilotlarini bir maqsad yo‘lida birlashtirgan va qat’iy natija beradigan ta’lim-tarbiyaviy tizimga aytiladi.

Taqdim qilinayotgan maktabgacha ta’lim klasteriga muvofiq, klaster – doimiy pedagogik tafovutning milliy ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishdan manfaatdor bo‘lgan va shartnomalar asosida o‘zaro hamkorlik qiladigan muassasalar va tashkilotlarning ixtiyoriy birlashmasidir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi shiddat bilan rivojlanish pallasida raqobatbardosh kadrlarga e’tibor har qachongidan kuchaygan. Uzluksiz ta’limining dastlabki bosqichi bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini zamon talablari darajasida rivojlantirish, unga klaster usulini joriy etish ko‘zlangan maqsadga, natijaga erishishning, muammolarni bartaraf etishning birdan-bir yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi qonun. – T.: 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son Farmoni. www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi ¹868-sonli qarori. www.lex.uz

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 213-son qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.04.2021 y., 09/21/213/0330-son.

Шерзод МУСЛИМОВ,
преподователь Ташкентского государственного педагогического университета им. Низами, доктор философии по педагогическим наукам

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАФИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ

Annotatsiya

Ushbu maqolada kelajakdagi texnologiya o'qituvchilarida grafik vakolatni shakllantirish jarayonining muvaffaqiyatini belgilovchi pedagogik sharoitlar ko'rib chiqiladi: motivatsion-qiymat, bilim, operatsion-faoliyat va refleksiv; kelajak texnologiya o'qituvchilarining ijodiy-grafik va kasbiy-pedagogik tayyorgarligini integratsiyalash; oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning barcha bosqichlarida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida grafik vakolatni shakllantirish monitoringini tashkil etish to'g'risida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Shakllantirish, grafik qobiliyat, kelajak texnologiya o'qituvchilari, monitoring, kasbiy tayyorgarlik.

В данной статье рассматриваются педагогические условия, определяющие успешность процесса формирования графической компетентности у будущих учителей технологии: мотивационно-ценностного, когнитивного, операционно-деятельностного и рефлексивного; интеграция творческо-графической и профессионально-педагогической подготовки будущих учителей технологии; организация мониторинга формирования графической компетентности у будущих учителей технологии на всех этапах обучения в высших учебных образовательных учреждениях идет речь.

Ключевые слова. Формирование, графическая компетентность, будущие учителя технологии, мониторинг, профессиональная подготовка.

This article discusses the pedagogical conditions that determine the success of the process of formation of graphic competence of future teachers of technology: motivational-value, cognitive, operational-activity and reflexive; integration of creative-graphic and professional-pedagogical training of future teachers of technology; organization of monitoring the formation of graphic competence of future teachers of technology at all stages of training in higher educational institutions.

Key words. Formation, graphic competence, future technology teachers, monitoring, professional training.

Произошедшие изменения в содержании образования высшей педагогической школы Республики Узбекистан усиливают проблему процесса формирования графической компетентности у будущих учителей технологии. Сегодня обществу нужен новый педагог, гибко мыслящий, способный к творческому освоению профессии и овладению динамично развивающимися достижениями науки, техники и передового опыта.

Рассматривая специфику графической деятельности будущих учителей, следует отметить многообразие ее видов: проектирование, конструирование, моделирование, рационализация, изобретательство. Это указывает на необходимость создания таких

условий, которые бы способствовали формированию графической компетентности у будущих учителей в учебном процессе, при которых реализовались бы все этапы творческого процесса – подготовка проекта, работа над ним, материальное воплощение замысла.

Многие исследователи под педагогическими условиями понимают совокупность объективных возможностей, обстоятельств и мер, которые сопровождают образовательный процесс.

На основе обобщения результатов исследования к числу наиболее значимых педагогических условий, определяющих успешность процесса формирования графической компетентности у будущих учителей технологии, были отнесены: обеспечение взаимосвязи компонентов структуры формирования графической компетентности: мотивационно-ценностного, когнитивного, операционно-деятельностного и рефлексивного; интеграция творческо-графической и профессионально-педагогической подготовки будущих учителей технологии; организация мониторинга формирования графической компетентности у будущих учителей технологии на всех этапах обучения в высших учебных образовательных учреждениях.

Первое педагогическое условие – обеспечение взаимосвязи компонентов структуры формирования графической компетентности: мотивационно-ценностностного, когнитивного, операционно-деятельностного и рефлексивного.

Мотивационно-ценностный компонент формирования графической компетентности включает: осознание ценности творчества как феномена общественно-исторической практики; осознание значения творческо-конструкторской деятельности как вида общественно-полезной деятельности по преобразованию окружающей природной и предметной среды, созданию социально значимых материальных ценностей; осознание ценности образовательного и воспитательного потенциала обучения учащихся творческо-конструкторской деятельности в различных формах трудовой и профессиональной подготовки.

Когнитивный компонент формирования графической компетентности будущего учителя технологии определяет систему общепедагогических, методических, специально-предметных знаний как множество связанных между собой элементов, представляющих определенное целостное образование.

В содержание операционно-деятельностного компонента формирования графической компетентности будущего учителя технологии входят гностические, проектировочные, конструктивные, организационные и коммуникативные умения.

Рефлексивный компонент структуры формирования графической компетентности будущего учителя технологии включает в себя: личностную включенность в рефлексивно отображаемую учебную ситуацию, что проявляется в осмыслении своей причастности и ответственности за результаты деятельности учащегося; конструирование и адаптацию учебного материала в соответствии с возможностями учащегося; прогнозирование его возможных затруднений; стимулирование его самостоятельных действий при решении творческо-конструкторской задачи.

Второе педагогическое условие – интеграция графической и профессионально-педагогической подготовки будущих учителей технологии.

Одной из важнейших предпосылок формирования графической компетентности будущего учителя технологии является изучение дисциплин, входящих в состав этой специальности: ‘‘Основы конструкторско-технологической деятельности’’,

“Методика трудового обучения”, “Методика организации творческой технической деятельности”, “Методика решения технических задач”, “Психология творчества”. Изучение предметных дисциплин в их совокупности со спецкурсами, практикумами и факультативными курсами позволяет обеспечить необходимый для будущего учителя уровень графической подготовки.

Третье педагогическое условие – организация мониторинга формирования графической компетентности будущего учителя технологии на всех этапах обучения в высших учебных образовательных учреждениях.

Для определения эффективности влияния педагогических условий, созданных нами для повышения уровня формирования графической компетентности будущего учителя технологии, мы применили диагностирование, приоритетными методами которого являлись: метод экспертной оценки, наблюдение, изучение результатов деятельности студентов (рефераты, проектная деятельность), письменные и устные опросы (анкеты, тесты, опросы), индивидуальные и групповые беседы.

Использованная литература:

1. Андреев В.И. Педагогика / В.И. Андреев. – Казань: Центр инновационных технологий, 2000. – С. 608.

2. Зеер. Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход / Э.Ф. Зеер, А.М. Павлова, Э.Э. Сыманюк. – М.: МПСИ, 2005. – С. 216.

3. Набатова. Л.В. Творческо-конструкторская деятельность студентов как средство формирования критического мышления / Л.В. Набатова Э.Р. Гайнеев // Среднее профессиональное образование. – 2009. – № 8. – С. 22–24.

Мехринисо АТОЕВА,
Бухарский государственный университет, доцент кафедры “Физика”

ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОГО ЭКСПЕРИМЕНТА В ОБУЧЕНИИ ФИЗИКЕ И МЕТОДИКА ЕГО ОРГАНИЗАЦИИ НА УРОКАХ

Annotatsiya

Ushbu maqolada fan bo‘yicha davlat dasturi asosida fizika fanidan eksperimental darslarni tashkil etish metodikasi bayon etilgan. Yosh o‘qituvchilar uchun o‘quv jarayonida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda guruhlarda va yakka tartibda mustaqil ishlashni tashkil etishda amaliy va uslubiy ko‘rsatma sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar. Jismoniy ta'lim modeli, rivojlanish, pedagogik tendentsiyalar, o‘quv jarayoni, pedagogika, ta’lim, o‘qitish metodikasi, umumiy ta’lim, gumanitar, tabiiy-ilmiy, fizika-matematika, texnik, eksperimental ta’lim, o‘quv jarayoni, o‘quv samaradorligi, amaliy ko‘nikmalar.

В данной статье изложена методика организации экспериментальных занятий по предмету физики на основе государственной Программы по предмету. Рекомендуется в качестве практического и методического показаний для молодых учителей при организации самостоятельной работы студентов в группах и индивидуально, использовании современных информационных и педагогических технологий в учебном процессе.

Ключевые слова. Модель физического образования, развитие, педагогичекие тенденции, учебный процесс, педагогика, обучение, методиа преподавания, общеобразовательный, гуманитарный, естественно-научный, физико-математический, технический, экспериментальная подготовка, учебный процесс, эффективность обучения, практические умения.

This article describes the methodology for organizing experimental classes in the subject of physics on the basis of the state Program in the subject. This technique can be used by teachers in teaching subject physics, students and students interested in physics. It is recommended as a practical and methodological indication for young teachers in organizing students' independent work in groups and individually, using modern information and pedagogical technologies in the educational process.

Key words. Model of physical education, development, pedagogical trends, educational process, pedagogy, training, teaching methods, General education, Humanities, natural science, physics and mathematics, technical, experimental training, educational process, learning effectiveness, practical skills.

Современные тенденции развития школьного образования обусловлены внедрением идей личностно-ориентированной педагогики в учебный процесс. Индивидуальный характер развития каждого школьника в соответствии с его способностями, склонностями и интересами позволяет осуществить дифференцированное обучение.

В последние десятилетия отмечается снижение качества общего среднего образования. Это касается всех естественнонаучных дисциплин и физики в частности, что приводит к падению мировоззренческого уровня развития учащихся, отсутствию сформированное™ у них целостных представлений о единой картине

мира и месте человека в нем. Появилась необходимость усиления образовательного и развивающего потенциала физики как учебного предмета, выявления новых путей обновления содержания физического образования, создания технологий обучения, ориентированных на возможно более полное использование учебного физического эксперимента для обеспечения целостности образовательной системы, активизирующей деятельностный и творческий потенциал учащихся, сохраняющей их самобытность и индивидуальность.

Набирает популярность вопрос внедрения современных педагогических технологий, применения инновационных идей в учебном процессе. По этой причине одна из самых актуальных проблем – различать известные методы и правильно их объяснять.

Основная часть. Существующая модель физического образования в средней школе предполагает трехступенчатое изучение вопросов курса физики: с 1 по 5 класс (1 ступень) – некоторые вкрапления физического материала, как один из компонентов, входят в содержание интегрированных курсов “Окружающий мир”, “Природоведение”; с 7 по 9 класс (2 ступень) – начало изучения основ физической науки; с 10 по 11 класс (3 ступень) – изучение систематического курса физики.

Вариативность процесса обучения на третьей ступени обеспечивается разделением общей массы учащихся на несколько потоков (профилей): общеобразовательный, гуманитарный, естественно-научный, физико-математический, технический, работающих по разным программам. Количество недельных часов, отводимых учебным планом на изучение физики в классах разной специализации, колеблется от двух до пяти. За это время учитель должен обеспечить достижение соответствия уровня знаний и экспериментальных умений и навыков, полученных учащимися, необходимому уровню образовательного стандарта данного профиля. Обучение школьников, их экспериментальная подготовка осуществляются на базе единого физического кабинета, с применением одного и того же типового оборудования, что создает объективные трудности в работе учителя, повышает требования, предъявляемые к организации учебного процесса, рациональному размещению и правильному использованию учебного оборудования.

В условиях профильной дифференциации старшей ступени, связанной с различием программ, учебных заведений в рамках которых учащиеся будут продолжать обучение, меняется назначение курса физики основной школы. Он должен обеспечивать получение выпускниками законченного начального физического образования, т.е. основного базового уровня фундаментальных знаний и практических умений по всем основным разделам школьного систематического курса физики. Возрастание объема научной информации, предлагаемой для восприятия учащихся, нарушение непрерывности обучения в 6 классе негативно влияют на качество получаемого физического образования и приводят к необходимости внесения изменений в структуру и содержание курса физики второй ступени.

Другой формой осуществления индивидуального подхода к процессу обучения является уровневая дифференциация учащихся внутри класса. Ее реализация предусматривает не только решение разноуровневых задач, выполнение контрольных заданий различной степени сложности, но и вариативность экспериментальной деятельности школьников на уроке. Существующая методика проведения фронтального лабораторного эксперимента, работ физического практикума обусловлена применением в учебном процессе двухместного рабочего стола и

предполагает организацию практической деятельности учащихся в парах. Это приводит к падению индивидуального уровня сформированности практических умений и навыков обучаемых.

Таким образом, налицо противоречия:

– между осуществлением профильной дифференциации процесса обучения и отсутствием реальных условий для осуществления вариативности экспериментальной подготовки школьников на базе единого физического кабинета;

– между необходимостью индивидуализации обучения и несовершенством рабочего места учащегося;

– между действующей моделью физического образования и новыми, современными требованиями к уровню знаний и практических умений выпускников основной школы.

Существующие противоречия оказывают негативное влияние на процесс преподавания физики в школе, а следовательно, на качество физического образования школьников. Необходимость устранения этих противоречий требует решения проблем повышения эффективности учебного процесса, интенсификации деятельности учителя и учащихся во время урока, мобильности использования оборудования кабинета, изменения качества пропедевтического физического образования.

Описание системы школьного физического эксперимента, перечня необходимого учебного оборудования, вариативность содержания, методики и техники проведения фронтальных лабораторных работ и работ физического практикума в 7-11 классах, разнообразные способы и приемы организации экспериментальной деятельности учащихся – кратковременные лабораторные работы, предварительное исследование, простой физический эксперимент.

Исследования показывают, что физические явления лучше всего объяснять наглядным и увлекательным способом, именно поэтому интересно будет если в процессе не так много текста, а много интересного видео с опытами и занимательными физическими экспериментами. Очень важно, принять все меры предосторожности, некоторые опыты требуют хорошо проветриваемое помещение, другие, наличие спецодежды и других средств защиты. Просмотрим несколько экспериментальные опыты для примера.

1. Бумажная крышка и атмосферное давление.

Описание. Атмосферное давление – это давление воздуха на земную поверхность и на все находящиеся в атмосфере предметы, созданное гравитационным притяжением Земли. Оно распространяется во все стороны с равной силой. То есть и вверх тоже.

Если наклонить наполненный водой стакан, вода начнет выливаться из него, потому что на нее действует сила тяжести, и ничто не мешает жидкости устремиться вниз.

Для того, чтобы вода не вылилась из сосуда, можно пойти несколькими путями. Закрыть плотной крышкой, заморозить, не переворачивать стакан. Или, наконец, просто не наливать ее туда.

Но мы не ищем легких путей.

Попробуем создать такие условия, при которых воду в сосуде удерживает именно атмосферное давление, не смотря на силу тяжести.

Наполненную жидкостью колбу накрываем бумажным листом, плотно

прижимаем рукой, переворачиваем и какое-то время держим в таком положении. В это время вода смачивает поверхность бумаги, и она ‘‘приклеивается’’ к стенкам колбы за счет сил поверхностного натяжения. Затем медленно убираем руку и наблюдаем заявленный результат.

Между дном (которое теперь вверху) и поверхностью воды образуется пространство, наполненное воздухом и парами воды. Столб воды стремится вниз под действием силы тяжести, увеличивая объем этого самого пространства. При постоянной температуре давление в нем падает, то есть по отношению к атмосферному – становится меньшим. И чем меньше это самое давление, тем больший столб жидкости может оно удержать. Теоретически, до 10 м. Итак, сумма давления воздуха и воды на бумагу изнутри получается несколько меньше, чем атмосферное давление снаружи. На этом и держится (1-рис.).

Но это не вечно. Через некоторое время испарение воды увеличит давление воздуха и оно сравняется с атмосферным. Так же на скорость отрыва влияет прочность, пластичность и смачиваемость бумаги, температура воды, кривизна поверхности сосуда.


Для эксперимента понадобится

Посуда: стакан

Расходные материалы: краски акриловые, лист бумаги

Стадии эксперимента

1. Наполняем стакан водой.
2. Для красоты добавляем немного краски в воду.
3. Сверху на стакан кладем лист бумаги.
4. Придерживая лист рукой, переворачиваем стакан и убираем руку.




1-рис.

1. Наполняем стакан водой и для измененения вид подкрашем воду краской (2-Рис.)
2. Кладём сверху на стакан лист бумаги. придерживая лист рукой, переворачиваем стакан и убираем руку (3-Рис.).



2-Рис.




3-Рис.

Вода не выливается из колбы благодаря силе, возникающей из-за разницы атмосферного давления вне сосуда и давления, которое образуется внутри между дном и поверхностью воды. Вода не выливается из колбы благодаря силе, возникающей из-за разницы атмосферного давления вне сосуда и давления,

которое образуется внутри между дном и поверхностью воды. То есть, когда столб воды пытается опуститься вниз, в емкости образуется среда с пониженным давлением, которая и удерживает жидкость.

2. Вода течёт вверх. Опыт иллюстрирует, как происходит процесс впитывания жидкости твердым телом, а именно салфеткой. Салфетка имеет пористую структуру и состоит преимущественно из целлюлозы, которая, в свою очередь, имеет волокнистое строение. Таким образом, воде не составляет труда найти себе пути-капилляры для движения вверх (4-рис.).







4-рис. 5-рис. 6-рис.

1. Вырезаем из салфетки полоску (5-рис.).

2. Наносим фломастерами разноцветные точки с один ряд (6-рис.).

Описание. Вода – уникальное вещество. При всей распространенности и простоте своего состава ее физические и химические свойства зачастую являются исключениями. Так, например, при 4оС плотность воды максимальна, а при переходе в твердое состояние (лед) она уменьшается! Никакое другое вещество себя так не ведет.

Что же касается данного опыта, на первый взгляд, все очевидно и просто. Вода смачивает бумагу и бечевку, и материалы намокают. А вот объяснить почему так происходит, затруднительно.

Разберемся, для начала, в самом термине «смачивание». Оно представляет собой явление взаимодействия жидкости с поверхностью твердого тела. Вариантов развития событий, как всегда, два:

• притяжение между молекулами жидкости сильнее, чем их притяжение к молекулам твердого тела. Жидкость стремится сократить контакт с поверхностью и, в результате, собирается в капли.

• притяжение между молекулами жидкости слабее, чем их притяжение к молекулам твердого тела. Жидкость стремится увеличить площадь соприкосновения и, в результате, прижимается к поверхности тела, растекаясь по ней.

Тут, очевидно, второй вариант. Растекание происходит до тех пор, пока жидкость не покроет всю поверхность, или пока слой жидкости не станет мономолекулярным. Но как вода преодолевает силы гравитации?

Собственно, так же, как и в растениях. Вода поднимается вверх по капиллярным сосудам растения и доставляет ее от корней к листьям и плодам.

Происходит это за счет разницы давлений и сил поверхностного натяжения воды. Поверхность воды, попадающей в узкий капилляр, принимает вогнутую форму (мениск). При таком положении давление жидкости под этим мениском

становится меньше атмосферного, и вода стремится вверх. И чем тоньше капилляр, тем выше поднимается вода, стремясь уравновесить отрицательное давление. Если жидкость не смачивает поверхность, то мениск будет выпуклый, и она не станет подниматься вверх по капилляру (7-рис.).

Салфетка имеет пористую структуру и состоит реимущественно из целлюлозы, которая, в свою очередь, имеет волокнистое троение. Таким образом, воде не составляет труда найти себе пути-капилляры для движения вверх (5-рис.).

В бечевке процессы протекают аналогичным образом, с той лишь разницей, что в ней не нарушаются механические свойства, так как состоит она из цельных нитей.

Для эксперимента понадобится

Реактивы:	Вода
Посуда:	Стакан
Инструмент:	ножницы, фломастеры
Расходные материалы:	бумажная салфетка, веревка

Стадии эксперимента

1. Вырезаем из салфетки полоску.


2. Наносим фломастерами разноцветные точки с один ряд.

3. На бечевке также наносим на расстоянии друг от друга несколько отметок фломастерами разных цветов.

4. Наливаем в стаканы воду.

5. Опускаем полоску из бумажной салфетки в первый стакан так, чтобы она немного касалась поверхности воды.

6. Бечевку помещаем во второй стакан с водой таким же образом, как и салфетку.



7-рис.

Все эксперименты носят обучающий характер, несмотря на использовании в них, зачастую, простых обыденных предметов, например, опыты с атмосферным давлением, холодной и горячей водой, газировкой и т.д. Они не перестают быть научными и при этом интересными, занимательными.

Использованная литература:

1. Atoyeva M. F., Safarova R.S. Pedagogical integration as a means of forming professionally important qualities among students of a medical university. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 8, August 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13 ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, India. P. 564.

2. Atoyeva, M. F. Didactic foundations of inter media relations in the training of university students. Theoretical & Applied Science. QR – Issue QR – Article SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS. International Scientific Journal . ESJI (KZ) = 8.997 . 06 (86) 2020 P.124.

3. Ельцов А.В. Интегративный подход как теоретическая основа осуществления школьного физического эксперимента. Дис. и авт. по ВАК РФ 13.00.02

Исмонали ШЕРАЛИЕВ,
Академия Вооруженных сил Республики Узбекистан,
старший преподаватель кафедры "Физической культуры и спорта",
подполкавник

ДОПРИЗЫВНАЯ ПОДГОТОВКА МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ШКОЛЬНОГО ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ

Annotatsiya

Hozirgi vaqtda yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga tayyorlashning ko'plab usullari va yondashuvlari mavjud. Har qaysi yo'nalishda va qaysi sohada ishlashni aniqlash oson emas, chunki ushbu jarayoni insonning jismoniy, psixologik va axloqiy tarkibiy qismlarini rivojlantiradigan va shu bilan birga harbiy amaliy bilim, ko'nikma va malakalar kerak bo'ladi. Ushbu maqolada katta maktab yoshidagi o'g'il bolalarning jismoniy shakllanish qonunlari, ularning harakat qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonlari hamda harbiy-amaliy tayyorgarlik tashkil etishda jismoniy yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Katta maktab yoshidagi o'g'il bolalar, jismoniy shakllanish qonunlari, harakat qobiliyatlar, rivojlantirish, harbiy-amaliy yo'nalish.

В настоящее время существует множество методов и подходов к подготовке молодежи к службе в Вооруженных Силах Республики Узбекистан. Определить, в каком направлении и в какой сфере работать, непросто, так как этот процесс требует практических знаний, умений и навыков, которые развивают физическую, психологическую и нравственную составляющие человека и в то же время воина. В данной статье проанализированы закономерности физического формирования мальчиков старшего школьного возраста, процессы развития их двигательных способностей, а также физические аспекты организации военно-практической подготовки.

Ключевые слова. Мальчики старшего школьного возраста, законы физического формирования, двигательные способности, развитие, военно-прикладная направленность.

Currently, there are many methods and approaches to preparing young people for service in the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan. It is not easy to determine in which direction and in which field to work, since this process requires practical knowledge, skills and abilities that develop the physical, psychological and moral components of a person and at the same time a warrior. This article analyzes the patterns of physical formation of boys of high school age, the processes of development of their motor abilities, as well as the physical aspects of the organization of military-practical training.

Key words. Boys of senior school age, laws of physical formation, motor abilities, development, military-applied orientation.

В последние годы в стране проделана определенная работа в сфере подготовки призывников по военно-техническим специальностям, формированию духовно богатой и физически здоровой личности, созданы благоприятные условия для занятия спортом, в том числе его техническими и прикладными видами.

Вместе с тем уровень поступающей на комплектование Вооруженных Сил современной военной техники и вооружения обуславливают необходимость оперативного и адекватного реагирования на достижения научно-технического прогресса и требуют совершенствования системы подготовки допризывной молодежи к военной службе.

Не на должном уровне проводятся мероприятия по духовно-нравственному и военно-патриотическому воспитанию подрастающего поколения, формированию у него чувства долга по защите суверенитета и независимости страны.

Имеется ряд недостатков, препятствующих развитию технических и прикладных видов спорта, в числе которых:

• не налажена четкая система подготовки, переподготовки и повышения квалификации специалистов по данным видам спорта;

• не внедрена эффективная система материального стимулирования и социальной поддержки спортивных кадров;

• недостаточно развита спортивная инфраструктура и материально-техническая база для подготовки сборных команд и проведения соревнований;

• не принимаются действенные меры по популяризации технических и прикладных видов спорта среди населения, особенно молодого поколения.

В целях организации качественной подготовки призывников по военно-техническим специальностям и граждан по массовым техническим профессиям, дальнейшего развития технических и прикладных видов спорта, совершенствования деятельности по духовно-нравственному и военно-патриотическому воспитанию подрастающего поколения: принято постановлению Президента Республики Узбекистан от 12 декабря 2018 года № ПП-4061 “О дополнительных мерах по патриотическому и физискому воспитанию молодёжи и совершенствованию порядка подготовки призқвников по военно-техническим специальностям”.

В настоящее время существует множество путей и подходов подготовки молодых людей к службе в Вооруженных Силах Республики Узбекистан. Определить в каком направлении и области работать, довольно не легко, так как процесс этой подготовки является многоуровневой системой развивающей физические, психологические и нравственные компоненты человека и одновременно охватывающей освоение военно-прикладных знаний, умений и навыков.

Полагаем, что в этой системе весьма важное место должно быть отведено общеобразовательной школе. Однако до настоящего времени нет обобщающих исследований затрагивающих процесс допризывной подготовки в системе общего образования. Несмотря на это каждый год правительством разрабатываются новые проекты, утверждаются указы, принимаютсяI постановления по проведению данного вида работы в общеобразовательной школе, но до сих пор учреждения, занимающиеся допризывной подготовкой, не выпускают полноценных защитников Родины.

Сегодня появилась необходимость вернуться к тем элементам системы подготовки граждан, которые в течение долгих лет плодотворно функционировали в советские времена и считались наиболее эффективными.

Изучение начального периода военной службы юношей, призванных в армию показывает, что многие из них сталкиваются с серьезными проблемами в новом для них качестве военнослужащих срочной службы. Среди основных причин этого следует отметить:

• отсутствие четких представлении о характере воинской деятельности;

• низкая психологическая подготовленность к преодолению трудностей;

• отсутствие навыков в общении и умений в бытовом отношении;

• слабое физическое развитие и как следствие низкая физическая подготовленность;

В связи с этим одной из необходимых сторон педагогической деятельности со школьниками старших классов является разработка и реализация инновационных методик физического воспитания военно-прикладной подготовки, которые позволили бы связать их деятельность с оборонно-трудовой практикой, что, в конечном счете, должно поспособствовать формированию гармонически развитой личности. Важность и значимость разработки таких методик, отмечают В.М. Маркевич, Ю. Галанин, Г. Колодницкий, В. Кузнецов, Б. Гафуров. Данные авторы к числу мероприятий, которые позволят повысить реализационную эффективность работы такой направленности, причисляют следующее.

разработка и осуществление программ физической воспитания военно-прикладной направленности позволяющих овладеть юношам призывного возраста необходимыми для военной службы прикладными умениями и навыками;

разработка и реализация методики психологической подготовки к предстоящей деятельности (военной службе);

внедрение урочных, внеклассных и внешкольных форм мероприятий позволяющих обеспечить занимающихся реальными представлениями и основными знаниями имеющих отношение к военной службе в Вооруженных Силах РУ;

использование возможностей армии в воспитании гражданина своей страны.

В перечне мероприятий по формированию у старшеклассников положительной мотивации к военной службе должна занимать психолого-педагогическая помощь старшеклассникам, которая заключается в следующем по данным И.Ю. Кулагина:

1) в обогащении и расширении конкретно-чувствительного опыта юношества (увеличение пространства обитания, расширение круга общения, увеличение числа и разнообразия объектов, с которыми школьник может активно иметь дело).

2) в организации постоянного психотерапевтического воздействия с целью повышения мотивации направленной на успех.

3) в усилении связи между школой и военными частями.

Процесс военно-прикладной подготовки допризывников, как считает

М.М. Бака (2004), должен корректироваться в первую очередь специалистами по физической культуре с учетом возможностей образовательного института. Кроме этого, А. Волокитин (2001) к одним из существенных недостатков подготовки юношей к службе в армии относит то, что школа не дает реальных представлений о предстоящей военной службе, в виду неотлаженных действий осуществляемых между школой и военным ведомствами. А ведь сотрудничество этих общественных институтов способно дать возможность овладеть учащимся необходимыми для службы в армии знаниями, военно-прикладные умениями и навыками еще в школьные годы.

У большинства сельских школ для проведения военно-прикладной подготовки в рамках программы по физической культуре отсутствует материальная база, поэтому в зимнее время года у потенциальных призывников режим двигательной активности значительно снижается, что в свою очередь негативно сказывается на общем уровне их двигательных способностей.

Так, например, многие учителя физической культуры испытывают затруднения в своей деятельности из-за ограниченного числа упражнений, посредством которых школьники могут освоить содержание государственной программы. В связи с, этим, старшеклассники демонстрируют свое недовольство занятиями, аргументируя это тем, что материал данной темы им уже знаком и хорошо изучен. Поэтому у старшеклассников, либо снижается посещаемость уроков физической культуры, либо занятия проходят без их должной инициативы и особого желания. Такая ситуация никоим образом не способствует повышению интереса, к занятиям физической культурой и является причиной гиподинамии, качественно решить проблему комплектования Вооруженных Сил возможно только в рамках программы по физической культуре ддлпризивной военной подготовкой, так как военно-ориентированная подготовка предусматривает специально-направленное и избирательное использование средств физической культуры и спорта для подготовки лиц призывного возраста. Неотъемлемой частью такого направления должна стать военно-прикладная физическая подготовка со своим многообразием средств и видов, как общего, так и специального физического развития школьников, что будет способствовать более полному и гармоническому развитию юноши.

Используя средства физического воспитания военно-прикладной направленности со старшеклассниками, можно более полно овладеть навыками и качествами двигательных действий, затронуть сознательную сторону обучающихся. Это позволит избирательно, направленно, комплексно развить физические способности, повысить устойчивость организма к воздействию неблагоприятных факторов (гипоксии, укачиванию, перегрузками, вибрации, вестибулярным изменениям).

Сегодня многие специалисты, проблемы снижения уровня здоровьями физического развития современной молодежи, связывают с гипокинезией. При гипокинезе снижается активность многих ферментов влияющих на характер окислительных процессов и биохимических превращений в организме. Происходит отчетливое снижение общей устойчивости организма к простудным факторам и патогенным микроорганизмам. Наблюдается отставание моторики, задержка развития вегетативных функций, происходит снижение диапазона функциональных возможностей сердечно-сосудистой системы.

Между тем, двигательная активность является биологической потребностью человека. Систематические занятия физической культурой, включающей средства военно-прикладной подготовки, будут способствовать гармоничному развитию допризывника и военнослужащего, повысят их физическую работоспособность, защитные свойства организма, улучшат их способность к мобилизации функциональных возможностей и более экономичному выполнению мышечной работы. Под влиянием рациональных физических нагрузок происходит перестройка функций отдельных органов и систем. Заболеваемость военнослужащих ранее регулярно занимающихся физической культурой значительно ниже, чем у их товарищей по службе которые прежде вели двигательно малоактивный образ жизни.

По данным этого же автора, прикладная двигательная активность положительно влияет на развитие и деятельность кардиореспираторного аппарата и всей системы кислородного обеспечения организма лиц призывного возраста. У призывников, регулярно занимавшихся военно-прикладной физической культурой, было отмечено и сокращение отставания процесса формирования сердца от темпов увеличения

тотальных размеров тела. У них в большей мере увеличивается объем грудной клетки и ее экскурсия, отмечается урежение дыхания, увеличивается жизненная емкость легких и нарастание их жизненного показателя

Физическое и военно-прикладное воспитание совершенно неотделимо от других видов воспитания. Органической основой их взаимосвязи является единство физического и духовного развития человека, а также закономерности организации всей социальной системы физического воспитания.

Собственно, физическая военно-прикладная подготовка, физическая культура и спорт выступают как мощное средство социального становления личности призывного контингента, активного совершенствования индивидуальных, личностных качеств, а также двигательной сферы. Таким образом, физическая военно-прикладная подготовка, физическая культура и спорт выступают важнейшим условием, а физическое воспитание важнейшим средством разностороннего развития личности.

Использованная литература:

1. Галанин Ю. Еще раз о патриотическом воспитании [Текст] /Ю.Галанин // Основы Безопасности Жизнедеятельности. – 2001. – №3. – С. 20-23.

2. Гареев М.М. Комплектование Вооруженных Сил – важнейшая проблема дня [Текст] /М.М. Гареев //Красная звезда, 2001.

3. Маркевич В.М. Большое внимание будущим воинам [Текст] /В.М. Маркевич //Физическая культура в школе. – 1985. – №12. – С. 6. – ISSN 0068-3687

4. Кузнецов В., Колодницкий, Г. Физическая подготовка допризывной молодежи [Текст] /В. Кузнецов, Г. Колодницкий //Основы Безопасности Жизнедеятельности. – 2003. -№10. – С. 19-23.

5. Кулагина И. Ю. Возрастная психология [Текст]: учеб. пособие 2-е изд /И.Ю. Кулагина. – М.: Издательство УРАО, 1997. – С. 170. - ISBN 5-204-00113-1.

6. Бака М.М. Физическая и военно-прикладная подготовка старшеклассников [Текст] / М.М. Бака. – М.: “Советский спорт”, 2004. С. 280с, ил. ISBN 5-85009-944-1.

7. Волокитин А. Военно-профессиональная ориентация учащихся [Текст] /А. Волокитин //Основы Безопасности Жизнедеятельности. – 2001. – №8. – С. 24-27.

8. Демьяненко Ю.К. Особенности влияния физических упражнений на разных этапах профессионального становления военных специалистов [Текст] /Ю.К. Демьяненко //Психолого-педагогические аспекты физической подготовки. – Л.: ВДКИФК, 1985. – С. 66-75.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV. Yashin ISMANDIYAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2021.